

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
Z.M.BOBUR NOMIDAGI ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI**

UDK _____

Magistratura bo‘limi

“O‘zbekiston tarixi ”

Kafedrasi

“TASDIQLAYMAN”

“HIMOYAGA QO‘YILDI”

Bo‘lim boshlig‘i

Kafedra mudiri

N.I.Asqarov

S.A.Xoshimov

“ ” 2016 yil

“ ” 2016 yil

**« SOVETLAR DAVRIDA O‘ZBEKISTONDA KADRLAR SIYOSATI VA
UNING OQIBATLARI (1950-1991 YILLAR)»**

MAVZUSIDA

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar:

t.f.n. E. Erkayev

Bajardi:

XOMIDOV DILSHOD

“O‘zbekiston tarixi” yo‘nalishi magistranti

ANDIJON – 2016

Mundarija

KIRISH.....	3-21
I. BOB. SOVET DAVLATINING KADRLAR SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHI VA UNING MOHIYATI.....	22
I.1 Sovetlarning kadrlar siyosatining g‘oyaviy asoslari va strategik maqsadlari.....	22-31
I.2. O‘zbekistonda kadrlar siyosatini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari..	32-43
II. BOB. SOVETLARNING O‘ZBEKISTON SANOATINI ISHCHI KADRLAR BILAN TA‘MINLASHDAGI SIYOSATI VA UNING OQIBATLARI.....	44
II.1. O‘zbekiston sanoatida mahalliy ishchi kadrlarning tayyorlanishi.....	44-53
II.2. Sovetlarning mahalliy ishchi kadrlarga munosabati va markazdan kadrlar jo‘natish siyosati.....	54-60
III.BOB. QISHLOQ XO‘JALIK KADRLARINI SHAKLLANTIRISH VA XO‘JALIKNI MALAKALI MUTAXASSISLAR BILAN TA‘MINLANISHI MASALALARI.....	61
III.1. Qishloq xo‘jaliligini kadrlar bilan shakllantirish yo‘nalishlari.....	61-71
III.2. Qishloq xo‘jaligini mutaxassis kadrlar bilan ta‘minlashdagi muammo va kamchiliklar.....	72-82
XULOSA	83-87
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	88-91

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgan vaqtdan beri o‘tgan yillar davomida demokratik davlat va fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishda amalga oshirilayotgan islohotlar o‘zlik va o‘ziga xoslikni keng tarzda anglab yetgan va mustahkam milliy g‘oya, tafakkur bilan yetilgan jamiyat a‘zolarini tarbiyalashni talab etmoqda. Ayni paytda shu o‘tgan yillarda millat, xalq taqdiri bilan bog‘liq jarayonlar sarhisob qilinsa, asrlarga teng, ulkan ahamiyatga molik ishlar amalga oshirilganining guvohi bo‘lish mumkin.

Demokratiya, fuqarolik jamiyati qurilishidagi bunday odimlar ijtimoiy hayotdagi muhim vazifalardan kelib chiqib, tarix fani oldiga ham muhim vazifalarni qo‘yadi. Zero, O‘zbekiston tarixi sahifalari ham ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy, mahnaviy voqeliklar nisbatini aniqlash, ularning sabablarini anglash va kelajakda xulosalar chiqarib berishda muhim va dolzarb masala hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlab aytganidek, “Tarix xotirasi, jonajon o‘lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash, milliy o‘zlikni anglashni, ta’bir joiz bo‘lsa, milliy iftixorni tiklash va o‘stirish jarayonida g‘oyat muhim o‘rin tutadi”¹, zero, “o‘z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan millatning kelajagi yo‘q”².

O‘zbekiston tarixining o‘rganilishi muhim bo‘lgan muammolaridan biri bu – sovet tuzumining kadrlar siyosati va uning oqibatlarini tadqiq etish masalasidir. Mazkur muammo sovet davri tarixining, xususan, 1950-1991 yillarida muhim masala sifatida kun tartibida turdi. Bugungi kunda ham ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotdagi alohida masala ekanligini isbotlamoqda. Shu nuqtai nazardan uzoq yillar davomida sovet davlatining ma’muriy-buyruqbozlik tizimi ostida amalga oshirgan kadrlar siyosati, uning ijtimoiy-ma’naviy hayotga, aholining turmush darajasiga tasiri va oqibatlarini tadqiq etmaslik, tegishli saboq, xulosalarni chiqarmaslik mumkin emas. Tanlangan davr tadqiq etilayotgan davr nuqtai

¹Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – Б. 140.

²Каримов И.А. Юсак маънавият - енгилмас куч. – Тошкент: Маънавият, 2008. – Б. 4

nazaridan mafkuraviy ko‘rinishga ega bo‘lib, bular birinchidan, urushdan keyingi yillarda iqtisodni tinch izga ko‘chirish davomida O‘zbekistonda yirik sanoat tarmoqlarining paydo bo‘lishi va rivojlanishi ko‘plab millat va elatlarning ko‘chib kelishi hamda butunlay qolib ketishiga olib keldi. Bularning barchasi insoniyat taraqqiyotiga zid rejali rivojlanish hisobiga amalga oshirildi;

- ikkinchidan, mamlakat ijtimoiy, iqtisodiy, ma‘naviy sohalarida yakkapartiyaviy hukmronlik kuchayib, bu tor sinfiy yo‘nalishga ega bo‘lgan “markscha-lenincha” ta‘limotga asoslanishi bilan belgilandi. Bu o‘z navbatida O‘zbekistonni ham murakkab hayot sharoitiga, bartaraf etish qiyin bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar girdobiga solib qo‘ydi;

- uchinchidan, “yagona iqtisodiy makon”ning sun‘iylashtirilishi shahar va qishloq o‘rtasidagi tafovutlar, oziq-ovqat, turar-joy, yuqori malakali milliy mutaxassis kadrlar taqchilligi, ishsizlik kabi muammolarni keltirib chiqardi. Mahalliy kadrlarni tayyorlash o‘rniga markazdan kadrlarni jo‘natish amaliyotini keng qo‘llash, respublikaning xom ashyo yetkazib berishga ixtisoslashuvi yuqoridagi jarayonlarning amaldagi isboti bo‘ldi;

- to‘rtinchidan, kadrlar tayyorlash uchun ta‘lim-tarbiya tizimida sifat o‘rniga son ketidan quvish ustunlik qildi. Ko‘plab barpo etilgan o‘rta maxsus ta‘lim o‘quv yurtlarida mutaxassislar yetishtirilsa-da, kadrlar qo‘nimsizligi va yetishmovchiligi muntazam sezilib turdi. “Bu tizim vataniga, xalqiga, millatiga fidokor, mustaqil fikrlaydigan, biron bir masalani ongli ravishda, mas’uliyat bilan hal qiladigan, izlanuvchi, yangilikka intiluvchi kadrlarni emas, sayoz saviyali xodimlarni, mute kishilarni ming-minglab yetishtirgan edi”¹ ;

- beshinchidan, sobiq ittifoqdosh respublikalar, ularning hududlari iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy-madaniy hayotini boshqarish ko‘proq mahalliy rahbar kadrlarga topshirilgan bo‘lsada, ularning faoliyati, taqdiri partiya, ittifoq hukumati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan, hamda kadrlarni shafqatsiz qatag‘onlar hisobiga

¹ Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан қураимиз. 7-жилд – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – Б. 94-95

qoʻrquv hissi ostida ushlab turish, ularni gʻoyaviy, mafkuraviy qaramlik ruhida tarbiyalash kadrlar siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri boʻldi.

Yuqoridagi mulohazalardan mavzuning dolzarbligi belgilanib, bu masalani tartibli ravishda tahlil qilish uchun tadqiqot obyekti sifatida tanlandi.

Tadqiqotning davriy chegarasi. Dissertatsiya 1950-1991 yil oraligʻidagi tarixiy jarayonlar asosida ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilindi. Bu davrlashtirish Oʻzbekistonda sovet tuzumining kadrlar siyosati mohiyatini idrok etish, oʻziga xos xususiyatlarini ajratib koʻrsatish, aniq tushunish imkonini beradi. Ikkinchi jahon urushidan sobiq ittifoq parchalanib ketgunga qadar ham xalqaro, ham ichki siyosatda alohida shakllangan tizim mavjud boʻldiki, bu kadrlar siyosatida oʻz aksini topib, sovet tuzumining tiklanishdan qayta qurishgacha boʻlgan yillardagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy sohalari bilan yaxlitlikda oʻrganish ehtiyojini tugʻdiradi.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Jamiyat taraqqiyotining ustuvor yoʻnalishini tashkil etuvchi kadrlar siyosati sohasi tadqiqotchilarning diqqat eʼtiborini doimo oʻziga jalb qilib kelgan. Sovet hukmronligi davridagi ijtimoiy-siyosiy nashrlar va kadrlar siyosatiga doir asarlarda markscha-lenincha taʼlimotning nazariy andozalariga amal qilingan. Kommunistik mafkura va siyosiy zoʻravonlik sharoitida yaratilgan koʻplab adabiyotlar sovet jamiyati uchun umumiy boʻlgan nuqsonlari bilan ajralib turadi. Mavzuning tadqiq etilishi davomida mavjud adabiyotlarni uch guruhga boʻlib oʻrganish maqsadga muvofiqdir:

- 1) Sovet davlati hukmronligi yillari davrida olib borilgan tadqiqotlar;
- 2) Mustaqillik yillaridagi tadqiqotlar, ilmiy monografiya va maqolalar;
- 3) Mavzuga oid xorijda chop etilgan adabiyotlar.

Birinchi guruhga kiruvchi koʻplab adabiyotlar sovet davlati hukmronligi yillarida partiyaning rahbar va ishchi kadrlar tayyorlash amaliyotiga alohida yondoshib yozilgan. Shuni taʼkidlash lozimki, bu davrda mualliflar sinfiy-siyosiy va mafkuraviy bosimlar hukmron boʻlgan davrda oʻrganilayotgan masalalarni holisona tahlil qilish, ularni tanqidiy yoritish imkonidan mahrum edilar. Adabiyotlarning asosiy mazmuni organilayotgan xodisalarga haddan tashqari

mafkuraviy va siyosiy tus berish, ko'klarga ko'tarib maqtash, hal qilinayotgan muammolarning avvaldan rasman berilib qo'yilishi, KPSSning rahbarlik rolini asoslab berish, uning milliy siyosat sohasida erishgan muvaffaqiyatlarini ustun darajada isbotlashdan iborat bo'lgan. Bu adabiyotlar O'zbekiston tarixiga oid manbalar orasida alohida ahamiyat kasb etsa-da, ularda sovet davlati kadrlar siyosati amaliyotining asl mazmun va mohiyati ma'lum mafkuraviy tazyiqlar sabab yetarli darajada yoritilmagan deb hisoblash mumkin. Ayni paytda bu asarlar ham mavzuni yoritishda muhim ahamiyat kasb etganligini ham alohida ta'kidlab o'tish lozim. Mazkur mavzuga oid masalalar umumlashtirilgan tarzda respublikada chop etilgan yirik ilmiy nashrlarda ham aks etgan¹. Bu tadqiqotlarda faktik materiallar jamlangan bo'lib, ular ikkinchi jahon urushidan keyin "qayta qurish" yillarigacha bo'lgan davrlarda sovet tuzumi sharoitida kadrlar siyosati qurilishining asosiy yo'nalishlarini ochib beradi. Bu kitoblarda mamlakat miqyosidagi iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy aloqalarni "rivojlantirish", xalq xo'jaligida kadrlar masalasining ba'zi yutuqlarini qayd etish bilan birga, soxta ilmiy metodologik yo'l-yo'riqlar, yakkapartiyaviy mafkura talablari asosida kadrlar siyosatidagi noaniqliklar ko'rsatilmay, umumiy mehnat taqsimotida partiya-davlat siyosatining ijobiy taraflari bo'rttirib ko'rsatilgan. Natijada muhim bo'lgan muammolar ilmiy tadqiqot doirasidan chetda qolib, kadrlar siyosati haqida umumiy tushunchalar buzilgan holda sovetlarcha uslubda ko'rsatilgan.

Sovet davlati jamiyatni shakllantirib turuvchi asosiy kuch kadrlar ekanligini anglagan holda yillar davomida ittifoqdosh respublikalar rahbar lavozimlariga markazdan tayinlangan xodimlarni qo'yib kelgan. "Istoriya rabochego klassa

¹ История рабочего класса Узбекистана, II-том. – Ташкент: Наука, 1965. – 379 с; История Узбекской ССР IV-том. – Ташкент: Фан, 1968. – 583 с; Осуществление Ленинских идей индустриализации в Узбекистане. – Ташкент: Узбекистан, 1970. – 407 с; История Узбекской ССР. – Ташкент: Фан, 1974. – 584 с; Очерки истории Коммунистической партии Узбекистана. – Ташкент: Узбекистан, 1974 – 768с; Совет Ўзбекистони ишчилар синфининг тарихи. – Тошкент: Фан, 1974. – 377 б; Производительные силы Узбекистана и перспективы их развития. – Ташкент: Фан, 1974. – 365 с; Советы Узбекистана в период развитого социализма. – Ташкент: Фан, 1977. – 199с; История профсоюзов Узбекистана. – Ташкент: Узбекистан, 1978. – 360 с; Социально-экономические развития Советского Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1977. – 265с; Советская интеллигенция Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1979. – 383с; Женщины Советского Узбекистана. – Ташкент: Узбекистан, 1987. – 62 с; Производительные силы Узбекистана и перспективы их дальнейшего развития. – Ташкент: Фан, 1986. – 307 с; Современные проблемы развития рабочего класса Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1989. – 184 с; Социальное развитие и уровень жизни населения Узбекской ССР. Стат. сборник. – Ташкент: Госкомиздат, 1990. – 352 с. ва бошқ.

Uzbekistana”¹ hamda o‘zbek va rus tillarida chop etilgan “Sovet O‘zbekistoni ishchilar sinfining tarixi”² nomli ilmiy adabiyotlarda urush yillari va urushdan keyingi 70 yillargacha bo‘lgan davr mobaynida xalq xo‘jaligiga doir partiya qarorlari, yillik hamda besh yillik dastur va rejalarning bajarilishi, ishchi va xizmatchilarni shakllantirish, ularning oylik maoshlari, sanoat va qishloq xo‘jalik kadrlarini tayyorlovchi o‘quv yurtlari, ularning ishlab chiqarishni boshqarishdagi ishtiroki, injener-texnik va milliy kadrlarning yillik o‘sishlari bo‘yicha ma’lumotlar alohida jamlangan, mahalliy xotin-qizlar orasida partiya ishlarini kuchaytirish masalalari tuzumga xos o‘rganilgan. Biroq mazkur adabiyotlar hukmron mafkura ta’siri ostida yaratilgani sababli ba’zi ilmiy mulohazalar tarixiy haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Jumladan, mahalliy kadrlarning sanoat jabhalarida yillik o‘shish tarkibi, hamda ularning moddiy yashash farovonligi o‘sha yillarda ijobiy baholanishi kabilardir.

“Sovetskaya intelligensiya Uzbekistana” kitobi ham O‘zbekistonda ziyoli kadrlarning yillik o‘shish tarkibi va oliy o‘quv yurtlarida taqsimoti, ularni tayyorlash, joy-joyiga qo‘yishdan iborat bo‘lgan muammoga bag‘ishlangan. Xalq xo‘jaligida ziyolilar mehnatidan foydalanish muammolari ilmiy-amaliy tahlil etilib, bu boradagi yutuq va kamchiliklarning nisbati mafkuraviy asosda yoritilgan.³

Takidlash joizki, O‘zbekistonda sovet tuzumining kadrlar siyosati bo‘yicha yoritilgan ilmiy tarixiy adabiyotlar mafkuraviy, maqsadli yo‘nalishlari bilan ajralib turadi. Asarlar sovet davlati yillari kadrlar siyosatining ayrim jihatlariga bag‘ishlangan bo‘lsa-da, yetarli ma’lumotlarga ega va ko‘p miqdordagi manbalarga tayanib yozilganligini inkor etib bo‘lmaydi. Jumladan, T.Melnikova, A.K.Valiev, Sh.Ziyomov, X.Tursunov, L.K.Shek, T.Toshmurodov, N.Axmedov, M.Pak⁴ asarlarida rahbar va mahalliy kadrlarga hukumatning munosabati, oliy va

¹ Саямов Д.А., Шаповаленко В.И., Тетенова Л.Г. История рабочего класса Узбекистана, II-том. – Ташкент: Наука, 1965. – 379 с

² Совет Ўзбекистони ишчилар синфининг тарихи. – Тошкент: Фан, 1974. – 377 б.

³ Советская интеллигенция Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1979. – 383 с.

⁴ Мельникова Т. Формирование промышленных кадров в Узбекистане. – Ташкент: Узгосиздат, 1956. – 112 с; Валиев А.К. Октябрь, культура, интеллигенция. – Ташкент: 1977; Ўша муаллиф. Ўзбекистон интеллигенцияси коммунизм учун курашда. – Тошкент: Қизил Ўзбекистон, Правда Востока, Ўзбекистон-

oʻrta maxsus oʻquv yurtlari faoliyati, sanoat tarmoqlarida mutaxassis kadrlar tarkibi, markazdan kadrlar joʻnatish siyosati, respublikalar oʻrtasidagi ilmiy-texnikaviy va boshqa aloqalarni rivojlantirishdagi erishilgan yutuqlarni qayd etish bilan birga, tahlil etilayotgan ishlarning koʻpchiligi KPSS tarixi yoʻnalishida yozilgan boʻlib, kadrlar siyosati boʻyicha yoʻl qoʻyilgan kamchilik, muammolar ularning oqibatlari deyarli taʼkidlanmay, aksariyati markscha - lenincha qarashlar asosida yoritilgan.

SH.Rashidov, N.Rahmonov, K.Tuychiev, S.I.Gitlin, S.Raximov asarlarida marksizm-leninizm gʻoyalarining sovet milliy siyosati qurilishidagi oʻrni, kadrlar siyosati boʻyicha chiqarilgan qaror va farmoyishlarning mazmun mohiyati, kommunistik partiyaning kadrlar siyosatidagi muhim ahamiyati mafkuraviy uslubda yoritilgan.¹

SHu oʻrinda F.Oripov, T.Abdushukurov, Q.Abdurahmonov, Sh.A.Zuxriddinov, G.Ismoilova, M.A.Axunova, M.Gurevich, F.Isxakov, O.K.Ziyodullaev, A.K.Taksanov tadqiqotlarini ham eʼtiborga olish lozim.² Ushbu

Сурх бирлашган нашриёти, 1962. – 40 б; Зиямов Ш. Кадровая политика КПСС в действии /деятельность компартии Узбекистана по совершенствованию подбора, расстановке и воспитанию руководящих кадров в условиях развитого социализма/.–Ташкент: Узбекистан, 1980. – 209с;Турсунов Х., Шек Л.К. Ҳозирги босқичда меҳнаткашларни интернационализм руҳида тарбиялаш. – Тошкент: Ўзбекистон, 1980.– 40 б;Тошмуродов Т. Кадрлар тайёрлаш ва улардан самарали фойдаланиш. – Тошкент: Ўзбекистон, 1985. – 31 б;Ахмедов Н., М. Пак. Қайта қуриш шароитида партиянинг кадрлар сиёсати. – Тошкент: Ўзбекистон, 1989.– 21 б. ва бошқ.

¹ Рашидов Ш. Ленинизм-знамя освобождения и прогресса народов. – Ташкент: Узбекистан, 1972. – 60с; Ўша муаллиф. Торжество ленинской национальной политики в Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1973. – 150с; Рахмонов Н. Осуществление ленинской национальной политики в Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1973. – 116с; Туйчиев К. Роль КПСС в укреплении сотрудничества народов Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1973. – 179с;Гитлин С.И. Национальная политика КПСС и условиях развитого социализма. – Ташкент: Узбекистан, 1983. – 128 с;Рахимов С. Национальное политика КПСС и вымисли «Советологов». – Ташкент: Узбекистан, 1988. – 125с. ва бошқ.

² Орипов Ф. Ўзбекистонда ишчи кадрларининг ташкил топиш тарихидан. – Тошкент: Фан, 1968. – 135 б; Ушбу муаллиф. Ўзбекистон саноат ишчилари тарихидан лавҳалар. – Тошкент: Фан, 1974. – 40б; Абдушукуров Т.Р. Закономерности и особенности культурно-технического роста рабочего класса Узбекистана. – Ташкент: Узбекистан, 1971. – 164с;Абдушукуров Т., Заидов М. Некоторые проблемы производительности труда в промышленности Узбекистана.–Ташкент: Узбекистан, 1970. – 388с; Абдурахмонов Қ. Илмий техника тараққиёти ва ишчи кадрлар тайёрлаш. – Тошкент: Ўзбекистон, 1972. – 21б; Гуревич М. Ривожланган социализм шароитида Ўзбекистон компартиясининг ишчи кадрлар тайёрлаш бўйича фаолияти. – Тошкент: Ўзбекистон, 1981. – 36 б; Зухриддинов Ш.А. Возникновение новых городов и их роль в строительстве социализма в Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1982. – 127 с; Исмоилова Г. Ўзбекистонда хотин-киз ишчи кадрлар тайёрлаш. – Тошкент: Ўзбекистон, 1983. – 22 б; Ахунова М.А., Акилов К.А., Тетенева Л.Г. Рабочий класс Узбекистана в условиях научно-технической революции. – Ташкент: 1984. – 183 с; Исхаков Ф. Партийное руководство повышением творческой активности рабочего класса. – Ташкент: Узбекистан, 1984. – 207 с; Зиядуллаев О.К. Индустрия советского Узбекистана. – Ташкент: Узбекистан, 1984. – 230 с. Таксанов А.К. Перестройка и некоторые проблемы развития национальных кадров индустриального рабочего класса. – Ташкент: Фан, 1989. – 116 с. ва бошқ.

adabiyotlarda O'zbekistonda ishchi kadrlar muammolari, xalq xo'jaligida xotin-qizlar mehnatidan foydalanish va boshqa masalalar o'rganiladi. Biroq bu asarlar totalitar tuzumning xosilasi sabab, unda bir qator mulohazali jihatlari bor. Jumladan, milliy kadrlar tayyorlash masalasi davr nuqtai nazaridan o'rganilib, o'quv yurtlarida ularning miqdori kam foizda bo'lsada, bu holatga ijobiy qaraladi. Hamda ishchi, dehqonlar jamiyatdagi asosiy sinflar sifatida baholanib, ularning jamiyat rivojidadagi o'rniga e'tibor berilib, ishchilar sinfi tizimning asosiy xarakatlantiruvchi kuchlari sifatida beriladi. Ziyolilarga esa ular o'rtasidagi ikkinchi ijtimoiy tabaqa sifatida qaralib, ma'lum cheklashlarga yo'l qo'yiladi. Siyosiy hayotga tortilgan ishchi va dehqonlar syezdlar, qurultoylar, Oliy Sovet deputatlari asosan majlislarda ishtirok etishiga ijobiy qaraladi.

Takidlash joizki, S.Zaynuddinov, A.Azlarxo'jaev, R.X.Aminova, A.A.Golovanov ishlarida qishloq xo'jalik kadrlarining ijtimoiy-iqtisodiy mehnati, ishchi, mexanizator, qishloq xo'jalik kadrlarini shakllantirish muammolari, o'quv yurtlarda ularni tayyorlash masalalari tadqiq etilgan.¹

Bu yillarda aholining demografik holati, turmush sharoiti, sanoat tarmoqlari, shaharlari bilan birga kadrlar masalasiga bevosita yondashilgan asarlar ham mavjud. Bunday adabiyotlar sirasiga I.R.Mulladjanov, L.P.Maksakova, O.B.Ata-Mirzaev, N.Fayziev, K.K.Karimov, K.K.Qosimov va boshqalarning asarlarini alohida qayd etish mumkin.² Yuqorida tilga olingan olimlar asarlarining ilmiy qiymatini inkor etmagan holda ta'kidlash joizki, mazkur ishlarda tadqiq etilayotgan

¹ Зайнуddинов С. Подготовка и использование сельскохозяйственных кадров. – Ташкент: Узбекистан, 1971. – 91 с; Азлархўжаев А. Механизатор кадрлар тайёрлаш ва улардан фойдаланиш. – Тошкент: Ўзбекистон, 1975. – 72 б; Аминова Р.Х. Колхозное крестьянство Узбекистана на пути к развитому социализму. – Ташкент: Фан, 1983. – 363 с; Голованов А.А. Сельскохозяйственные рабочие Узбекистана (1946-1961 гг.). – Ташкент: Фан, 1987. – 175 с. ва бошқ.

² Мулладжанов И.Р. Народонаселение Узбекской ССР. – Ташкент: Узбекистан, 1967. – 232 с; Ўша муаллиф. Демографическое развитие Узбекской ССР. – Ташкент: Узбекистан, 1983. – 278с; Шу муаллиф. Население Узбекской ССР. Справочник. – Ташкент: Узбекистан, 1989. – 190 с; Максакова Л.П. Миграция населения Узбекистана – Ташкент: Узбекистан, 1986. – 206 с; Ата-Мирзаев О.Б. Региональное прогнозирование расселения и управления процессом урбанизации. –Ташкент: Фан, 1979. – 92 с; Файзиев Н. Ўзбекистоннинг янги шаҳарлари аҳолиси. – Тошкент: Фан, 1964. – 36 б; Каримов К.К. Деятельность Компартии Узбекистана по повышению эффективности промышленного производства. –Ташкент: Узбекистан, 1980. – 219с; Касымов К.К. Деятельность Компартии Узбекистана по развитию текстильной промышленности. – Ташкент: Узбекистан, 1974. –89с. ва бошқ.

yillardagi ijtimoy-iqtisodiy jarayonlar, kadrlar siyosatiga oid boy ilmiy ma'lumotlar o'sha davr mafkurasi nuqtai nazaridan tahlil etilgan.

Mazkur davrda yozilgan bir qator ilmiy maqolalar¹ sovet tuzumi davri tadqiqotini aks ettiradi. Jumladan, SH.Ziyomov partiyaning "lenincha" kadrlar siyosati, rahbar kadrlar ish uslubini takomillashtirish masalalari, ularni g'oyaviy chiniqtirish, kommunistik ruhda tarbiyalash vazifalarini hal etishga qaratilgan muammolarni, davlat arboblarning turli majlis, yig'ilishlarda qilgan ma'ruza va hisobotlari, ko'pgina asar, xat, hujjatlar asosida sovet tuzumi davriga xos yoritadi.

A.Axunova, G.Shisterning O'zbekistonda ishchi kadrlar masalasiga oid ilmiy maqolalarida sanoatda ishchi kadrlarni o'stirish, ko'p millatli ishchi kadrlarni shakllantirish, mahalliy milliy kadrlarning sanoat tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi, malakali ishchi kadrlar yetishtirish chora-tadbirlari va boshqa masalalar bo'yicha ko'plab mahlumotlarni jamlab, ularni tahlil qilib, amalga oshirish kerak bo'lgan vazifalarni tatbiq qiladi.²

XX asrning 80 yillarining ikkinchi yarmidan e'tiboran "qayta qurish" siyosati bilan bog'liq ayrim metodologik va sifat o'zgarishlari ko'zga tashlanadi. Oshkoralik jarayonlari boshlangan, kommunistik mafkuraning hukmronligi bo'shashgan vaziyatda birmuncha haqqoniy o'zlikni anglatuvchi tadqiqotlar yuzaga keldi. Mualliflar barcha sohalarni yangicha nuqtai nazardan tahlil qilishga,

¹ Kadrlar bilan ishlashni yangi vazifalar dаражасига кўтарайлик// Партия турмуши. – Тошкент, 1959. - №10. – Б. 3-8; Зоидов М. Kadrlar маданий-техника савиясини ўстириш - меҳнат унвдорлигини оширишнинг муҳим шартларидан бири // Ўзбекистон коммунисти. – Тошкент, 1963. - №11. – Б. 12-18; Калонов Х. Халқ хўжалигига - малакали ишчи ва механизатор кадрлар// Ўзбекистон коммунисти. – Тошкент, 1963. - №1. – Б. 51-56; Сенявский С. Рабочий класс СССР в период завершения строительства социализма и периода коммунизма// Вопросы истории. – Москва. 1969. - №2. – С. 8-18; Гентшке Л. Социалистик индустриаллаштириш учун курашда// Партия турмуши. – Тошкент, 1974. - №1. – Б. 60-65; Орифжонов Э. Қишлоқ хўжалик раҳбар ва мутахассислари малакасини ошириш тўғрисида партиявий ғамхўрлик // Ўзбекистон коммунисти. – Тошкент, 1976. - №5. – Б. 77-82; Ким М.П., Сенявский С.Л. Рабочий класс СССР в годы девятой и десятой пятилеток // Вопросы истории. – Москва. 1980. - №11. – С. 3-18; Сенявский А. Союз рабочего класса крестьянства и интеллигенции-социальная основа СССР// Вопросы истории. – Москва. 1982. - №7; Шайхов Э., Максудов З. Қишлоқ хўжалик кадрлар ўчоғи //Ўзбекистон коммунисти. – Тошкент, 1980. - №5. – Б. 85-91; Таксанов А. Қишлоқда саноат ишчилар синфининг ривожланиши // Ўзбекистон коммунисти. – Тошкент, 1987. - №7. – Б. 28-33. ва бошқ.

² Ахунова А. Рабочий класс Узбекистана в период развитого социализма // Вопросы истории – Москва, 1984. - №9. – С. 3-16; Шистер Г. Ўзбекистон ишчилар синфини ўстириш ва структурасини такомиллаштиришнинг муҳим омили // Ўзбекистон коммунисти. – Тошкент, 1983. - №2. – Б. 35-41; Муаллифнинг ўзи. Ўзбекистонда кўп миллатли ишчилар синфининг шаклланиши ва ривожланиши // Ўзбекистон коммунисти. – Тошкент, 1985. - №10. – Б. 36-41;

jumladan, kadrlar siyosatidagi xatolik va buzilishlarni aniqlashga, tanglik xolatlarining paydo bo'lish sabablarini tushunib yetishga urinishlarini namoyon qildi. "Qayta qurish"ning dastlabki davrida muqobil yondashuvlarni ro'yobga chiqarishga urinishlar ancha jur'atsiz shaklda kechgan bo'lsa, XX asr 80-yillar oxiri 90-yillarning boshlariga kelib, tahliliy ma'lumotlar, keng miqyosdagi sotsiologik tekshirishlarga asoslangan dissertatsiyalar soni ko'paydi. Tadqiqotchilar an'anaviy madhiyabozlikdan nisbatan holi bo'lib, O'zbekiston va Markaziy Osiyodagi milliy qurilishning ziddiyatli manzarasini yaratishga intilishi bilan ajralib turdi. Sotsializm tizimini demokratik qayta qurishga so'nggi urinishlar, jamiyat hayotida har bir muammoga oshkoralik nazari bilan qarash hollari yuz bera boshladi. Shu munosabat bilan kadrlar siyosatida ham yuz bergan muammolar ochiqroq namoyon bo'la boshladi.

Butun ittifoqda "qayta qurish" siyosatining ta'sirida bir qancha asarlar nashr etildi. Jumladan, T.A.Notkin muharrirligidagi ilmiy to'plamda sovet tuzumining uzoq va og'ir davom etgani, jamiyatda qilingan ishlarning noaniq yo'ldan borilgani, oqibatda oxirgi nuqtalarda barcha ittifoqdosh mamlakatlarning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy hayotida og'riqli jarayonlarning yuzaga kelgani talqin etilgan.¹

Biroq bu davrda ham jamiyatning barcha bo'g'inlarida yig'ilib qolgan muammolar qarorlar qabul qilish, ko'rsatmalar berish bilangina cheklandi. Sobiq Ittifoqning barcha hududlarini "qayta qurish"ning ziddiyatli siyosati qamrab oldi. Jamiyat totalitar tuzumning temir panjasidan bo'shagan sari, boshboshdoqlik sari kira boshladi. Bunda Markazning o'z manfaatlaridan ortga chekinmasligi ham ta'sirini o'tkaza boshladi. Islohotlar har qancha taraqqiyparvar bo'lmasin klassik mafkurachilar qarshiligiga uchrar edi.

Ikkinchi guruhga mustaqillik yillarida chop etilgan adabiyotlar turkumi kiradi. O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishganidan so'ng, tarixchilar oldida keng imkoniyatlar hamda vazifalar bo'lib, tarix sahifalarini haqqoniy va xolis ravishda yozishga kirishildi. Mustaqillik yillarida tarixchilar tomonidan yangicha

¹ Перестройка: гласность демократия социализм. Погружение в трясину: / Сост. и общ. ред. Т.А. Ноткиной. – Москва: Прогресс, 1991. –704с;

metodologik uslubda yozilgan ilmiy monografiyalar¹, darsliklar², maqolalar³ bilan bir qatorda tadqiqotga bevosita bog‘liq bo‘lgan va uning ayrim tomonlarini o‘rganishga yordam bergan asarlarning yana bir guruhiga D.Alimova, D.Bobojonova, N.Oblamurodov, Y.Ergasheva, S.Tursunov, X.Yunusova, Y.Abdullaeva tadqiqotlarini kiritish mumkin.

O.Ata-Mirzaev, V.Gentshke, R.Murtazaevalarning monografiyasida demografik jarayonlar, migratsiya va urbanizatsiya jarayonlari bilan bir qatorda kadrlar muammolari yani, sanoat tarmoqlarida ishchilar sinfi, mahalliy ishchi kadrlar, ularning korxonalar va hududlararo joylashuvi, ishlovchilarning chetdan respublikaga keltirilishi, O‘zbekistonda 1959-1970 yillarda aholi sonining jadal sur‘atlar bilan o‘sishi, respublika qishloq hamda shahar aholisining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, ortib borish omillari kabi masalalar bilan birgalikda ilmiy talqin qilingan.⁴

D.Alimova, A.Golovanovlar asarida totalitar mustabid tuzum mafkurasi shakllanishi, ma‘muriy-buyruqbozlik tizimining asl mohiyati, uning

¹ Шукрулло Қасосли дунё. – Тошкент: Ўзбекистон, 1994. – 240 б; Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р. Узбекистан многонациональный: историко-демографический аспект. – Ташкент: Издательство медицинской литературы имени Абу Али ибн Сино, 1998. – 160с; Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликлари талаш сиёсати: тарих шохидлиги ва сабоқлари. Илмий муҳаррир Д.А. Алимова. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 431 б; Зиёев Ҳ. Тарих - ўтмиш ва келажак кўзгуси. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 287б; Азизхўжаев А. Мустақиллик: курашлар, изтироблар, қувончлар. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 112 б; Ўша муаллиф. Чин ўзбек иши. – Тошкент: Академия, 2003. – 143 б; Алимова Д., Голованов А. Узбекистан в 1917-1990 годы: противоборство идей и идеологий. – Ташкент: 2002. – 80 с. ва бошқ.

² Раджабова Р.Я. и др. История Узбекистана (1917-1993 гг.) Учебник для 9-класса. – Ташкент: 1995. – 344с; Алимова Д.А. ва бошқ. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йй.) 10-синф учун дарслик. – Ташкент: 2000. – 416 б; Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустақиллаштириш даврида. Илмий муҳаррир М.Жўраев. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 688 б; Ўзбекистон тарихи (Олий ўқув юртиларининг номтаҳассис факультетлари талабалари учун). Р.Ҳ. Муртазаевнинг умумий таҳрири остида. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. – 675 б. ва бошқ.

³ Зиёев Ҳ. Совет даврида қандай тузум ҳукм сурган? // Мулоқот. – Тошкент, 1993. - №9-10. – Б. 27-33; Сағрадов А.А. Выбор приоритетов социально-демографического развития // Вестник Московского университета. – Москва, 1993. - №1. – С. 74-81; Бобожонова Д. Ўзбекистонда миллий ишчи кадрлар тайёрлаш тажрибасидан // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. – Тошкент, 1997. - №3-4. – Б. 34-39; Безнин М.А., Димони Т.М. Аграрный строй России в 1930-1980-х годах (новый подход) // Вопросы истории. – Москва, 2005. - №7. – С. 23-45; Очилдиев А. Шўро миллий сиёсати: максад ва оқибат // Жамият ва бошқарув. – Тошкент, 2005. - №2. – Б. 40-44; Донокулов Х. Мустабид тузум даврида Ўзбекистонда нефть-газ саноати // Жамият ва бошқарув. – Тошкент, - №1. 2003. – Б. 58-60. Абдуллаева Я. А. Хукмрон жамиятнинг аёллар ижтимоий онги ўзгаришига таъсири ва уларнинг аҳоли. (XIX асрнинг охириги чорагидан XX асрнинг 80 йилларигача. Қорақалпоғистон мисолида) // Ижтимоий фикр. Инсон ҳуқуқлари. – Тошкент, 2004. - №4. – Б. 156-160. ва бошқ.

⁴ Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р. Узбекистан многонациональный: историко-демографический аспект. – Ташкент: Издательство медицинской литературы имени Абу Али ибн Сино, 1998. – 160 с.

kadrlar masalalariga bevosita ta'siri, mamlakat milliy mustaqillik sari kurash kabi fundamental muammolar yangi metodologik asosda tahlil etiladi va xulosalar beriladi.¹

D.Alimova² xotin-qiz kadrlar masalasiga e'tibor qaratib, sovet ayollari hayoti, turmush-tarzi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolariga odilona fikrlar bergan. Y.Abdullaevaning³ monografiyasida Qoraqalpog'iston xotin-qizlariga oid tarixiy voqealar ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilingan. Ushbu monografiyada Qoraqalpoq xotin-qizlarining XIX asrning oxiri - XX asr, yani so'ngi 130 yil davr mobaynidagi tarixda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy ahvoli bilan birga butun O'zbekiston xotin-qizlarning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni ko'rsatilib o'tilgan.

O'zbekistonning 1950-1960 yillardagi madaniyati, uning yo'nalishlari va muammolariga bag'ishlangan Y.Ergashevaning ilmiy monografiyasi ham respublikada ta'lim tizimidagi umumta'lim maktablarining 7 yillikdan 8 yillikka o'tishi, turli sohalar uchun zahiradagi kadrlarni tayyorlab beruvchi bilim yurtlari, shuningdek, yuqori saviyadagi malakali yetuk ilmiy kadrlar tayyorlash masalalariga bag'ishlangan bo'lib, muallif turli arxiv ma'lumotlari, yangi manbalar asosida respublikada kadrlar tayyorlash, madaniy rivojlanishning o'ziga xosliklari, yutuq va kamchiliklarini xolisona yoritadi.⁴

D.Bobojonova⁵ , X.Yunusovanning⁶ monografiyalarida XX asrning 70-80 yillarida O'zbekiston aholisining milliy tarkibi, ijtimoiy-iqtisodiy holati, shuningdek, kadrlar siyosatiga oid e'tiborga molik ma'lumotlar bor. O'zbekistonda

¹ Алимova Д., Голованов А. Узбекистан в 1917-1990 годы: противоборство идей и идеологий. – Ташкент:2002.– 80с.

²Алимova Д.А. Женский вопрос в Средней Азии: История изучения современные проблемы. – Ташкент: Фан, 1991. – 132с; Ўша муаллиф. Женский вопрос Советской историографии Средней Азии (20-80 годы): Дис.... докт. ист. наук. – Ташкент, 1991. – 285 с; Ўша муаллиф. Ўзбекистон ижтимоий фанларида хотин-қизлар муаммоларининг ўрганилиши ва вазифалари // Ўзбекистонда оила, давлат ва жамият қурилишида аёлларнинг роли ва гендер муаммолари: – Тошкент: Фан, 1999. – Б. 16-20; Ўша муаллиф. Миллий тафаккур ва аёллар масаласи: ўтмиш тимсоллари // Ўзбекистон хотин-қизлари кеча ва бугун: – Тошкент: 2005. – Б. 5-9. ва бошқ.

³Абдуллаева Я. А. Қорақалпоғистон хотин-қизлари кеча ва бугун. (XIX асрнинг охири ва XX аср) – Тошкент: Ijod dunyosi, 2004. – 223 б.

⁴Эргашева Ю.А. Культура Узбекистана: тенденции и проблемы развития. (50-60-е годы). – Ташкент: Фан, 1997. – 210 с.

⁵Бобожонова Д.Б. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар. – Тошкент: Шарқ, 1999. – 157 б.

⁶Юнусова Х., Ўзбекистонда совет давлатининг миллий сиёсати ва унинг оқибатлари (XX аср 80-йиллари мисолида) – Тошкент: Зар қалам, 2005. – 116 б.

millatlararo munosabatlar rivojida kadrlar masalasi, industrial ishlab chiqarishda milliy ishchi kadr tayyorlash tajribalari, mahalliy kadrlarga sovet siyosatining munosabatlari, “paxta ishi”, “o‘zbeklar ishi”, markazdan kadrlar jo‘natish siyosati, mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta‘minlashning ijtimoiy jihatlar kabi muammolar bilan kadrlar siyosatiga chuqur yondoshadi va ilmiy asosda tahlil etiladi.

XX asr 80 yillariga kelib rahbar kadrlarning qatag‘onlar ta‘sirida qolishi O‘zbekistonlik rahbar kadrlarning ta‘qib ostiga olinishi masalasi A.Azizxo‘jaev¹ kitobida tadqiq qilinadi. 1980 yillarda uyushtirilgan “paxta ishi”, “o‘zbek ishi” kabi bo‘htonlar bilan o‘zbek xalqining milliy g‘ururini oyoq osti qilish, respublikaning yetuk kadrlariga zimdan zarba berish, markazdan partiya xodimlari niqobi ostida maxsus topshiriqlar bilan “desantchilar”ning yuborilganligi, mahalliy rahbar kadrlarga qilingan nohaqliklarning oqibatida respublikaning ma‘naviy, siyosiy holatiga katta zarar yetkazilganligi aniq ochib berilgan.²

Sovet tuzumining O‘zbekistondagi kadrlar siyosatini amalga oshirish kabi masalalarini ilmiy tadqiq qilishda so‘nggi yillardagi qator nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari ham muhim ahamiyat kasb etdi. Ular boy arxiv hujjatlarga asoslangan holda o‘sha davrda amalga oshirilgan tadbirlar, kadrlar siyosatining ayrim yo‘nalishlarini o‘rganishga harakat qilingan³. Jumladan, S.Tursunov¹,

¹Азизхўжаев А. Чин ўзбек иши. – Тошкент: Академия, 2003. – 143 б.

²Ўша жойда. – Б. 47.

³Толипов Р. Развитие и совершенствование системы среднего-специального образования и подготовка кадров специалистов в Узбекистане: опыт и проблемы (1980-1990 гг.): Автореф. дис... канд. ист. наук. – Ташкент: 1993; Бурхонов Б. Ўзбекистон халқ хўжалигини раҳбар ходимлар билан таъминлаш: тажриба ва сабоқлар (20-30 йиллар): Дис.... т.ф.н. – Тошкент: 1994. – 156б; Насыров Р. Социальное развитие села Узбекистана (1965-1985 гг.): Дис.... докт. ист. наук. – Ташкент: 1994. – 296 с; Қобулов Э. Ўзбекистоннинг жанубий вилоятларида енгил ва озиқ-овқат саноатининг ривожланиш тарихи, тажриба ва муаммолари (1946-1960 йй.): Автореф. дис.... т.ф.н. – Самарқанд: 1994. – 26 б; Зияев Ф. Ўзбекистоннинг кўриқ ва бўз ерларида қишлоқ хўжалиги кадрларининг шаклланиши: тажриба, муаммолар (Мирзачўл минтақаси мисолида), (1965-1970 йй.): Автореф. дис.... т.ф.н. –Тошкент: 1994. – 27 б; Нурматова Н. Подготовка, повышение квалификации и изменения в составе рабочих и специалистов пищевой и легкой промышленности Узбекистана в 80-е годы: опыт, уроки, проблемы: Дис.... канд. ист. наук. – Самарканд: 1995. – 144 с; Бобожонова Д.Б. Ўзбекистонда миллатлараро муносабатларнинг ижтимоий-иқтисодий жиҳатлари (70-80 йилларнинг ўрталари): Автореф. дис.... т.ф.д. – Тошкент: 1997. – 56б; Эргашева Ю.А. Культура Узбекистана: состояние, тенденции и проблемы развития. (50-60-е годы): Дис.... докт. ист. наук. – Ташкент: 1998. – 359 с; Турсунов С. 1946-1965 йилларда Ўзбекистон иқтисодиёти аграр соҳасининг ривожланиши: Дис.... т.ф.д. – Тошкент: 1995. – 292 б; Абдуллаева Я.А. Женский вопрос в Каракалпакстане в конце XIX-XX вв. (социально-политический аспект): Автореф. дис.... докт. ист. наук. – Ташкент: 2005. – 46 с; Холмўминов Х. Ўзбекистонда совет мустамлакачилиги сиёсатининг миграцион жараёнларга таъсири

F.Ziyaev² tadqiqotlari davomida qishloq xo‘jalik xodimlarini shakllantirish, ommaviy kasbdagi malakali kadrlarni tayyorlash, agrar korxonalarni yuqori malakali mutaxassislar bilan ta‘minlash, qishloq mehnatkashlarining mehnat faolligini oshirish shartlari, ularning omillari, O‘zbekistonning qo‘riq va bo‘z yerlarida qishloq xo‘jaligi kadrlarini shakllanishining tajriba va muammolari, qishloq mehnatkashlarining moddiy manfaatdorligini oshirish, ularning maishiy turmush sharoitlarini yaxshilash, xo‘jaliklarga oliy hamda o‘rta bo‘g‘in mutaxassislarini ta‘minlash muammolarini o‘rganishga harakat qiladi.

E.Qobulov³, H.Holmo‘minov⁴ tadqiqotlarida O‘zbekistonning janubiy viloyatlarida yengil va oziq-ovqat sanoatining ahvoli, mutaxassis ishchi kadrlar tayyorlash, ularning texnik saviyasini oshirish masalalari, sanoat korxonalari mehnatkashlarining moddiy-maishiy ahvolidagi o‘zgarishlar, tashqi va ichki migratsiya jarayonlari, uning aholi milliy tarkibiga tahsiri bilan birga bevosita kadrlar siyosatiga oid ma‘lumotlar ham uchraydi. Asosan bu muammolar O‘zbekistonning janubiy viloyatlari misolida o‘rganilgan.

Uchinchi guruhga mavzuga oid chet ellarda nashr etilgan adabiyotlar turkumi kiradi. O‘zbekistonning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti xorij olimlarini ham o‘ziga jalb etgan⁵. Bu asar va maqolalarda mualliflar ko‘proq sovet davlati va

(Жанубий вилоятлар мисолида 1946-1990 йй.): Автореф. дис.... т.ф.н. – Тошкент: 2007. – 27 б; Бабаджонова Н.А. Совет тоталитар сиёсатининг Ўзбекистон аҳолиси миллий таркиби шаклланишига таъсири (1941-1990 йй.): Автореф. дис.... т.ф.н. – Тошкент: 2008. – 30 б; Юнусова Х. Социально-экономические процессы и духовная жизнь в Узбекистане в 80 – х годах XX века: Автореф. дис.... докт. ист. наук. – Ташкент. 2009. – 46 с. ва бошқ.

¹Турсунов С. 1946-1965 йилларда Ўзбекистон иқтисодиёти аграр соҳасининг ривожланиши: Дис.... т.ф.д. – Тошкент: 1995. – 292 б.

²Зияев Ф. Ўзбекистоннинг кўрик ва бўз ерларида қишлоқ хўжалиги кадрларининг шаклланиши: тажриба, муаммолар (Мирзачўл минтақаси мисолида), (1965-1970 йй.): Автореф. дис... т.ф.н. – Тошкент: 1994. – 27 б.

³Қобулов Э. Ўзбекистоннинг жанубий вилоятларида енгил ва озиқ-овқат саноатининг ривожланиш тарихи, тажриба ва муаммолари (1946-1960 йй.): Автореф. дис.... т.ф.н. – Самарқанд: 1994. – 26 б.

⁴Ҳолмўминов Х. Ўзбекистонда совет мустамлакачилиги сиёсатининг миграцион жараёнларга таъсири (Жанубий вилоятлар мисолида 1946-1990 йй.): Автореф. дис.... т.ф.н. – Тошкент: 2007. – 27 б.

⁵Zonnert G. Nationalism between Modernisation and Demodernisation Canadian Review of Studies in Nationalism. – Charlotte-town. 1998. Vol. 15. № 1/2; Carrere D’Encansse H. L’empire eclate: La revolte’des national en U.R.S.S. –Paris: Flammarion, 1979.– P. 307-309; The Problem of Asian Integration in the Soviet Union // Tehran Times. July 22, 1985; Taras Kuzio. A Nationality Problem in the USSR? // Soviet Analyst. – England, 1985. – P. 7-8; Anworth Edward. The Modern Uzbeks: From the Present: A Cultural, History Hoover Institution Press, Stanford University. – California , 1990; БоффаДж. От СССР к России. – Москва: Международные отношения, 2000. – 320 с; Роголина Н. Колхозы в системе государственного социализма. (1950-1980-е гг.) // Сборник трудов международной научной конференции «Россия в контексте мирового экономического развития во второй половине XX века». – Москва, 24-25 ноября 2004 года;

partiya qurilishi, milliy siyosat, maorif, bevosita va bilvosita kadrlar siyosatini tahlil etadilar. Xususan Margaret Miller “O‘zbekiston iqtisodini sekinlik bilan rivojlanmoqda, chunki malakali ishchi kuchi yetishmaydi”¹, -deb takidlagan. Maykl Bionyon “Agar mamlakat (SSSRda) o‘z iqtisodiy rivojlanish yo‘lini davom ettirsa, iqtisodiyot aniq to‘siqqa uchraydi. Shuningdek, ishchi kadrlar yetishmovchiligi yuzaga keladi. Buning sababi ikkita: birinchidan, yosh ishchi kadrlarning tanqisligi, ikkinchidan, sovet tug‘ilish tizimining buzilib borishi - bu Rossiyaning Yevropa qismi va Boltiqbo‘yida tug‘ilishning kamayib, O‘rta Osiyoda esa tug‘ilishning o‘sib borishi bilan ifodalanadi. Texnika va ishlab chiqarishdagi texnologiya bilan esa yevropaliklar ustunligi sezilib boraveradi. Natijada malakali kadrlarga jiddiy tanqislik oshib boraveradi”², - deb sharhlaydi. Maykl Rivkin esa tug‘ilishning Rossiyaning Yevropa qismi bilan O‘rta Osiyoda tubdan farq qilishi, O‘rta Osiyoning tub millat vakillari orasida ishsizlar sonini ortib borishiga sabab bo‘lishi va Moskva qandaydir chora ko‘rishga majbur bo‘lishini takidlaydi. Shundan so‘ng muallif, O‘rta Osiyo qishloqlarida ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo‘lsa ham ishlab chiqarish samaradorligining pasayib borishini tahlil qilib, buning oldini olish mumkin bo‘lgan bir qator mulohazalarni keltiradi³. O‘zbekiston iqtisodiyoti bilan bog‘liq bo‘lgan bunday qarashlar xorij mualliflarining maqolalaridan ham o‘rin olgan⁴. Xorijiy adabiyotlarga bugungi kunda Rossiya Federatsiyasida sovet davlati tarixiga bag‘ishlab chop etilgan bir qator adabiyotlarni ham kiritib o‘tish mumkin⁵. Shubhasiz, tadqiqotchilarning XX asr 80-yillari ijtimoiy-siyosiy tarixi xususidagi ilmiy xulosalari bir xil xarakterga ega emas. Ba’zi mualliflar kadrlar siyosati masalasi sovet davlati boshqaruvi va ishlab

¹ Рахимов С., Р.Каримов. Антикommунистик карашларнинг сохталиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 1982. – 40 б.

²Michael Binyon. Will the Soviet economy survive beyond 1984 // “The Times”, June 23, 1978. – P. 10.

³Michael Rywkin. Central Asia and Soviet Manpower. “Probleme of Communism”, Washington, January – February 1979, vol. XXVIII, №1.– P. 1-13.

⁴David Hooson. The Soviet Union peoples – regions. – USA. 1972.– P. 376; Lidia Bott. Recent trends in the economy of Soviet Central Asia. CAR. Vol. XIII. №3.1965. –P. 19.

⁵ Шмелёв, В. Попов На переломе: экономическая перестройка в СССР. – Москва: 1989; Пихоя Р.Г. Советский союз: история власти 1945-1991. – Новосибирск. 2000. – 260 с; А.В. Шубин От «застоя» к реформам. СССР в 1917-1985гг. – Москва: 2001. – 768 с; На пороге кризиса: нарастание застойных явлений в партии и в обществе. – Москва: 1990. –447 с; Красильников Д.Г. Власть в переходные периоды отечественной истории. 1917-1918гг., 1985-1993гг. (Сравнительный анализ):Дис....докт. ист. наук. –Пермь, 1997. – 295 с.

chiqarishida kadrlar masalasini ustunligini ko'rsatadilar. Ayrim mualliflar esa mamlakatdagi inqiroz sabablarini yuqori lavozimlarda ishlagan rahbarlar o'rtasidagi ixtiloflar, hokimiyat talashish yo'lidagi kurashlar jarayoni deb ham ta'rif beradilar. Masalan, M.L.Mlechin o'z monografiyasida yuqori lavozimni egallagan kadrlar masalasiga alohida yondoshadi. U SSSR Davlat Xavfsizlik Qo'mitasi (KGB) tarixini yoritadi va ayni paytda "o'zbeklar ishi"ga alohida to'xtalib, kadrlar masalasi bilan bog'liq bo'lgan bir qator o'z fikr-mulohazalarini beradi. Muallif butun mamlakatda mavjud bo'lgan salbiy illatlar, jumladan, poraxo'rlik, urug'-aymoqchilik, mahalliychilik holatlarini "O'zbekistonga xos" deb hisoblaydi va o'sha yillari O'zbekiston KP MQ birinchi kotibi bo'lgan SH.R.Rashidov nomini asossiz ravishda birga bog'laydi¹. Umuman, dissertatsiyada tadqiq qilinayotgan muammoga tegishli adabiyotlar ro'yxati ancha keng va O'zbekiston mustaqilligi yillarida sezilarli boyidi. Tarixchi, faylasuf, iqtisodchi olimlarning nashrlarida kadrlar siyosati masalasi iqtisodiy jarayonlardagi umumiy rejalar asosida yoritilgan. Ijtimoiy-gumanitar xarakterdagi monografiyalar, dissertatsiya tadqiqotlari orasida sovet davrining kadrlar siyosatiga bag'ishlangan birorta ham tadqiqot ishi yo'qligini hisobga olib, tadqiqot uchun ushbu mavzu tanlandi.

Dissertatsiya ishining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasidan o'rin olgan.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Mazkur dissertatsiyaning maqsadi – yangicha yondashuv asosida O'zbekistonda sovet tuzumining kadrlar siyosatini 1950-1991 yillarda bo'lgan davrini tahlil qilish, tanqidiy umumlashtirilgan tajribadan saboq olish, vujudga kelgan muammolarga tizimli tarzda tavsif berishdan iboratdir. Shunga ko'ra, quyidagi asosiy **vazifalar** belgilandi:

- sovet davlatida kadrlar siyosatini amalga oshirilishining mohiyati, g'oyaviy nazariy asoslari va strategik maqsadlarini o'rganish;

¹ Млечин М.Л. КГБ. Председатели органов госбезопасности.– Москва: 2006. издат. центр Полиграф, – С. 664-665.

- kadrlar siyosatini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlarini tadqiq etish;
- milliy ishchi kadrlarga munosabat va markazdan kadrlar jo‘natish siyosatini tahlil qilish;
- kadrlar siyosatida xotin-qizlar masalasi va ularni ijtimoiy-siyosiy hayotga jalb etishda ma‘muriy-buyruqbozlik usullari mohiyatini ko‘rsatib berish;
- kadrlar siyosatidagi xatoliklar, ularning oqibatlarini tahlil qilib, industrial ishlab chiqarish mutaxassis va ishchilari masalalarini o‘rganish;
- qishloq xo‘jalik kadrlarini shakllantirish va xo‘jalikni malakali mutaxassislar bilan ta‘minlash masalalaridagi kamchiliklarni tahlil etish.

Tadqiqotning manbaviy asoslari. Tadqiqotning manbaviy asosini arxiv ma‘lumotlari, statistik to‘plam, vaqtli matbuot, ilmiy va ijtimoiy-siyosiy nashrlar tashkil qildi. Bu hujjat va arxiv manbalarini o‘rganish jarayonida tadqiq etilayotgan davrdagi yutuq hamda kamchiliklar, respublika iqtisodiyotining rivojlanish darajasidagi ko‘rsatkichlar, kadrlar siyosatida yo‘l qo‘yilgan xatoliklar yaqqol namoyon bo‘ladi.

Birinchi guruhga chop etilgan “Narodnoe xozyaystvo Uzbekskoy SSR, statisticheskiy ejegodnik” (1956-1991 gg.) kabi statistik to‘plamlarda O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, aholining demografik holatlari, kadrlar, ishchi va xizmatchilarning yillik o‘sish sur‘atlari, ma‘lumot darajalari kabi muhim hujjatlar tahlil qilindi.

Ikkinchi guruhdagi davriy matbuotlar “O‘zbekiston kommunisti”(1946-1990 yy.), “Partiya turmushi” (1950-1990 yy.), “ Vestnik Moskovskogo universiteta ” (2000-2007 gg.), “ Voprosy istorii ” (2000-2005 gg.), “Fan va Turmush” (1985-1990 yy.), “Xalq va demokratiya” (1991-1993 yy.), “Jamiyat va boshqaruv” (1995-2005 yy.), “O‘zbekistonda ijtimoiy fanlar” (1995-2005 yy.) va boshqa bir qator jurnallardan hamda “Qizil O‘zbekiston” (1945-1960 yy), “Sovet O‘zbekistoni” (1965-1990 yy.), “Qishloq haqiqati” (1950-1985 yy.), “ Pravda Vostoka ” (1960-1980 gg.), “ Vecherniy Tashkent ” (1975-1985 gg.) kabi gazetalarning nashrlari asosida mavzuga oid materiallar o‘rganildi.

Uchinchi guruhda eʼlon qilingan hujjatlarda: Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti asar va maʼruzalari, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, mustaqillik yillarida chop etilgan ilmiy-amaliy matbuot materiallaridan foydalanildi.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Oʻzbekistonda sovet tuzumining 1950 – 1991 yillardagi kadrlar siyosati va uning oqibatlarini mavjud arxiv manbalari va nashriy asarlar asosida tahlil etish tadqiqot obyekti sifatida tanlab olindi. Oʻzbekiston tarixini ilmiy-amaliy jihatdan oʻrganish, ilmiylik, xolislik, tarixiy voqea-hodisalar asosida sovet tuzumi davrida kadrlar siyosati masalalarini izchil oʻrganish va tahlil qilish tadqiqot predmeti qilib olindi.

Dissertatsiyaning nazariy va uslubiy asoslari. Tadqiqot metodologik jihatdan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning Oʻzbekistonda tarix fani oldida turgan dolzarb muammo va vazifalar haqida bildirgan fikrlari, asarlari va nutqlari ilmiy xulosalar qilishda, taklif va tavsiyalar berishda metodologik asos boʻlib hizmat qildi.

Ilmiy tadqiqot olib borish jarayonida qiyosiy tahlilga, retrospektiv (oʻtmishga murojaat qilish) va kompleks statistik usullariga, tarixiy hodisa, fakt hamda raqamlarni tarixiy-falsafiy, muammoviy mushohada etish yoʻliga, umuminsoniy, milliy qadriyatlarning shajarasiga tayanuvchi tarixiy tafakkur qoidalariga, insonparvarlik gʻoyalariga va mustaqillik milliy taraqqiyot mafkurasiga asoslanadi. Oʻrganilayotgan jarayonlarni tahlil qilishda tarixiy haqiqat nuqtai nazaridan yondashishga muhim ahamiyat berilib, muallif tadqiq qilinayotgan voqea-hodisalarga tanqidiy baho berishga intildi, lekin hammasini yoppasiga qoralayvermasdan, tanqid yaratuvchanlik yoʻnalishiga ega boʻlishi, milliy tiklanish manfaatlariga xizmat qilishi lozimligini ham hisobga oldi. Ishda tarixiylik, xolislik, ilmiylik, mantiqiy ketma-ketlik kabi tamoyillarga asoslanildi.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar:
- birinchidan, XX asrning ikkinchi yarmidan sovet davlatining kadrlar siyosati

asosan mamlakat, partiya manfaatlariga xizmat qiladigan kadrlarni tayyorlashdan iborat bo'lib, bir-birini mantiqan takrorlab turadigan soxta shiorlar, partiya qarorlari kadrlar siyosatining nazariy asoslarini tashkil etdi. Go'yoki, "chekka qoloq o'lkalardagi iqtisodiy va madaniy qoloqlikni tugatib, iqtisodiy rivojlanishning cho'qqilariga yetishda ishchilar sinfi" jamiyatning metindek mustahkamlovchi kuchi deb tan olindi;

- ikkinchidan, sovet davlati hukmronligi yillarida O'zbekistonda ham kadrlar siyosati o'ziga xos yo'nalishdan bordi. Jamiyatni ezuvchi va eziluvchi sinflarga ajratgan bu tuzumda ishchilar sinfi bilan dehqonlar ittifoqini mustahkamlash, asosiy ishlab chiqarish kuchlarini jamoat mulkiga aylantirish, xalq xo'jaligini rejali rivojlantirish kabi jarayonlar yagona qonuniyatlarga bo'ysundirildi. Natijada milliy kadrlar tayyorlash bahonasi bilan mahalliy millat vakillari "ilg'or" paxtakor va mexanizatorlarga aylanib bordilar;

- uchinchidan, tadqiq etilayotgan yillarda ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishlari - tarixchi, siyosatchi, iqtisodchilar ilmiy tadqiqot ishlari bir tomonlama, markaz manfaatlariga bo'ysungan holda amalga oshirildi. Bu davrda yaratilgan asarlarda muammoga yondashuv kommunistik mafkuraning g'oyaviy ta'siri ostida bo'ldi va bu masalalar o'zining xolis talqinini topmadi.

Ishning ilmiy yangiligi. Dissertatsiyaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, O'zbekistonda sovet davlati hukmronligi yillarida kadrlar siyosati zamon talablari-milliy istiqlol g'oyasi ruhida ilk bor alohida ilmiy tadqiqot mavzusi sifatida xolisona hamda umumlashtirilgan holda yoritildi. Ilgari tadqiqotchilar uchun ma'lum bo'lmagan ko'pgina ma'lumotlar va hujjatli manbalarni davlat va joriy arxivdan topib birinchi marta ilmiy taomilga kiritildi. Sovet davlati kadrlar tayyorlash siyosati nazariyasiga bugungi kun nuqtai nazaridan baho berildi. 1950-1991 yillardagi kadrlar masalasida partiyaning biryoqlamalik siyosati mohiyati ochib berildi. Respublikada yuritilgan kadrlar siyosati manbalar asosida ilmiy o'rganildi va aniq materiallar asosida yoritildi.

Ilmiy tadqiqotni bajarish jarayonida 1950-1991 yillarda o'rganilayotgan mavzu bo'yicha amal qilgan voqea-hodisalarni bir-biri bilan taqqoslash, mantiqiy ilmiy xulosalar chiqarish, muammolarni bir tarixiy taraqqiyot bosqichida mavjudligi va o'zaro bog'langanligini e'tiborga olgan holda bayon qilishga amal qilingan.

Dissertatsiya natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Sovet tuzumi davridagi kadrlar siyosatini o'rganish, umumlashtirish respublikaning rivojlanishi uchun foydali bo'ladigan saboqlarni chiqarish imkoniyatini beradi. Dissertatsiyadagi materiallar, bayon etilgan qoida va xulosalar yoshlarni mehnatsevarlik, ijodiy faollik ruhida tarbiyalashda ahamiyati kattadir. Ilmiy izlanish natijasidagi materiallardan oliy o'quv yurtlarida maxsus kurslarni o'qitish, tarix darsliklari, qo'llanmalarni tuzish jarayonida ham foydalanishi mumkin.

Natijalarning joriy qilinishi. Dissertatsiya natijalaridan "O'zbekiston tarixi" fanlariga oid maxsus o'quv kurslari, o'quv qo'llanmalari va dasturlarini tayyorlashda foydalanish mumkin.

Natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya yuzasidan jami 5 ta ish e'lon qilingan. Jumladan, dissertatsiyaning asosiy mazmuni va xulosalari bitta ilmiy maqola, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallarida va bitta xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallarida o'z aksini topgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat.

I. BOB. SOVET DAVLATINING KADRLAR SIYOSATINI AMALGA OSHIRISHI VA UNING MOHIYATI

I.1 Sovetlarcha kadrlar siyosatining g‘oyaviy asoslari va strategik maqsadlari

Milliy istiqlolning o‘ziga xos tomonlaridan biri tarixni tazyiqlardan, mafkuraviy bosimlardan xoli tarixiy vorisiylik va uzviylik tamoyillariga asoslangan holda yoritishdan iborat. 70 yildan ortiq vaqt davomida hukmronlik qilgan kommunistik mafkuraga asoslangan sovet davlati davrida kadrlar siyosati borasida adolat, tengxuquqlilik, barqarorlik bo‘lmadi, aksincha, jarayonlar ma’muriy-buyruqbozlik yo‘li bilan tashkil etilgan mafkuraga bo‘ysundi. SSSRning kommunistik rahnamolari faqat marksizmning nazariy yo‘l-yo‘riqlari va buyuk davlatchilik tafakkuri falsafasiga amal qilib, boshqa ittifoqdosh respublikalar qatori O‘zbekistonni qaramlik asoratida saqlashdan iborat umumiy strategiya ruhidagi siyosiy yo‘lni qat’iy amalga oshirib keldi.

Sovet davlati yangi qurilayotgan vaqtlarda “proletariat dohiylari” bo‘lgan K.Marks, F.Engels, V.I.Lenin kabilarning ta’limoti asosida hayoliy jamiyat-kommunizm qurish yo‘lidan borish keng targ‘ib qilinib, ularning hayoti va faoliyati ko‘klarga ko‘tarilib maqtalgan holda mehnatkash xalq ongiga majburan singdirilib, kadrlar masalasi bilan ishlashda ham kommunistik partiyaga eng muhim tashkilotchi funksiya sifatida qaraldi va partiyaga “inqilobiy” harakatni uyushtira oladigan, bu harakatga rahbarlik qiladigan o‘z siyosiy yo‘lboshchilarini, o‘z ilg‘or vakillarini yetishtirishi lozim bo‘lgan tashkilot ekanligi ta’kidlandi. Natijada KPSS tomonidan shunday kadrlar siyosati ishlab chiqildiki, unga ko‘ra sovet tuzumining tabiiy mohiyatidan kelib chiqib, kadrlar siyosati maxsus “qolip”ga solinib, o‘ziga xos partiya hukmronligi shakllanishi lozim edi. Bular, birinchidan, kadrlar muammo va masalalarini hal etishda siyosiy yo‘lni tanlashdagi mutloq alohida huquq,

Ikkinchidan, kadrlarning sifat tasnifi mezon va ko'rsatkichlarini, shu jumladan, ularning strategik maqsadi, vazifalaridan kelib chiqqan holda shakllantirish va tanlashni belgilashdagi yakkaboshlik huquqi,

Uchinchidan, tuzumni doimiy saqlab qolish va jamiyat hayoti faoliyatining barcha sohalari ustidan nazorat o'rnatish maqsadlarida rahbar idoralarni tanlash, joy-joyiga qo'yishni markazlashtirilgan tartibda boshqarish huquqini taminlash bilan mujassamlashadi.

Sobiq ittifoq davrida kommunistik mafkura davlat siyosatining g'oyaviy quroli sifatida hizmat qildi, mafkuradagi yakkahokimlik, sinfiylik tamoyili davlat kadrlar siyosatining asosiy negizini tashkil etdi.

Davlat kadrlar siyosatida jamiyatning ijtimoiy tizimi "ishchilar sinfi", "kolxozchi dehqonlar" hamda "ziyoli" kabi sinf va qatlamlarga bo'lingan bo'lib, jamiyatga qarashning o'zgarishi yangi tamoyillarning paydo bo'lishi "markscha-lenincha" bir taraflama mafkuraga asoslandi va shakllandi. Kadrlar ongi va tafakkuridan milliylik, vatanparvarlik, fidoyilik, bunyodkorlik, ishbilarmonlik fazilatlari o'rinda ko'proq "ehtiyotkorlik", "tobelik", "itoatkorlik", "ijodkorlik", sifatlari namoyon bo'ldi¹. Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yishda ham uning shu sifatlari ustuvorlik qildi. Markaz manfaatlariga bo'ysungan, "sadoqatli" kadrlarni tayyorlash, aks holda ular bilan tegishli tarzda "ma'muriy tarbiyalash" chora tadbirlari yagona maqsadga bo'ysundirilib, Sobiq ittifoq davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini tashkil etdi. Shuning uchun ham, sovet tuzumi davrida davlat mamlakat boshqaruv tizimidan tortib, xalqning kundalik turmushi va istiqboliga dahldor bo'lgan har qanday katta-kichik masalalarni hal etishni nomigagina o'z zimmasiga olib, amalda ko'proq shiorbozlik bilan shug'ullanganligi uchun mehnatkash xalq ishlash huquqiga ega bo'lib, "mehnat" deb atalgan hissiz mashinaning murvatiga aylanib qolgan edi.

XX asrning 20-yillari ikkinchi yarmi 30- yillarda yangi hududiy mehnat taqsimoti, respublikalarning shakllantirayotgan umumittifoq xalq ho'jalik

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустанлакачилиги даврида –Т.: Шарқ, 2000.- Б. 505.

majmuida iqtisoslashuvi qaror topgan. O‘zbekistonga mamlakatning asosiy paxta bazasi bo‘lishi vazifasi yuklangan edi¹. Natijada partiyaning kadrlar siyosatidan nafaqat mafkuraviy maqsadlar yo‘lida, balki markazning iqtisodiy manfaatlari yo‘lida ham foydalanildi. Shunga ko‘ra kadrlar siyosati sohasidagi muhim masalalar har bir o‘tkazilgan KPSS MQ, O‘zbekiston kompartiyasining syezdlari, plenumlari, viloyat, tuman, partiya konferensiyalarida ko‘rib chiqilgan. VKP (b) MQning 1944-yil 6-mart qarori, 1947-yil fevral oyidagi VKP (b) MQning plenumi, 1959-yil KPSS XXI sezdi, 1965-yilgi XXII-XXV mart va sentabr, 1977-yillardagi dekabr, 1978-yilgi iyul, 1982-yil noyabr, 1983-yil iyun, dekabr, 1984-yil fevral va aprel, 1985-yil aprel, 1987-yil yanvar plenumlarida kadrlar siyosatiga alohida e‘tibor berilib, uning puxta o‘ylangan, “lenincha” tartiblar asosida ishlab chiqilgan, markaz manfaatlariga bo‘ysundirilgan usullari yaratildi². Qarorlar partiya ko‘rsatmalariga, nazariy xulosalarga va nizomlarga moslashtirildi. Sobiq partiya rahbariyati va davlat boshqaruv tizimida tartibga solinadigan huquqiy baza aksariyat hollarda, ittifoqdosh respublikalarda ijtimoiy tizimning barcha sohalariga deyarli bir hil tarzda ko‘chirildi. Bu o‘z navbatida, davlat qonunlari bir taraflama bajarilganligini ko‘rsatdi. Partiya jamiyatning rahbar va yo‘naltiruvchi kuchiga aylandi. Partiya o‘z mavqeini oshirish maqsadida a‘zolicini murakkablashtirgan, tabaqalashtirgan va sinfiylashtirgan. Asosan ishchi, dehqonlar partiya a‘zoliciga ko‘proq olindi va bu vakillardan rahbarlik lavozimlariga ko‘tarish yo‘li izchil amalga oshirildi.

VKP (b) MQning 1944-yil 6-mart qarori aynan O‘zbekistonda kadrlar bilan ishlashni tashkil etishga bag‘ishlanib, partiya tashkilotlari kadrlarni tarbiyalashda bolshevikcha usul va tanqidni kuchaytirish, kadrlar o‘z-o‘zini tanqid qilishni bilish ruhida tarbiyalash zarurligini, bunday uslub kelajakda ishdagi katta xatolarning oldini olish imkoniyatini berishi alohida takidlandi. Bunday qarorlar har tomonlama o‘shishning go‘yoki qulay sharoitlarini yaratib, tartibli tizimni ishlab

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мушамлакачилиги даврида –Т.: Шарк, 2000.- Б. 40.

² Ийманова Д. Ўзбекисонда совет тузумининг кадрлар сиёсати ва унинг оқибатлари. – Т.: “Янги асп авлоди” 2013. -Б. 9

chiqqan edi. Saylanadigan partiya organlarida ham ishchi va kolxozchi vakillari keng qatnashar, tuman, shahar, viloyat partiya komitetlari, hususan, O‘zbekiston kompartiyasi a‘zolari orasida ham ularning soni ortib borar edi. Sinflar o‘rtasida kurash kuchayib boraveradi, degan turli g‘oyalarga ishongan bu tizimda partiya a‘zolarining asosini ishchi va dehqonlar tashkil etar, ziyolilarning partiya safiga kirishi esa murakkablashtirilgandi. Shu tariqa partiyaning o‘rni va ahamiyati kuchayib, davlat siyosatida kadrlar masalasini hal qilish borasida uning imtiyozlari va birlamchi huquqi ustun bo‘ldi.

Sovet hukumatining dastlabki yillarida partiya hodimlari “mahalliy” va “mahalliy bo‘lmagan” kadrlarga ajratilmadi. Markazda va joylardagi boshqaruv organlari tarkibida turli millat vakillari birgalikda ishladi. 1944- yil 6-martdagi VKP (b) MQning plenumida respublika sanoat ishlab chiqarishida o‘zbek kadrlari kamligi, shuning uchun o‘zbeklarni sanoatga keng miqdorda jalb etish va malakali o‘zbek mutaxassis kadrlarni tayyorlash zarur ekanligi to‘g‘risida qaror qabul qilindi. 1944-yilda sanoatda o‘zbeklardan umumiy rahbar kadrlar 17% bo‘lsa, 1945-yilda 20%ga o‘sdı. 1941-yilda barcha rahbar kadrlar tartibida mahalliy aholi vakillari -52%, shulardan o‘zbeklar 39,3%, ruslar-32,2%, boshqa millatlar- 15,8% bo‘lgan bo‘lsa, 1946- yilga kelib mahalliy aholi- 57,4%, shulardan, o‘zbeklar – 40,4%, ruslar-30%, boshqa millatlar-22,6% bo‘ldı¹.

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng O‘zbekistonda sovet hukumati kadrlar siyosati va boshqaruv apparatida kommunistik partiyaga rahnamoligida ulug‘ saltanatchilik va shovinistik siyosatni avj oldirdi. Shuningdek, mavjud mafkuraga bo‘ysunishi lozim va shart bo‘lgan “baynalminal” kadrlarning eng yirik oqimini vujudga keltirdi. O‘zbekistonda esa bu paytda davlat apparatini mahalliyalashtirish jarayoni kechdi. VKP (b) MQ qarorlariga muvofiq O‘zKP MQ kotibi U.Yusupov ko‘plab milliy kadrlarni tayyorlashga alohida e‘tibor qaratdi. U O‘zbekiston paxtakorlarining IV respublika qurultoyidagi (1947- yil 7-10 fevral),

¹ Ийманова Д. Ўзбекистонда совет тузумининг кадрлар сиёсати ва унинг оқибатлари. – Т.: “Янги аср авлоди” 2013. -Б.12.

O‘zSSR FA ilmiy sessiyasidagi (1947-yil 13- iyun), O‘zKP (b) MQning kadrlar masalasi bo‘yicha yig‘ilgan majlisidagi (1947-yil 8-iyun), O‘zKP (b) MQning XVIII plenumidagi va boshqa chiqishlarida milliy kadrlarni ko‘paytirishga harakatlar qilgan. O‘zSSR FAning ilmiy sessiyasi ma‘ruzasida: «Eng muxim omil ko‘p sonli milliy bolshevik kadrlarni shakllantirishdan iboratdir. Davlat boshqaruv organlarining raxbar xodimlari tarkibida o‘zbek va boshqa mahalliy millat vakillarining soni quyidagichadir: partiya organlarida - 49%, shulardan partiya shahar komitetlari va rayon ijroiya komitetlari kotiblari - 67%, sovet organlarida- 67%, shu jumladan, shahar va tuman ijroiya komitetlarining raislari - 93%, sud va prokuratura organlarida - 74%, shulardan rayon va shahar prokurorlari 81%, rayon va shahar gazeta muharrirlari tarkibida- 93%, shahar va tuman xalq ta’limi bo‘limlarida- 82%, O‘zSSR yuqori kengash deputatlari tarkibida – 68%ni tashkil etadi» deb takidlagan. Raxbar kadrlar 1947- yilda 3725 ta bo‘lsa, 2012 tasi (54%) o‘zbek, 638 tasi (17,1%) rus bo‘lgan¹. Tub aholi vakillaridan yetishib chiqqan rahbarlar har qancha qobiliyatli, iste’dodli, bilimdon bo‘lmasin doimiy nazoratda bo‘lgan. Markaziy idoralarda samarali ishlay oladigan yetuk, tajribali mahalliy kadrlar ko‘plab topilgan. KPSS Markaziy Komiteti, SSSR Oliy Soveti, Ministrlar Soveti apparatida va boshqa idoralarda yuqori lavozimlarda ishlagan mahalliy millat vakillaridan Fayzulla Xo‘jaev, Usmon Yusupov, Abdulla Rahimboyev, Nazir To‘raqulov, Sulton Segizboyev, Sa’dulla Go‘rsunxo‘jayev, Sotqin Badalboyev, Isroil Ortiqov, Nuridin Muxitdinov, Eshonxon Usmonxo‘jaev, Sharof Rashidov kabi ko‘plab atoqli davlat arboblari mamlakat ravnaqi, kelajagi uchun mehnat qildi, biroq ko‘plab vatanparvar, xalqparvar milliy kadrlarimiz hukmron tuzum qurbonlariga aylandi. Sh.Rashidov faoliyati davrida u bilan birga iqtidorli, mehnatkash mahalliy raxbar kadrlar: ministrlar soveti raisi N.D.Xudoyberdiyev, rais o‘rinbosari M.T.Tursunov, A.R.Xo‘jaev, MQ kotibi A.A.Xo‘jaev, Y.R.Qurbonov, A.U.Salimov, viloyat partiya komitetining birinchi kotiblari

¹ Ийманова Д. Ўзбекистонда совет тузумининг кадрлар сиёсати ва унинг оқибатлари. – Т.: “Янги аср авлоди” 2013. -Б. 13.

M.M.Musoxonov, V.A.Xaydarov, M.K.Kamolov, K.M.Murtazayev, axborot rahbari va ministri A.K.Qayumov, A.X.Xamidov, I.X.Jo‘rabekov, S.M.Mamarasulov, YA.I.Ismoilxo‘jayev kabilar faoliyat ko‘rsatgan. Talantli tashkilotchi shaxslar, arboblarning xalqni o‘z orqalaridan ergashtirib ketishidan xavfsiragan sovet ma‘murlari ularni turli usullar bilan doimiy kuzatib turgan, tegishli choralarni qo‘llagan. Mahalliy kadrlarni tobelashtirishning asosiy yo‘l-yo‘riqlari sobiq kommunistik partiya tomonidan 1947- yil 6- iyunda NK 00447 buyruq bilan qabul qilingan va qat’iy sir tutilgan ko‘rsatmada o‘z ifodasini topgan. Jumladan, quyidagi qarorlar ta’kidlangan, «Tashkilotchilik qobiliyatiga ega va xalq orasida mashxur bo‘lgan kishilarga alohida e’tibor qaratish lozim. Bunday kishilarni yollab olishga urinish zarur. Mabodo rad etishar ekan, ularning yuqori lavozimlar tomon yo‘lini to‘siq qo‘yish lozim bo‘ladi. Mahalliy aholi orasidan yetishgan rahbarlarning ommaviy chiqishlarida milliy bo‘yoq berilishiga yo‘l qo‘yiladi, ammo u millatning o‘sishiga, birlashuviga xizmat qilmasligi kerak. Partiya va davlat xo‘jalik apparatida ishlayotgan tub yer aholi namoyandalarini shunday holatga solish kerakki, ularning o‘z qo‘l ostidagilari ko‘z o‘ngida obro‘si to‘kilib, avvalgi davrasiga qaytishlari uchun imkoniyatlari qolmasin. Ish joylarida yetakchi mutaxassislarning ishdan olinishiga hamda ularning o‘rniga chala mulla va mulohazasiz xodimlar qo‘yilishiga erishmoq darkor. Oliy o‘quv yurtlariga shunday kishilarni qabul qilinishiga erishish kerakki, toki ular xalqning quyi qatlamidan bo‘lsin va ularning mutaxassisliklari bo‘yicha bilim olish emas, balki diplom qiziqtirsin»¹. Rahbariyat respublikalarni mahkam ushlash uchun milliy kadrlarni boshqarish masalasida turli siyosiy usullarni qo‘llagan. O‘zbekistondagi respublika, viloyat, shaxar va tuman partiya yoki sovet tashkilotlarining rahbar xodimlari, bo‘lim boshliqlari Moskva «nomenklaturasi»da bo‘lib, KPSS Markaziy Komiteti tomonidan tayinlangan. Asosiy ish mahalliy bo‘lmagan ikkinchi raxbar qo‘lida bo‘lib, ko‘p hollarda «birinchi rahbar» faqat nomigagina edi.

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустанлакачилиги даврида –Т.: Шарк, 2000.- Б. 508-510.

Markaz chizig'idan chiqmaydigan kadrlarni tayyorlash siyosatida komsomol va partiya maktablarida o'qitish, markazdan «vakillar otryadi jo'natib yordam berish», qo'l ostidagi respublikalarning barcha ikkinchi kotiblarini Moskvadan jo'natish singari tajribalar ochiq rasmiy yo'l hisoblansa, mahalliy kadrlarni bir-biriga qarshi qo'yib birlashishga yo'l qo'ymaslik ishlari va usullari avj oldirilgan. Mahalliy raxbar kadrlarni asossiz ravishda tez-tez boshqa joyga ko'chirish amaliyoti qo'llanilgan. Ayniqsa, O'zbekiston Kompartiyasining raxbar organlari biror xisobot saylov davridan keyin taxminan 20% yangilansa, KPSS ustavida yangilanib turish nisbati belgilangandan keyin 70% xatto undan ham ko'proq yangilanadigan bo'ldi-ki, buning oqibatida kadrlar ishiga bo'lgan ishonchsizlik, loqaydlik holatlari kuchayib borgan.

Mamlakatda kadrlar tayyorlash tizimi faqat kasbiy bilim berishdan iborat bo'lmay, «markscha-lenincha» dunyoqarash va mehnatga «kommunistik munosabat»ni shakllantirish, g'oyaviy-siyosiy tarbiyani kuchaytirishni o'z ichiga oldi¹. Marks va Leninning ko'plab asar, xat, hujjatlari, kommunistik partiyaning syezd va konferensiyalari, MQ plenumlari qarorlari, KPSS MQ bosh kotibi N.S.Xrushchev va L.Brejnev asarlari, Kommunistik partiya va sovet davlati rahbarlarining nutqlari hamda nazariy asarlarida «sovetlarcha» kadrlar siyosati aniq aks ettirilib, kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va tarbiyalashda xuddi shu qoidalarga asoslanildi. Bu asarlarda raxbar kadrlar davlat oldida o'z partiyaviy burchlarini chuqur xis qilishi, amaliy ishga partiyaviy munosabatda bo'lishi, o'z-o'zini tanqid qilishni bilishi doimiy uqtirildi. Bu talablardan kelib chiqib shuni ta'kidlash lozimki, markaz buyruqlarga so'zsiz bo'ysunuvchi kadrlarni topib, ularni ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga o'zlari xohlagan holda jalb qilish siyosatini qo'lladi. KPSS ko'rsatmalarida ham bu talab mustahkamlangan bo'lib, shunday deyilgan edi: «partiya kadrlarni uning siyosiy va ishchanlik sifatlariga qarab tanlash yo'lini og'ishmay amalga oshirishi lozim. Kadrlar siyosatida «lenincha» qoidalar buzilgan hollarning hammasida murosasiz bo'lishi lozim». Kadrlar

¹Азизхўжаев А. Чин ўзбек иши. –Т.: “Академия”, 2013. –Б.8.

faoliyatida yuksak ma'naviy fazilatlaridan ko'ra «siyosiy sifatlar» degan tushuncha ustun bo'lishi zarur edi. Bu tushunchaning mohiyati, chuqur g'oyaviy e'tiqod, uning asosini «markscha-lenincha» ta'limotni bilish tashkil etardi; internatsionalizm (turli irq va millat mehnatkashlarining xalqaro birdamligi) va sovet vatanparvarligi; burjua mafkurasi ko'rinishlariga, o'tmish sarqitlariga nisbatan murosasizlik; ijtimoiy hodisalarni baholashga partiyaviy, sinfiy munosabatda bo'lish; partiya siyosatini, sovet davlati manfaatlarini himoya qilish, ularni amalga oshirish uchun fidokorona kurasha olish qobiliyati; ijtimoiy burchni chuqur anglash; partiya va davlat intizomiga qat'iy rioya qilish kabilar bo'lib, «markscha-lenincha» nazariy bilim o'z shaxsiy e'tiqodiga, kundalik xayot qoidasiga aylangan kishinigina chinakam yetuk kadr hisoblashardi. Bunday rahbar kadrlarni tayyorlashda esa VKP (b) MQ huzuridagi oliy partiya maktablari va uning sirtqi bo'limi, ijtimoiy fanlar akademiyasi, «Lenin kurslari», respublika va viloyatlararo partiya maktablari asosiy vosita bo'lgan. Bu erda kadrlar o'z mutaxassisliklari bilan birga «marksizm-leninizm» ta'limotlarini ham chuqur egallashlari kerak bo'lgan. 1950-yillardan keyin partiya dohiylarining asarlarini nashrdan chiqarilishi va o'zbek tiliga tarjima qilinishi oliy maktablar uchun g'oyaviy qurol bo'ldi. Haqiqiy kommunist butun vujudi, kuchi, g'ayrati, qalbi, haroratini vatanga, partiya ishiga bag'ishlashi kerakligi ta'kidlandi. «Ijtimoiy tenglik» to'g'risidagi sotsializm g'oyasi kishilarni ishga nisbatan sovuqqonligini oshirgan bo'lsa, «davlat mulki», «umumxalq mulki» degan aqidasi insonni mulkdorlik, egalik tuyg'ularidan begona qildi. Raxbariyat xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarini mustabid tuzumni mustahkamlash va uni takomillashtirish uchun safarbar qildi.

Stalin VKP (b) MQning 1947-yil fevral plenumida «Ishonch bilan shuni aytish mumkinki, agar biz ish tarmoqlaridagi kadrlarimizni g'oyaviy jihatdan tayyorlay bilganimizda, rahbarlik masalalarini jiddiy xatolar qilmasdan hal qilishga qobil bo'lgan, tom ma'noda yetilgan markschi-leninchilarga aylantira bilganimizda barcha masalalarning o'ndan to'qqizini bajarilgan deb hisoblash uchun hamma

asoslarga ega bo'lgan bo'lar edik. Bu vazifani biz albatta xal qilamiz va zarur bo'lgan vositalarning, imkoniyatlarning hammasini ishga solamiz»¹. Shu sababli ham oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida o'quv-tarbiya ishlarini mafkuraviy andozalarga solish kuchaydi. Mutaxassislik bo'yicha asosiy fanlarni o'qitish o'rniga barcha o'quv yurtlarida kommunistik mafkurani shakllantiruvchi KPSS tarixi, marksizm-leninizm falsafasi, siyosiy iqtisod, ilmiy kommunizm, jamiyatshunoslik fanlarini o'qitishni yanada yaxshilash to'g'risida tadbirlar ishlab chiqildi. Talabalar «VKP (b) tarixi qisqa kursi»ni chuqur o'zlashtirishlari shart bo'lgan. O'quv jarayoni uchun zarur bo'lgan demokratik va ijodiy jixatlar inkor qilindi. Oqibatda, ta'lim tizimida kommunistik mafkuraga bo'ysundirilgan adabiyotlar ko'proq o'qitiladigan bo'ldi. O'zbekistonni sanoatlashtirish VKP (b) ning XVIII sezdi va O'zKP (b) MQning IX plenumidan keyin katta kuch bilan kengayib ketdi. Xalk xo'jaligining o'sib borayotgan ehtiyojlari, mamlakat iqtisodiyotida SSSRning asosiy xom ashyo bazasi bo'lgan O'zbekiston respublikasida og'ir sanoatni tez sur'atlar bilan rivojlantirishni, mamlakatning ulkan tabiiy boyliklaridan foydalanishni qattiq talab qildi. 1946- yil Usmon Yusupov SSSR Oliy sovetining birinchi sessiyasida so'zlagan nutqida: «Bizning davlatimiz uchun xom ashyo sanoatini rivojlantirish asosiy vazifadir. Uning uchun sanoat ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish, korxona va zavodlarni yangi texnika va texnologiyalar bilan ta'minlash, eng asosiysi, mahalliy kadrlardan malakali ishchilarni yaratish kerak. Sanoat ishlab chiqarishda mahalliy kadrlardan ishchi va injener-texniklarni tayyorlash muxim siyosiy masala, busiz biz xalk xo'jaligini olg'a rivojlantira olmaymiz», deb ta'kidladi. 1945- yilda og'ir sanoatda ishlovchi raxbar kadrlar umumiy miqdori 79%, shulardan 2 yildan ortiq stajga ega bo'lganlar 67,3% bo'lgan. Urushdan keyin dastlabki yillarda 150 ta sanoat korxonasi foydalanishga topshirildi. Ular orasida Bekobod metallurgiya, Qo'qon va Samarqand superfosfat zavodlari ham bor edi. 1958 – 1965 yillarda yana 142 ta sanoat korxonasi qurildi. 1965- yilda O'zbekiston milliy daromadining 35,3%i

¹ Ийманова Д. Ўзбекистонда совет тузумининг кадрлар сиёсати ва унинг оқибатлари. – Т.: “Янги аср авлоди” 2013. -Б.17.

sanoat ishlab chiqarishi ulushiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 1970 yilda- 40% dan oshdi. O'rtacha yillik o'sish sur'atlari elektr energetikada 11,4%, rangli metallurgiyada 14%, neftni qayta ishlash sanoatida 13,2%, gaz sanoatida 19,8%, kimyo sanoatida 1,5% bo'ldi. 1985- yilga kelib respublika 1549 ta sanoat korxonasiga ega bo'ldi va ishlab chiqarishning yalpi daromadi 1960- yilga nisbatan 5 baravarga o'sdi. Katta zaxiraga ega bo'lgan ko'mir, neft, gaz kabi boyliklar ishga solindi va qudratli yoqilg'i sanoati barpo etildi. 1965- yilda gaz qazib olish 8 baravar ko'payib, 1970- yilda 32 mlrd. kub metrdan oshdi¹.

Xulosa o'rnida, kommunistik mafkura asosida olib borilgan kadrlar siyosati "markscha-lenincha" bir taraflama g'oyalarga asoslanib, kadrlar masalasini hal qilish borasida partiyaning huquqi va imtiyozlari ustun bo'ldi. Respublika rahbariyati sobiq SSSRning boshqaruv tizimiga bo'ysundi va O'zbekiston xalq xo'jaligida mahalliy rahbar kadrlarning tub manfaatlarini hisobga olishni mo'ljallamadi. Ushbu tuzumning kadrlar siyosatida ham olib brogan rejasi respublika iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qilsa-da, olinayotgan foydadan ko'proq markaz manfaatdor bo'ladi.

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мушамлакачилиги даврида –Т.: Шарқ, 2000.- Б.505.

I.2. O‘zbekistonda kadrlar siyosatini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari

O‘zbekiston SSR tashkil topgandan keyin, milliy davlat qurilishi qat’iy sovet unitarizmi doirasida, sinfiy qarama-qarshilik mafkurasi va ma’muriy - buyruqbozlik tizimi asoslarini qaror toptirish negizida amalga oshirildi. O‘zbekiston ittifoq rahbariyati tomonidan faqat markazning o‘zi qarorlar qabul qilishga qodir bo‘lgan subyekti sifatida emas, balki ob’ekti sifatida qaraldi. Haddan tashqari markazlashtirish belgisi ostida mahalliy boshqaruv idoralari tashkil etildi. Ular amalda ittifoq organlaridan to‘la-to‘kis nusxa olib ishladi.

Raxbar, ishchi kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo‘yish va tarbiyalash masalalari sovet hukumatining diqqat markazida turdi. Ayniqsa, O‘zbekistonda bu siyosatning ko‘rinishi, ya’ni kadrlarni shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari boshqa ittifoqdosh mamlakatlarga qaraganda ancha farq qildi.

Sovet siyosatida mafkura va tarbiyaviy ishning kuchaytirilishi kadrlarni shakllantirishda muhim yo‘nalish bo‘lgan. Ayniqsa bu siyosat 1947 yil VKP (b) MQning fevral plenumidan keyin jadalladi. Ushbu plenumda Stalin: «Kadrlarni o‘stirish va kamolga yetkazish odatda fan va texnikaning ayrim sohalari mutaxassisliklar bo‘yicha olib boriladi, bor kuchni markscha-lenincha mafkura bilan tarbiyalashga qaratish kerak», deb ta’kidladi¹. 1946 yil Toshkentda ikki yillik partiya maktabi ochildi. Unda dastlab partiya, sovet, komsomol va ommaviy axborot xodimlari 400 soatlik VKP (b) MQ dasturi asosida ta’lim oldilar. Keyinchalik, ya’ni 1956 yilda to‘rt yillik Oliy partiya maktabi tarzida qayta tashkil etildi. Toshkent Oliy partiya maktabi partiya va sovet davlat apparati uchun kadrlarni etishtirib yoki ularni qayta tayyorlagan holda O‘zbekiston SSR, Tojikiston SSR, Turkmaniston SSR, Qirg‘iziston SSRning janubiy rayonlari uchun partiya va sovet xodimlari tayyorladi. Bu o‘quv dargohi o‘rta ma’lumotlilar uchun to‘rt yillik, oliy ma’lumotlilar uchun ikki yillik bo‘lgan. Toshkent oliy partiya

¹ Ийманова Д. Ўзбекистонда совет тузумининг кадрлар сиёсати ва унинг оқибатлари. – Т.: “Янги аср авлоди” 2013. -Б.34

maktabi birinchi yilning o'zida ana shunday xodimlardan qariyb 3000 kishini tayyorlab berdi. KPSS MQ huzuridagi Ijtimoiy Fanlar akademiyasi ham markaziy partiya muassasalari, ittifoqdosh respublikalar kommunistik partiyalari MQLari, KPSS tuman va viloyat ko'mitalari uchun nazariyotchi xodimlar, oliy o'quv yurtlari uchun o'qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va ilmiy jurnallarning xodimlarini tayyorladi. Bu o'quv muassasalari asosan rahbar kadrlarni tayyorlashga mo'ljallangan edi.

O'quv rejasining asosiy qismini KPSS tarixining dialektik va tarixiy materializm tizimi, siyosiy iqtisod, partiya va sovet qurilishini o'rganuvchi darslari bo'lgan. 1951 yilda respublika bo'yicha partiya maorifi shoxobchalarida 130 ming kishi, marksizm-leninizm kechki universitetlarida 4000 dan ortiq, VKP (b) MQ qoshidagi Oliy partiya maktabida 140 dan ortiq kishi, 400 dan ortiq kishi respublika partiya maktablarida o'qidi. Birgina Farg'onada 1952-1953 o'quv yilida «VKP (b) MQ tarixi»ni o'rganish to'garagi 7 joyda, V.I.Lenin va I.V.Stalinning tarjimai xolini o'rganish to'garagi 13 joyda, siyosiy maktab 9 joyda tashkil qilindi. Lenin asarlarining 35 tomi, «KPSS syezdlar, konferensiyalar va Markaziy Komitet plenumlarining rezolyutsiyalari va qarorlarida» degan uch tomlik to'plam, Karl Marksning «Kapital»i va boshqa ko'plab asarlar tezlik bilan o'zbek tiliga tarjima qilindi. 1967-1968 yillarda Toshkent oliy partiya maktabi bazasida respublikalararo kurslar, shuningdek, Samarqand, Toshkent, Farg'onada viloyatlararo kurslar ochildi. Bu shundan dalolat berdiki, mavjud tuzum shaxsga sig'inish holatlarini mamlakatning hamma joylarida keskin ravishda kuchaytirib borgan.

1958 yil 24 dekabr O'zSSR Oliy Sovetining beshinchi chaqiriq birinchi sessiyasida «Maktabni turmush bilan bog'lashni mustahkamlash va respublikada xalq maorifi tizimini yanada rivojlantirish» to'g'risida qonun qabul qilinib, rahbar, ishchi, xotin-qiz, qishloq xo'jalik, injener-texnik xodimlar tayyorlash tizimida yangi tadbirlarni joriy qilish masalasi ko'rildi. Unda qabul qilingan qonunning 49-moddasida «talabalarni, mutaxassislarni g'oyaviy-siyosiy jihatdan tarbiyalashni

kuchaytirish, markscha-lenincha nazariyani o'qitishni yanada yaxshilash, yoshlarni yuksak kommunistik ahloq qoidalari ruhida, jamoatchilik va mehnatni sevish, sotsialistik internatsionalizm va burjua g'oyasiga nisbatan murosasiz bo'lish ruhida tarbiyalashni alohida bajarish shartligi ko'rsatildi. Asosiy e'tibor rahbar kadrlar va kommunistlarga markscha-lenincha bilim berish va bolshevikcha tarbiyalashga qaratildi. Oliy partiya maktabi, partiya va sovet xodimlarini qayta tayyorlovchi doimiy kurslar, sanoat qurilishi, transport va aloqa korxonalarining, kolxoz va sovxoz raxbarlari uchun iqtisodiy kurslar tashkil etildi. Shaharlar, tuman markazlarida iqtisodiy bilimlar universiteti, xo'jalik va sovet faollari maktablari doimiy ishlab turgan. Respublikadagi barcha kadrlarning iqtisodiy bilim olishini yaxshilash to'g'risidagi qaror «Qizil O'zbekiston» gazetasining 1960 yil 25 oktyabr sonida e'lon qilinib, iqtisodiyot maktablarida quyidagi asosiy mavzularni o'rganish ko'zda tutildi: «Xo'jalikni boshqarishni o'rganish», «Davlat rejasini ishlab chiqarishni kengaytirish qonuni», «Mehnat unumdorligini oshirish mo'l-ko'lchilik uchun kurashdir», «Mehnatning tannarxini kamaytirish - jamoat boyligini ko'paytirish manbai», «Kommunistchasiga ishlaylik, o'qiylik, yashaylik» va boshqalardir¹. Bundan tashqari ko'plab O'zbekiston vakillari Moskva, Leningrad va ittifoqdagi boshqa shaharlarning oliy o'quv yurtlarida, KPSS MQ huzuridagi Oliy partiya maktabida va Ijtimoiy fanlar akademiyasiga o'qishga yuborilgan va bu jarayon har yili muntazam amalga oshirilib turilgan.

O'zbekiston KP Markaziy Komitetining 1963 yil iyuldagi plenumida «Respublika partiya tashkilotlarining rahbar kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish va tarbiyalash sohasidagi ishini yaxshilash to'g'risida»gi masala muhokama qilindi va kommunistik qurilishdagi vazifalarni hal etishga qobil bo'lgan mutaxassislarning ko'p minglik safi tayyorlanishi kerakligi ta'kidlanib, xodimlarni pastdan yuqoriga ko'tarish, ya'ni o'zini amaliy ishda yaxshi ko'rsatgan ishchilar, kolxozchilar, ziyolilar va xotin-qizlarni rahbarlik ishlariga ko'tarish lozimligi ham

¹ Ийманова Д. Ўзбекистонда совет тузумининг кадрлар сиёсати ва унинг оқибатлари. – Т.: «Янги аср авлоди» 2013. -Б. 36-37

aytiladi. Sovet boshqaruv siyosatining bundan maqsadi sanoatdagi tang vaziyatni ishchi, muxandis-texnik, xotin-qiz kadrlarning tashabbuskorligini oshirish, «sotsialistik musobaqa»ni keng joriy qilish, «alohida tanlab olingan» ilg'or ishchilarni «bayroq» sifatida mehnat qaxramonlari, Oliy Sovet deputatlari darajasiga ko'tarib, boshqalarga «o'rnak» qilib ko'rsatish yo'li bilan bartaraf qilishga va sanoatni turg'unlik holatidan olib chiqish uchun qilingan harakatlardan biri bo'lgan. Korxonalarda ishchi va xizmatchilar orasida «sotsialistik» musobaqalar doimiy o'tkazilgan. Chunonchi, to'qqizinchi besh yillik davomida O'zbekistonda 1,9 mln kishi yoki ishlovchilarning 90% idan ko'prog'i musobaqaga jalb etilgan. Bu kabi musobaqalarning o'tkazilishidan asosiy maqsad insonlarni miqdordan ko'ra ko'proq ishlatish, belgilangan rejalarni qanday bo'lmasin bajarish, ulardan arzon ishchi kuchi sifatida foydalanishni kuchaytirish edi. Ularning ijtimoiy-moddiy ahvolini yaxshilash o'rniga «Mehnat veterani», «Zavod veterani», «Zavod mukofotining laureati», «Zavodning eng yaxshi brigadasi», «Eng yaxshi konstruktor» kabi «faxriy» nomlarning berilishi bilan kifoyalangan. Biroq bu yo'l bilan O'zbekiston sanoatini turg'unlik holatidan olib chiqib bo'lmas, yangi islohotlarni amalga oshirish zarur edi. Siyosiy rahbariyat va kommunistik mafkura buni tan olishni xohlamasdi¹.

Partiya komitetlari, boshlang'ich partiya tashkilotlari kadrlarga talabchanlikni doimo oshirib borishlari, xodimlarni topshirilgan ish uchun partiya va davlat oldida shaxsiy mas'uliyatini his etish ruhida tarbiyalash ishlarini qat'iyatlik bilan olib bordi va kadrlarga (ayniqsa, mahalliy kadrlarga) nisbatan tekshiruvni kuchaytirdi. Shuning uchun ham ko'pgina mahalliy malakali xodimlarni mas'uliyat tuyg'usini yo'qotganlikda, davlat rejalarini bajarishda mas'uliyatsizlik, millatchilik, intizomni buzish kabi noxaq ayblarni qo'yib, tegishli choralarni muntazam ravishda ko'rib turdi. Masalan, 1937 - 1953 yilgi NKVD «uchligi» tomonidan 100 ming kishi qamoqqa olindi, turli muddatlarga ozodlikdan

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет муштамлакачилиги даврида –Т.: Шарқ, 2000.- Б 528.

maxrum etildi, 15 ming nafari esa otib tashlandi¹. Markaz o'zining siyosiy «o'yinlari»ni davom ettirishida, ko'pgina yetuk rahbarlar, ma'rifatparvar ziyolilarni jazolash, ruhiy ezish orqali boshqalarni ham xushyor qilib qo'yish va qo'rqitishni mo'ljalladi. Ayniqsa, mahalliy ziyoli rahbarlardan turli xil siyosiy baxonalar topilib, yillar mobaynida qilingan mashaqqatli mehnatlari bilan birgalikda ilmiy daraja va unvonlari, lavozimlari ham asossiz ravishda qoralangan, hattoki ularning oila a'zolarining ham shu vaqtgacha qilingan ishlarining tekshiruvi boshlangan. Ularning ish faoliyati qattiq uslubda tekshirilib, yo'q xatolar ham bor qilinib, sovet tuzumining «lenincha» qoidalarini buzganlikda, davlat rejalarini bajarishda jiddiy kamchiliklarga yo'l qo'yganlikda, kadrlarni joylashtirish va tarbiyalashda noto'g'ri yo'ldan borib mahalliychilikka yo'l qo'yganligi, qarindosh-urug'larini ishga joylashtirganlikda ayblanib lavozimidan ozod etilgan. Vaholanki, respublikaning bu kabi ko'plab iste'dodli rahbar kadrlari faoliyati davomida ilmfan, maorif, iqtisodiy taraqqiyotga munosib hissalarini qo'shgan yurt farzandlari bo'lsa-da, ular hukmron mafkura tizimida ko'plab ruhiy qiynoq va ezilishlarni boshidan kechirgan, kelajagiga sezilarli ravishda zarba berilgan.

O'zbekistonda sanoat sohasida kadrlarni shakllantirish jarayonlari ham buyuk davlatchilik manfaatlarini hisobga olgan asosiy yo'ldan bordi. Sovet tuzumining kadrlar siyosati va uning asosiy jihatlari markazning mustamlakachilik ko'rinishlarini aks ettiradi. Unda milliy kadrlarni ko'paytirishdan ko'ra markazdan jo'natilgan ishchi kuchini tayyorlashga va ishlatishga qaratildi. Ishchi kadrlar asosan markaziy mintaqalardan O'zbekistonga keltirildi. Sovet tuzumi esa bu jarayonni o'zbek xalqiga «baynalmilal yordam ko'rsatish»ning namoyon bo'lishi deb baholadi. O'zbekistonda milliy ishchi kadrlarni shakllantirish davrida markazdan ishchi va mutaxassislarning keltirilishi mamlakatning iqtisodiy manfaatlariga ma'lum darajada mos kelardi, sababi, bu erda sanoat kadrlarini vujudga keltirishning moddiy negizi hali zaif edi. Bu jihatdan SSSR davlat reja

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустанлакачилиги даврида –Т.: Шарқ, 2000.- Б 517

qo'mitasining sanoat bo'yicha birinchi besh yilik rejasini ishlab chiqish komissiyasining qarori (1927 yil) ajralib turadi. Bu qarorda «O'rta Osiyo kabi mamlakatlarda yirik sanoatni chetdan keltirilgan ish kuchi asosida darhol vujudga keltirish ma'qulroqdir». O'zbekistonga kelgan malakali mutaxassislar sanoatning yangi tarmoqlarini tashkil etish va rivojlantirishda, mahalliy ishchi kadrlar tayyorlashda ishtirok etdilar. Respublikaga keluvchilar soni dastlab unchalik ko'p bo'lmadi. Masalan, 1933 - 1935 yillarda respublika korxonalari va qurilishlariga qariyb 10 ming kishi kelgan bo'lib, ular kadrlar tanqisligiga barham berishi lozim edi. Biroq keyingi yillarda ko'chirib keltirilgan mutaxassis kadrlar soni yildan-yilga ortib bordi. 1938 yilga kelib 650 ming ishchi xodimlar ko'chirildi¹. 1939 yilgi butunittifoq aholi ro'yxatiga ko'ra, O'zbekistonda yashayotgan rus millatining o'zi 727,3 ming kishi bo'lib, ular umumiy aholining 11,5%ini tashkil etib, ularning 35,5%i shaharlarda yashagan. Ikkinchi jahon urushi o'z navbatida respublikadagi demografik vaziyatga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. O'zbekistonga aholini g'arbiy mintaqalardan ko'chirib keltirish keng tus oldi. Masalan, 1943 - 1944 yillarda qalmiqlar, qrim tatarlar, chechenlar, ingushlar, nemislar, qorachoylar, pontiya greklari, mesxeti turklar, bolqorlar o'z vatanlaridan mamlakatning sharqiy tumanlariga majburiy ko'chirildi¹⁰¹. 1944 yil 18 mayda Stalin buyrug'iga muvofiq «vatan xoinlari» tamg'asi ostida O'zbekistonga ko'chirib keltirilgan qrim tatarlarning umumiy soni 883.400 kishidan iborat bo'ldi. Asosan bu xalqlar o'sha vaqtda ishchi kuchiga ehtiyoji kuchli bo'lgan Olmaliq, Bekobod, Chirchiq kabi sanoat shaharlariga hamda yangi o'zlashtirilgan yerlarda tashkil etilgan kolxoz va sovxozlarga joylashtirilgan. Umuman, 1936-1952 yillarda 20 dan ortiq millat vakillaridan iborat qariyb 3 millionga yaqin kishilar xoinlikda ayblanib, markaz ko'rsatmasiga muvofiq Sibir va O'rta Osiyo respublikalariga ko'chirib yuborilgan. Urush tamom bo'lishi bilan ko'chirib keltirilgan millatlarning ayrim vakillari o'z yurtlariga qaytib keta boshladilar. Biroq ularning ko'plari O'zbekistonda yashash uchun qoldilar. Oqibatda milliy sohada shunday vaziyat vujudga keldiki, sun'iy

¹ Ийманова Д. Ўзбекистонда совет тузумининг кадрлар сиёсати ва унинг оқибатлари. – Т.: «Янги аср авлоди» 2013. -Б. 40-41.

baynalmilal birlik - «sovet xalqi»ni mustahkamlash strategiyasidan kelib chiqib, partiya anjumanlarida, mafkura, madaniy qurilish masalalariga bag'ishlangan kengashlarda jadallik bilan «millatlarning birga qo'shilishi» zarurligi muttasil ta'kidlandi. Natijada boshqa milliy respublikalarda bo'lgani kabi bu erda ham «xalqlarning buzilmas do'stligi», «milliy masalaning to'la xalq etilganligi» kabi targ'ibotchilik shiorlari ostida markazga qaramligi kuchaydi, milliy tarkibning buzilishi avj oldirildi, o'zbek xalqining tabiiy xom ashyosi va mehnat resurslaridan foydalanish keng ko'lamda rivojlandi¹.

1982 yil rahbarlikni qo'lga olgan Y.V.Andropov mamlakatda kadrlarni tanlash va joylashtirish yo'lida qattiqqo'llik siyosatini kuchaytirdi. U «Partiya, davlat va mehnat intizomining har qanday buzilishiga qarshi qat'iy kurash olib borish lozim»ligini ta'kidladi. 1982 yil KPSS MQ ning plenumi ham aynan partiyada mafkuraviy, ommaviy siyosiy ishining muhim masalalariga bag'ishlandi. Plenumning kun tartibvda KPSS MQ Bosh kotibi Y.V.Andropov ma'ruzasi asosida mafkuraviy ishdagi asosiy vazifalarni belgilab berdi. Doimiy tashviqot bilan birga iqtisodiy, tashkiliy va huquqiy tartibdagi chora-tadbirlarni belgilash lozimligi aytiladi. Ularni amalga oshirishda ommaviy axborot vositalaridan foydalanish, ijtimoiy fanlarni kengaytirish va partiya ishlariga tayyorlanayotgan kadrlarni o'qitishda partiya faoliyatining nazariy tomonlarini chuqur singdirish va bunday tayyorlangan kadrlarni mas'ul ishlarga joylashtirib, ularning ishlashi uchun sharoitlar yaratib berishi ta'kidlandi. Mehnat intizomini mustahkamlash va kadrlar qo'nimsizligini kamaytirish ishida O'zbekiston SSR Mehnat davlat komitetiga katta vazifalar yuklatildi. U respublika korxonalari va tashkilotlarida, vazirliklarda, davlat tashkilotlari va idoralarida ishchi kuchlaridan foydalanishni davlat yo'li bilan nazorat qilishni kuchaytirish, yangidan ishga tushiriladigan muhim ob'ektlar ro'yxatini belgilash, ularning ishchi kuchlariga ehtiyojini aniqlab, kadrlar tayyorlash va butlashni nazorat ostiga olish kabi muammolarni hal etishi kerak edi.

¹ Ийманова Д. Ўзбекистонда совет тузумининг кадрлар сиёсати ва унинг оқибатлари. – Т.: “Янги аср авлоди” 2013. -Б.41.

Uning davomi sifatida 1983 yil avgustda SSSR Ministrlar Sovetining «Mehnat intizomini mustahkamlash yuzasidan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori e‘lon qililib, bunda mehnat intizomini butun choralar bilan yaxshilash yo‘llari ko‘rsatilib o‘tildi va uning buzilishiga qarshi kurash usullari belgilab berildi. Barcha kadrlarni, rahbar xodimlarni, mehnatkashlarni kommunistik ruhda tarbiyalashda, davlat rejalarini bajarishda mafkuraviy va tashkiliy jihatdan ta‘minlashdagi ishtirokini yanada kuchaytirish maqsadida kadrlarning markscha-lenincha o‘quvini tashkillashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Natijada partiya g‘oyalarini o‘rganish kadrlar bilan ishlashning asosiy vazifasiga aylandi. KPSS MQ qoshidagi Ijtimoiy Fanlar Akademiyasi, Oliy partiya maktabi, Respublika kompartiyalari qoshidagi partiya maktablaridan yanada keng foydalanish yuzasidan vazifalar belgilandi. Kommunistik qurilishning amaliy va nazariy o‘rganuvchilariga alohida dasturlar tuzildi. 1984 yil oktyabr oyidagi KPSS MQ plenumida bu masalaga yana alohida to‘xtalib, marksizm-leninizm g‘oyalariga, kommunizm qurilishi ishiga sadoqatlik kadrlarning asosiy fazilati sifatida baholandi hamda xodimlar ish faoliyatini nazorat qilishni kuchaytirdi. Kadrlar siyosatida nazoratning har qanday shaklini - xalq nazorati, ishchi nazorati, ma‘muriyat, jamoat tartibi organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat boshqaruvning ta‘sirchan omili bo‘lishi ta‘kidlandi. Har bir rahbar, yuqori tashkilotlarga emas, shu bilan birga omma ham doimiy nazorat ostida bo‘lishi kuchaytirildi. Biroq rahbariyat tarafidan mavjud tizimning ichki g‘ayri-mantiqiy qurilish, inson omilining istak-mayllari inobatga olinmaganligi evaziga yo‘l qo‘yilgan xatolar uchun ko‘rsatiladigan aybnomasi, mahalliy millat rahbarlari gardaniga tushdi. Ular mamlakatda bo‘layotgan iqtisodiy inqirozlarning asosiy sabablarini mahalliy kadrlar layoqatsizligi bilan bog‘ladi.

Markaz chizib bergan yo‘ldan borish O‘zbekiston respublikasi rahbariyatining ham asosiy vazifasi bo‘lib qoldi. Oliy partiya maktabi, partiya va sovet mafkurasi kadrlar malakasini oshirish kurslarida O‘zbekiston Oliy Soveti deputatlari, qishloq partiya qo‘mitalari kengashlari raislari, viloyat partiya

qo'mitalari, Oliy sovet prezidiumlari mas'ul xodimlari o'qitildi. Respublika partiya tashkiloti kadrlarni g'oyaviy chiniqtirishda barcha amallarni ishga soldi. Kadrlarni partiya va davlat intizomiga qattiq rioya qilish va topshirilgan ish uchun javobgarlikni chuqur xis etish, umumiy aytganda, inson omili ikkinchi darajali bo'lib shakllandi. Oqibatda kommunistik mafkura va hukmron g'oya oldida fuqaro o'zini nochor xis etadigan, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqara olmaydigan bo'lib qoldi¹.

Ana shunday vaziyatda xalqning erkin mehnat qilishga bo'lgan rag'batini so'ndirildi. Mustaqil fikrlaydigan, yuz berayotgan voqea-hodisalarga mustaqil baxo beradigan, xalq manfaatini o'ylagan, uning ongiga nur, qalbiga ziyo bag'ishlashga intilgan, vijdon va aql bilan ishlashga, xurriyat uchun kurashga chorlagan kadrlar o'zboshimchalikda turli xil usullar bilan ayblanib, kommunistik partiyaning chizig'idan chiqmaydigan «kadrlar» tomonidan so'roq-tergovga tutilar, ma'naviy jihatdan badnom qilinlar, ba'zan esa hatto jismoniy mahv etilardi. Natijada bunday noxaqliklardan ogoh bo'lib turgan xalq butunlay umidsizlikka tushib, jamiyatga, partiyaga, siyosatga, davlatga ishonchi yo'qoldi. O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, « Hayotga befarq qarash, loqaydlik aksariyat ko'pchilikning yashash tarziga aylandi. «Sovet kishisi» o'z soyasidan cho'chib yashaydigan bo'lib qoldi. Chunki yuragining tubiga qo'rquv bilan qoziq qilib qoqilgan tobelik, mutelik tuyg'usi uni tirik murda holiga solib qo'ygan edi»².

Ma'muriy - buyruqbozlik tizimi iqtisodiy tanglik oqibatlarini barham toptirishda qat'iy chora-tadbirlar ko'rish borasidagi besamar urinishlar barobarida vaqtli matbuotda, radio, televidenie va shu kabi vositalar orqali sovet jamiyatining yil sayin «gullab-yashnayotganligi», mutlaqo «tangliksiz» holda rivojlanayotganligi haqidagi, KPSS tanlagan «sotsialistik taraqqiyot yo'lining to'g'riligi» kabi ilgaridan hammaga ma'lum bo'lgan aqidalar yangrashda davom etdi. Biroq sovet davlatining o'z xalqiga nafaqat moddiy boyliklar, balki ijtimoiy

¹ Ийманова Д. Ўзбекистонда совет тузумининг кадрлар сиёсати ва унинг оқибатлари. – Т.: “Янги аср авлоди” 2013. -Б.47

² Ўша асар, -Б.48-49

kafolat va erkinliklarni ham ta'minlashga qodir emasligi kun sayin ma'lum bo'lib bordi. Xalq xo'jaligining barcha sohalarida tanglik holatlari kuchayib bordi. Butun jamiyat ijtimoiy hayotida jiddiy o'zgarishlar qilish zarurligi yaqqol ko'rinib qoldi. Markaz M.S.Gorbachev boshchiligidagi yuqori partiya-sovet rahbariyati jamiyatda islohotlarni tezlik bilan amalga oshirish zarur, deb hisoblardi. 1985 yilning aprelida KPSS MQning plenumida sovet jamiyatini tubdan qayta qurish, uning barcha sohalarini chuqur isloh qilish yo'lini e'lon qildi. Qayta qurishning tarkibiy qismlari sifatida jamiyat hayotini demokratlashtirish va tub iqtisodiy islohotlar o'tkazish amal qilib olindi. Bu yillardagi partiya-hukumat hujjatlarida jamiyatni «turg'unlik» illatlaridan tozalashga, islohotlarni amalga oshirib, oddiy inson ehtiyojlariga alohida e'tiborni kuchaytirishga qaratilgan chaqiriqlar yangi kuch bilan yangradi. Kadrlar siyosatidagi eskirib qolgan shakllar va usullar, jamiyatda oshkora tanqidning, fikrlarning birlikda emasligi, hokimiyat bo'g'inlari va iqtisodiyotni boshqarishda demokratiyaning, markaz bilan milliy o'lkalar o'rtasida bir nisbatning yo'qligi, inson omilining yetarli darajada hisobga olinmaganligi qoralandi. Rahbar lavozimlarga saylashning muqobilligiga yo'l qo'yish, mahalliy sovet organlari vakolatlari kengaytirilishi, barcha sohalarda fikr erkinligi nazarda tutilib, davlat tizimini isloh qilishda ustivorlik milliy respublikalarga ko'proq mustaqillik berilishiga qaratilishi, qishloq xo'jalik va mineral xom ashyo ishlab chiqarishga ixtisoslashtirilgan respublikalarga markaz mavjud yakkapartiyaviylikning siyosiy va mafkuraviy hukmronligida ma'lum bir cheklashlarni amalga oshirishi zarur edi.

Biroq «qayta qurish» siyosati ham sotsializmga sun'iy ravishda qiyofa berganligini O'zbekiston prezidenti I.A.Karimovning: «Inqiroz sabablari va omillarini to'liq tasavvur etmagan, o'zgartirishlarning aniq-ravshan dasturiga ega bo'lmagan butun iqtisodiy siyosat empirik xarakterda bo'lib, avantyuradan iborat eksperimentlardan, har tomonga og'ishlardan boshqa narsa emasdi. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish va bozor munosabatlariga o'tishning turlicha yondashuvlarga asoslangan dasturlari loyihalarining ko'pligi islohotlarning aniq maqsadi

yoʻqligidan, ularni roʻyobga chiqarish muddatlari «besh yuz kun» deb belgilab qoʻyilishi esa zarur oʻzgartirishlarning tub mohiyati va nihoyatda murakkabligi toʻla anglab yetilmaganligidan dalolat berar edi»¹, taʼrifi uning mohiyatini ochib beradi.

Bugungi kunda maʼlumki, ijtimoiy, iqtisodiy, maʼnaviy sohalardagi koʻpgina muammolarning manbalari sovet siyosatining xato va nuqsonlariga borib taqaladi. Bu siyosat tor sinfiy yoʻnalishga ega boʻlgan markscha-lenincha taʼlimotga asoslandi. Prezident I.A.Karimov taʼkidlaganidek, «biz boshimizdan kechirgan sobiq mustabid tuzum davrida milliy maʼnaviyatni rivojlantirishga mutlaqo yoʻl qoʻyilmagan, aksincha, xalqimizning tabiati, yashash tarziga yot boʻlgan kommunistik mafkurani har qanday yoʻllar va zoʻravonlik bilan joriy etishga harakat qilingan. Shuning uchun ham, istiqlolning dastlabki kunlaridanoq bu sohadagi ahvolni tubdan oʻzgartirish yurtimizda eng dolzarb va hal qiluvchi vazifalardan biriga aylandi»².

Ushbu davr taxliliga doir tadqiqotlarga yoʻnalgan holda xulosa oʻrnida shuni taʼkidlash joizki, sovet davlatida yil sayin iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy hayot tarzi qanchalik chuqurlashib borsa, «kadrlar malaka»sini oshirish, mamlakatda sodir boʻlayotgan inqirozli holatlarni, oʻzgarishlarni, ularning ahamiyati va oqibatlarini «marksizm-leninizm» taʼlimotidan kelib chiqqan holda goʻyoki chuqur «anglab yetish» kabi holatlar chuqurlashib boraverdi. Mamlakatda kadrlar tayyorlash tizimi oʻzining tuzilishi va xususiyatlariga ega boʻlib, boshlangʻich siyosiy maktablar muntazam oʻqishga tayyor boʻlmagan tinglovchilar uchun yoʻnaltirilgan va ularga siyosiy, iqtisodiy bilimlar berildi. Tinglovchilarning bu guruhida kommunistik ahloq darajasi va asoslari boʻyicha ham taʼlim berish yoʻlga qoʻyildi. Oʻrta va oliy guruhdagi mashgʻulotlarga tayyor boʻlmagan tinglovchilarning oʻqishi tashkil etilib, ularga asosan partiya tarixi, siyosiy iqtisod, falsafa, ilmiy kommunizm

¹ Каримов И.А. Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисод, сиёсати, мафкура. 1-жилд. –Т.: “Ўзбекистон”, 1996, - Б.280–281.

² Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. –Т.: “Маънавият”, 2008, – Б. 4–5.

fanlaridan dars berildi. Oliy guruhdagi kadrlar tayyorlash tizimi esa asosan rahbar kadrlarni, ilmiy va badiiy yoʻnalishdagi ziyolilarni, xalq xoʻjaligidagi mutaxassislarni oʻqitishni tashkil etib, ularni oʻqitish mehnat va jamoa faoliyatlarini hisobga olgan xolda olib borildi. Biroq kadrlar masalasiga bunday yondashuv va usullar ular orasida ijtimoiy-iqtisodiy hayotga befarqlik bilan qarash, rejalarni qogʻozda bajarish bilan cheklanish holatlari kuchaydi.

II.BOB. Sovetlarning O‘zbekiston sanoatini ishchi kadrlar bilan taminlashdagi siyosati va uning oqibatlari

II.1. O‘zbekiston sanoatida mahalliy ishchi kadrlarning tayyorlanishi

Ikkinchi jahon urushi tufayli O‘zbekistonning sanoatida ma’lum yirik o‘zgarishlar bo‘ldi. Fashistlar Germaniyasi tomonidan mamlakatning katta hududlarining bosib olinishi O‘zbekistonning front uchun tayanch aslahaxonaga aylanishiga olib keldi. Respublikada qisqa muddatda o‘zbek xalqining katta mashaqqatli mehnati evaziga mamlakatning markaziy rayonlaridan ko‘chirilib keltiritgan 100 dan ortiq yirik sanoat korxonalari joylashtirilib, qisqa fursatda ishlab turgan korxonalar qatoriga qo‘shildi.

Urush yillarida O‘zbekiston sanoati mutaxassis va ishchilarining katta qismi frontga safarbar etilishi sanoatni va xalq xo‘jaligini og‘ir ahvolga soldi. Oqibatda urushdan keyingi yillarda respublikada ko‘pdan-ko‘p eski va yangi sanoat korxonalarida mutaxassislarga ayniqsa, ishchi kadrlarga katta ehtiyoj sezildi. Shu sababli ishchilarni tayyorlashga alohida e’tibor berilishi, ayniqsa, ularni mahalliy millat vakillari hisobidan ko‘paytirish muhim vazifa sifatida ko‘rilishi zarur edi. Bu paytda mavjud kadrlarning tarkibi xam sifatli bo‘lmay, respublika o‘quv muassasalarida ishchi zahirasi milliy kadrlarni tayyorlash muammosi mavjud edi. Masalan, 1944 - 1945 o‘quv yilida O‘zbekistondagi barcha FZT (fabrika-zavod ta’limi) maktablarida o‘zbeklar umumiy o‘quvchilarning 25% ini tashkil etgan bo‘lsa, 1945 yilda tayyorlangan 24737 ishchilardan 4181 tasi o‘zbeklar (17%) edi. Bu yillarda o‘zbek rahbar kadrlari ko‘rsatkichi ham og‘ir sanoatda - 14,5%, yengil sanoatda - 27% bo‘lgan 1945 yilda 23 ta FZT maktabi, 12 ta hunar maktabi, 3 ta temir yo‘l maktabi ishchi kadrlar tayyorlardi.

O‘zbekistonda urushdan keyingi davrning asosiy vazifalari xalq xo‘jaligini qayta tiklash va rivojlantirish bo‘lib, birinchi navbatda qishloq xo‘jaligi uchun kerakli asbob uskunalar, mashina texnikalari ishlab chiqarishni ko‘paytirishga yo‘naltirilgan sanoat tarmoqlariga katta e’tibor berildi. Sarflanadigan jami

mablag'ning deyarli yarmi og'ir sanoatga mo'ljallandi. Elektroenergetika, yoqilg'i va metallurgiya, ximiya sanoati, mashinasozlik, ayniqsa, qishloq xo'jaligi va yo'l-irrigatsiya mashinasozligi jadal sur'atlar bog'tan rivojlana boshladi. Sanoatni qayta tiklash va rivojlantirish ishchi kadrlarni son jihatdan ko'paytirishni taqozo etdi.

1946 yil sentyabr oyida «Hunar va texnika bilim yurtlarida hamda FZTda mehnat rezervlarini tayyorlashni yaxshilash choralari to'g'risida» qaror qabul qilindi. U paytda FZT maktablari sanoatning asosiy kadrlar etishtirib beruvchi ta'lim tizimi edi. Qarordan kelib chiqib, respublikada sanoat korxonalarini ishchi kadrlar bilan ta'min-lashga e'tibor kuchaytirildi, maktablarda o'quvchilarni mutaxassis qilish emas, balki ularning umumiy madaniy va siyosiy saviyasini oshirish ham belgilab qo'yildi. 1946-1950 yillar ichida O'zbekiston sanoat korxonalari uchun 74,1 ming ishchi tayyorlandi. Shulardan, hunar-texnika bilim yurtlarida 39,8 ming yosh ishchi kadr tayyorlanib, 28,5 ming nafari sanoatga, 7,5 ming kishi qurilishga, 3,5 ming kishi transportga, 300 kishi qishloq xo'jaligiga ishga yuborildi¹. Shu tufayli 1948 yil O'zbekiston zavod va fabrikalarida ishchilar 199,4 ming nafar, 1949 yil 207,9 ming nafar, 1950 yil esa 223,3 ming nafar kishiga yetdi. FZT maktablarida davlat mehnat rezervlari 40%, 1951-1955 yillarda esa 80% ishchi kadrlar tayyorlandi. 1950 - 1953 yillarda respublika oliygohlarida 16600 nafar yosh mutaxassislar tayyorlanib, shundan 5000 nafari (30%) mahalliy aholi vakillari, texnikum va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida 19000, shulardan 6200 (33%) nafari o'zbeklar edi². Shunga qaramasdan respublika sanoat va qishloq xo'jaligida mutaxassis kadrlar yetishmovchiligi mavjud edi. Bu davrda O'zbekistonning deyarli barcha viloyatlarida sanoat korxonalarining ishchi kadrlarga bo'lgan talabini qondirish uchun davlat rejalari qabul qilindi va mablag'lar ajratildi.

¹ Ийманова Д. Ўзбекистонда совет тузумининг кадрлар сиёсати ва унинг оқибатлари. – Т.: “Янги аср авлоди” 2013 –Б. 54

² Эргашева Ю.А. Культура Узбекистана: тенденция и проблемы развития. (50-60 е годы). – Т.: “Фан”, 1997, - С.125.

1954 yilda hunar-texnika ta'limi tizimi isloh etilib, u xalq xo'jaligining barcha sohalari uchun kadrlar tayyorlab beradigan bo'ldi. Shu yillar ichida mahalliy millat ishchilari barcha bitirib chiquvchilarning 28,8%i bo'lsa, 1955 yilda esa 62,8% ini tashkil etdi¹. Albatta, sanoat korxonalarini ishchi va mutaxassis kadrlar bilan ta'minlash uchun rejalarni qabul qilishning e'tiborli tomonlari mavjud bo'lsa-da, biroq ularning bir taraflama markaz manfaatidan kelib chiqib bajarilganligi oqibatida qamchiliklari bu yillarda ham yaqqol ko'zga tashlandi. Reja ketidan quvish natijasida tayyorlangan ishchi kadrlar sonini ko'paytirib ko'rsatish hollari yuz berdi. Bir qancha joylarning musobaqalarga berilib ketishdan ko'pincha ishning miqdoriga ahamiyat berilib, sifat e'tibordan chetda qoldi. Ishchi kadrlar esa moddiy va ma'naviy jihatdan deyarli rag'batlantirilmadi. Mehnatni ilmiy asosda tashkil etish ishlari etarli darajada rivojlanmadi.

1955 yil KPSS MQ iyul plenumi hamda O'zbekiston KP MQ VI plenumi sanoatni yanada rivojlantirish, unga fan va texnika yutuqlarini joriy etish masalasini muhokama qildi va chora-tadbirlar belgiladi. Sanoatda yangi texnikalarni ishlata olish uchun ishchilar malakasini oshirishga ajratiladigan mablag' miqdori oldingi yillarga nisbatan ancha oshirildi. 1955 yil kadrlar tayyorlash va malakasini oshirishga 37907,1 ming rubl ajratildi². 1950 yilda O'zbekiston xalq xo'jaligining barcha sohalarida mehnat qilayotgan ishchi va xizmatchilarning umumiy soni 853,1 ming, 1952 yilda 924,8 ming, 1953 yilda 947,6 ming, 1955 yilda 1077,6 ming nafar kishini tashkil etdi. Natijada O'zbekiston xalq xo'jaligida ishchilar va xizmatchilar soni 1945 yildagi 689,1 ming kishidan 1958 yilda 1 mln. 397,9 ming nafar kishiga yetdi³. Yangi sanoat korxonalarining ishga tushirilishi, eskilarining kengaytirilishi, mahsulotning yangi turlarini ishlab chiqarishning o'zlashtirilishi kadrlar sonini ko'paytirish bilan birga muhim o'zgarishlarni amalga oshirishni ham talab qildi. Ishlab chiqarishga yangi

¹ Совет Ўзбекистони ишчилар синфи тарихи. – Т.: “Фан”, 1974. – Б. 229.

² Ийманова Д. Ўзбекистонда совет тузумининг кадрлар сиёсати ва унинг оқибатлари. – Т.: “Янги аср авлоди” 2013 –Б 56

³ Совет Ўзбекистони ишчилар синфи тарихи. – Т.: “Фан”, 1974. – Б. 218

jihozlarning joriy etilishi, yangi usullarning qo'llanishi ishchilarning ilmiy-texnik bilim darajasini oshirishga turtki bo'ldi. Respublikada mutaxassislar tayyorlash miqdori yil sayin oshirib borildi. Shu jumladan, O'zbekiston sanoatida mahalliy millatga mansub ishchi va xizmatchilar 1953 yilda 32,9% bo'lsa, 1958 yilda ularning salmog'i 36,4%ga ya'ni umumiy soni 525,5 ming kishiga etdi. O'zbekistonning mahalliy millat ishchilari, jumladan, o'zbek, ishchilari miqdor jihatdan o'sib borayotganligini ta'kidlaganda sanoatning turli tarmoqlarida ularning miqdori turlicha ekanligini kuzatish mumkin. Jumladan, oziq-ovqat, yengil sanoat, to'qimachilik, gaz, neft sanoatida mahalliy millatga mansub ishchi va xizmatchilar 30% bo'lsa, kimyo, metallurgiya va ayrim boshqa sanoat tarmoqlarida mahalliy millat ishchilarining salmog'i oz bo'lgan.

1960 yillarda mahalliy millat vakillarini korxonalarga ishga jalb etish borasida ma'lum ishlar amalga oshirildi. Sanoat korxonalarini mahalliy ishchi kadrlar bilan ta'minlash maqsadida o'quv yurtlariga kirish uchun mahalliy yoshlarga birmuncha imtiyozlar berildi. Mahalliy millat vakillarining bir qismi korxonalarda malakali kadrlarga aylandilar. Biroq 1965 - 1969 yillarda umumiy ta'lim maktablarini sakkizinchi va o'ninchi sinflarini tamomlab, respublikaning sanoat korxonalariga ishga kirgan yoshlarning 20% i o'zbeklar bo'lishi, bu borada miqdorning hali ham pastligini ko'rsatardi. Chunonchi, 1960 yilda «Tashtekstil mash» zavodida umumiy ishlovchilar 4415 kishi bo'lsa, shulardan mahalliy aholi 435 ta, «O'zbekim mash» zavodida esa 3027 ishchidan 239 tasi mahalliy aholi, «O'zbeksel mash» zavodida 3027 ishchi kadrdan 460 tasi mahalliy ishchilar edi. Buning sababi yirik sanoat korxonalarida boshqa millatga mansub aholini ishga joylashtirishga e'tibor kuchli bo'lib, oqibatda mahalliy aholi asosan qishloq xo'jaligi tarmoqlari bilan shug'ullanishga majbur edi.

Ayni paytda markazdan O'zbekistonda ishchi kuchi tanqisligi bahonasida ko'plab ishchi kadrlar ko'chirib keltirildi. Dastlab markazning sanoat korxonalari bilan birga bu yerga ko'chib kelgan kadrlar ma'lum darajada mahalliy ishchi kadrlar tayyorlashda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Biroq keyingi yillarda

markazdan kadrlarni jo‘natish ko‘paydi. Jumladan, RSFSRdan 1961 - 1965 yillarda 115,3 ming nafar ishchi ko‘chirilgan bo‘lsa, 1966 - 1970 yillarda esa 66,4 ming nafar ishchi keltirildi. Sovet tuzumining maqsadi mintaqada ishchilar sinfining ko‘p millatli kadrlarini yetishtirishni bahona sifatida ko‘rsatib, o‘lkaning boy tabiiy resurslarini o‘z egalarining qo‘lida emas, balki o‘zlari ishongan kadrlar qo‘lida bo‘lsa o‘zlashtirish yanada tezroq amalga oshishini bilib, manfaatli rejalari asosida ish olib borgan. Misol uchun, Muruntov oltin koni 1969 yil ochilgandan keyin ishlashga asosan markazdan kadrlar jo‘natiladi, konda mutaxassislar aniqlashicha oltin zaxirasi qalinligi 400 metr bo‘lib, uning 200 metr qalinligi markazga qazib olib ketilgan¹. Bunday xolatlar bilan respublikada aholi tobora ko‘p millatli bo‘lib bordi. Sovet hokimiyati yillarida bunyod bo‘lgan sanoat markazlari, xususan, Chirchiq, Angren, Olmaliq, Bekobod, Navoiy, Zarafshon, Muborak kabi shaharlarda asosan boshqa millat vakillari, ya’ni mamlakatning turli mintaqalaridan ko‘chirib va ko‘chib kelgan ishchi kadrlar joylashdi. Shu tariqa respublikadagi sanoat shaharlar ham ko‘p millatli bo‘lib bordi. Masalan, ruslar eng avvalo shahar joylarda, ko‘p qismi Toshkent va Toshkent viloyatida, Buxoro, Samarqand va Farg‘onada ham ularning soni sezilarli darajada yuqori bo‘lgan. Respublikada yashovchi tatarlarning deyarli yarmisi Toshkent shahri va viloyatiga to‘g‘ri kelgan². Binobarin, ishchilar saflarini tub yerli millat kishilari hisobiga o‘stirish, ularni doimiy ish bilan ta’minlash respublika uchun ijtimoiy adolat nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega edi.

1966 yil 26 aprelda O‘zbekiston poytaxti Toshkentdagi zilzilaning oqibatida vayron bo‘lgan uy-joy, sanoat korxonalarini tiklash uchun Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Belorussiyadan katta hajmda ishchi kuchi O‘zbekistonga jo‘natildi. Ularning yordami bilan vayron bo‘lgan joylar qayta tiklandi, yanada ko‘rkam, kuchli, yangi Toshkent shahri barpo etildi. Biroq yordamga kelgan ishchi kuchlariniig asosiy qismi doimiy yashash uchun O‘zbekistonda qolib ketdi.

¹ Ийманова Д. Ўзбекистонда совет тузумининг кадрлар сиёсати ва унинг оқибатлари. – Т.: “Янги аср авлоди” 2013 –Б. 56-58.

² Ўзбекистон аҳолиси ва меҳнат ресурслари. –Т.: “Университет”, 1992, - Б. 14.

Ko'chirib keltirilganlarning ko'pchilik qismi ijtimoiy ahvoli bo'yicha ishchilar bo'lgan. Respublikada ortiqcha ishchi kuchi mavjud bo'lgan sharoitda ularning O'zbekistonga kelishini adolatli hol deb bo'lmasdi. Yana katta muammolardan, mehnat resurslari jadal o'sishyaning ko'proq qismi mahalliy millat aholisi xisobiga to'g'ri kelgan. Biroq ma'muriyat tomonidan bu kabi yirik muammolar e'tibor-ga olinmay, chetdan ishchi kuchi olib keltirishni davom ettirdi. Shu bois mahalliy aholi orasida ishchilar tayyorlashning sifatini yaxshilash va miqdorini kengaytirish zarurati yetilgan yirik muammolardan bo'lib qolaverdi.

Respublika ishchi kadrlarining 40%dan ko'prog'i og'ir sanoat tarmoqlarda hamda sanoatning bevosita paxtachilik bilan bog'liq tarmoqlarida to'plandi. Bu stalincha sanoatlashtirish va ommaviy jamoalashtirish paytidayoq respublika sanoatning hududiy joylashtirishda milliy xususiyatlarni hisobga olmay, mustamlakachilik andozasiga asos solinganligini ko'rsatardi. Amalda bu siyosat mahalliy aholi bilan boshqa millat aholisi o'rtasidagi o'ziga xos mehnat taqsimotini belgilab berdi. Mahalliy aholi bandligi paxta yakkaxokimligi sabab qishloq xo'jaligida ko'pchilikni tashkil etdi. Ko'chirib kelinganlar asosan shaharlarda, avvalo, og'ir sanoatning muhim tarmoqlarida va aqliy mehnat sohasida, ya'ni yaxshi maosh to'lanadigan jabhalarda mehnat qilishdi. Ayni bir vaqtda tuzum siyosatida mahalliy kadrlar faoliyati ustidan doimiy nazoratning yangi shakllari yuzaga keltirilib, ularning mustaqil ishlash imkoniyatlarini cheklab qo'ygandi.

Ittifoq miqyosidagi korxonalarga mahalliy millat vakillarini ishga qabul qilish, maosh belgilash, ulardan malakali ishchilarni tayyorlash uchun zarur bo'lgan ishchi kuchini ham markaz belgilab bergan. Markaziy Osiyo respublikalari uchun sanoatga malakali ishchi kadrlarni tayyorlashdan manfaatdor bo'lmagan. Ta'kidlash joizki, markazdagi ishlab chiqarish korxonalari tashkilot va idoralaridagi xodimlar bilan O'zbekistondagi xodimlarning ish xaqi bir-biridan keskin farq qilgan. Hatto O'zbekistonning o'zidagi ittifoq tasarrufida bo'lgan 497 korxona bilan mahalliy korxonalarda ishlaydigan ishchilarning oladigan oylik

maoshlari o'rtasida katta farq bo'lgan. Jumladan, 1950 yilda ittifoq tasarrufidagi korxonalar ishchilarining ish xaqlari 133 foiz oshgani holda, respublikaga qarashli korxonalardagi xodimlarning ish xaqlari faqat 73 foizga oshgan. Ittifoq bo'yicha bunday maqsadlar uchun (davlat va jamoa xo'jaliklar) har bir kishiga bir kun ishlaganiga 9 rubl 30 kopeekdan sarflagan bo'lsa, bu respublikalar uchun 4 rublga yaqin mablag' ajratilgan¹.

1960-1970 yillarda respublika sanoatining rivojlanishi paxtachilik va qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlarini kuchaytirish bilan birga geologlarning yangi kashfiyotlari tufayli tabiiy gaz hamda rangli metall rudalari zaxiralarining aniqlanishi asosida O'zbekistonda butunittifoq ahamiyatiga ega bo'lgan yangi sanoat majmualari barpo etildi, yoqilg'i-energetika bazasi rivojlandi, yirik issiqlik elektr stansiyalari qurildi. Bularning barchasi mehnatning energiya bilan ta'minlanishini yaxshilashga va sovet tuzumining rejasiga asosan yoqilg'i iste'mol qilishning umumiy hajmida tabiiy gaz salmog'ining ko'payishi hisobiga O'zbekiston Ural va Markazning bir qator rayonlarini yoqilg'i balansini bilan ta'minlashi kerak edi. Mashinasozlik ishlab chiqarish hajmi oshib bordi va mashina, mexanizmlar majmuini yanada kengaytirdi. Ishchilarning madaniy-texnik saviyalarini oshirib borish zamonning muhim talablari bo'lib bordi. Sanoat tarmoqlari rivojlanib borgan sari zamonaviy texnikalarda ishlash uchun ularda amaliy ko'nikma hosil qilib borish lozim edi. Sanoat korxonalari bevosita bunda muhim ahamiyat kasb etdi. CHunonchi, Toshkent viloyatida har yil sanoatga kelib qo'shilayotgan malakali ishchilarning deyarli 3/4 qismi sanoat korxonalarida tayyorlandi. 1958 — 1962 yillar ichida 116 mingdan ziyod ishchi o'z malakasini oshirdi, 80 ming nafar ishchi yangi ixtisosliklarni egalladi. Ishchilarning malakasini rejali va izchil ravishda oshirib borishda ilg'or tajriba maktablari, muayyan maqsadlarga qaratilgan kurslar, ishlab chiqarish texnika kurslarida o'qitish, ishchilarning ikkinchi kasbni o'rganishi va boshqa usullar orqali amalga

¹ Жўраев Н., Каримов Ш. Ўзбекистон тарихи. Ўзбекистоннинг янги тарихи маркази. –Т.: „Шарқ“, 2011, - Б.572.

oshirildi. Bular ichida muayyan maqsadlarga qaratilgan kurslar va ishlab chiqarish texnika kurslari bo'lib, 1958 — 1962 yillar ichida bu kurslarda respublika sanoati ishchilarining 60%i o'qib malakasini oshirdi. Bu usul ishchilarning malakasini oshirib borish imkonini bergan. Shu sababli ishlab chiqarish-texnika kurslarining ahamiyati muttasil oshib bordi.

Xalq xo'jaligi uchun kadrlar tayyorlashda hunar-texnika bilim yurtining o'rnini alohida bo'lgan. 1959 yildan 1962 yilga qadar ushbu o'quv yurtlari turli ixtisosdagi 43 mingdan ortiq ishchi kadrlarni reshublika sanoatining etakchi tarmoqlariga yo'lladi. Bu o'quv yurtlari, asosan, kimyogar, neftchi, energetik, metallurglarni tayyorlardi. 1959-1965 yillarda hunar-texnika ta'limi tizimida ishchi kadrlar tayyorlash ikki marta, bevosita ishlab chiqarishda malakali ishchilar tayyorlash esa 1,2 marta ko'paydi. Biroq kadrlar qo'nimsizligi, ya'ni staji kam ishchilarning (18-25 yoshdagi yigit va qizlar) ishdan bo'shab ketish hollari yuqori bo'lgan. Sababi, ko'p hollarda korxonalar yosh ishchi kadrlardan o'z ixtisosligiga muvofiq foydalanmagan, ularni qoniqtiradigan ish berilmagan hamda kadrlarning malakasini oshirish va o'qishini davom ettirish to'g'risida yetarli g'amxo'rlik qilinmadi.

1965 yilda O'zbekistonda 54 shahar, 36 qishloq hunar-texnika bilim yurtlari va 2 industrial-pedagogika texnikumi bo'lgan. Ular 112 ixtisoslik bo'yicha ishchi va qishloq mexanizatorlari tayyorlardi. 1966 yilda 22 ming nafar, 1967 yilda 31,7 ming nafar, 1968 yilda 37,8 ming nafar, 1969 yilda 39,5 ming nafar, 1970 yilda 41,8 ming nafar ishchi tayyorlandi. Natijada 1959 yilda xar 1000 nafar kishiga 354 oliy va o'rta maxsus (to'liq va to'liqsiz o'rta) ma'lumotli kishi to'g'ri kelgan bo'lsa, 1970 yilda bu ko'rsatkich 458 nafar kishiga etdi. Bilim yurtlari o'quvchilari umumiy sonida sanoat ishchilari atigi 19% ni tashkil etdi. Qolgan qismi esa qishloq xo'jalik sohasiga tegishli edi. Respublika xalk xo'jaligi tarmoqlarida band bo'lgan ishchi va xizmatchilarning o'rtacha yillik soni 1960 - 1970 yillar ichida 1 million 122,5 ming nafar kishiga ko'paydi. 1965 yilda xalq xo'jaligida band bo'lgan umumiy ishchilar soni 2 mln. 115 ming nafar kishini, shu jumladan, sanoatga

tegishli ravishda 299,2 ming va 481,9 ming kishini tashkil etdi. Biroq elektr energetikasi, rangli va qora metallurgiya, engil sanoat, mashinasozlik va boshqa tarmoqlar uchun ishchi kadrlar kam tayyorlanmoqda edi. Respublikada hunar-texnika bilim yurtlari malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojni to'la qondirmagan, o'qitish sifati zamonaviy ishlab chiqarish talablaridan orqada qolayotgan, tarmog'i yaxshi rivojlanmagan, murakkab kasbdagi ishchilar tayyorlash juda sekin amalga oshirilgan. Bu davrda hunar-texnika bilim yurtlarida malakali pedagog kadrlar ham yetarli bo'lmagan. Masalan, 1965 yilda ishlab chiqarish ta'limi ustalarining atigi 45 foizi o'rta, 3 foizdan ozrog'i oliy ma'lumotga ega bo'lgan. Bu esa yosh ishchi kadrlarni tayyorlashda samarali natijalarni bermasdi. Bundan tashqari hunar-texnika o'quv yurtlarida ishchi kadrlar tayyorlashni kengaytirish bilan birga ishchilarni bevosita ishlab chiqarishda tayyorlash va ular malakasini oshirishga e'tibor berish uchun 1968 yilning oktyabrida SSSR Ministrlar Sovetining mehnat va ish haqi masalalari bo'yicha Davlat komiteti, SSSR Ministrlar Sovetining hunar-texnika ta'limi bo'yicha Davlat komiteti bevosita ishlab chiqarishda ishchi kadrlar tayyorlash to'g'risidagi Nizomni tasdiqladi. Respublikada xalq xo'jaligini malakali ishchi kadrlarga nisbatan ortib borayotgan talabni qondirishda ularni bevosita ishlab chiqarishda tayyorlash hunar-texnika o'quv yurtlariga qaraganda 3,5-4,5 baravar ko'p ishchi kadrlar tayyorlana boshladi. Bevosita ishlab chiqarishda ishchi kadrlar tayyorlashning asosiy turlari individual, brigadalarga bo'lish va maxsus kurslarda o'qitish kabi turlari mavjud edi. Bu o'qitish ishlab chiqarishdan ajralmagan xolda amalga oshirilib, keyingi yillarda tizimda jiddiy kamchiliklar borligi ko'rindi. Yani yoshlar individual yo'l bilan o'qitilganda zarur ishlab chiqarish malakasiga ega bo'lmagan hamda ularning nazariy bilim olishlarida etarli darajada izchillik ko'rinmadi. Respublikaning ko'pgina korxonalarida o'qitish qoniqarli tashkil qilinmadi, tayyorlov muddatlari juda qisqa bo'lgan. Albatta, o'qitish uchun ishdan ozod qilinmagan ishchi-instruktor ko'pinchi o'z o'quvchisiga yetarli e'tibor bera olmaydi, natijada malakali ishchi o'rniga ayrim usullarni biladigan, tor ixtisosli ishchi tayyorlanardi. Bu

kamchiliklarning oldini olish uchun hunar-texnika ta'limi tizimida kadrlar tayyorlashni takomillashtirib, zamon talablariga moslashtirish zarur edi.

1973 yil 12 fevralda bo'lib o'tgan O'zbekiston KP MQning plenumida milliy ishchi kadrlarni jadal sur'atda yetishtirish masalalari ko'rib chiqilib, ayniqsa ishlab chiqarishning yetakchi tarmoqlari bo'lgan mashinasozlik, kimyo va gaz sanoati uchun ishchi kadrlarni tayyorlash sohasidagi ishlarni yaxshilash zarurligi ko'rsatildi. Biroq sovet hukumatining O'zbekistondagi mehnat resurslaridan yaxshiroq foydalanish, sanoat va qurilishdagi ishlarga mahalliy aholini jalb etish kabi talablarida o'z manfaati ustunligicha qoldi. Mahalliy ishchilarning soni ko'proq og'ir, ishlash sharoiti qiyin bo'lgan sohalarda oshirilib borildi. Bundan ko'rinadiki, milliy ishchi kadrlarni shakllantirish va rivojlantirishda jiddiy xatolarga yo'l qo'yilgan. Ularning sanoatdagi umumiy hissasi barcha boshqa millat vakillarining yarmidan kamini egallardi. 1946 – 1980 yillarda respublikada mavjud mehnat resurslarini ijtimoiy ishlab chiqarishga jalb etish, mahalliy millat vakillaridan ishchi kadrlar tayyorlash masalalari amalda sust bajarildi. Chunonchi, ishchilar orasida o'zbeklar salmog'i 1970 yillarda to'qimachilik sanoatida - 44,8%, neft qazish sanoatida - 34,1%, qora metallurgiyada - 29,1%, neftni qayta ishlashda - 23,7%, ximiya va neft ximiyasida — 18,9%, mashinasozlik va metallga ishlov berishda — 14,9%, rangli metallurgiyada — 11,2% edi¹⁶⁵. 1971 yilda respublika xalq xo'jaligi tarmoqlarida band bo'lgan diplomli mutaxassislar 546,4 mingni tashkil etib, shulardan, 261,9 ming mutaxassis oliy, 284,5 ming kishi - maxsus o'rta ma'lumotli edi. 1971 - 1976 yillarda 355,9 ming yigit-qiz bilim yurtlarini tugatib, xalq xo'jaligi tarmoqlariga yo'llanma oldilar.

II.2. Sovetlarning mahalliy ishchi kadrlarga munosabati va markazdan kadrlar jo‘natish siyosati

1970-1980 yillarda ham xalq xo‘jaligining barcha tarmoqlariga kadrlar jalb etildi va ishchi xizmatchilar soni 2641,5 mingdan 4833,5 mingga ko‘paydi. Biroq bu o‘sinh sun‘iy ravishda, ya‘ni respublikaga tashqaridan ko‘plab ishchilarni ko‘chirib keltirish hisobiga ham ro‘y berdi.

Respublika sanoatini rivojlantirish sohasida yo‘l qo‘yilgan jiddiy kamchiliklar milliy ishchi kadrlar tayyorlash ishiga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Yirik shaxarlarda aholi uchun yangi sanoat korxonalari jadal sur‘atlar bilan barpo qilindi. Misol uchun, birgina Toshkent shahrida 1971 — 1975 yillarda 15 ta korxona qurildi. 1970 yillarning oxiriga kelganda shaharda hammasi bo‘lib 400 dan ortiq sanoat korxonalari va birlashmalari mavjud edi. Bu korxonalar O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlari umumiy hajmining 1/3 qismini etkazib bergan. Umuman ta‘kidlaganda respublikadagi sanoat korxonalarining 50%i Toshkent shahri va viloyati hududida joylashgan bo‘lib, bu korxona ishchilarining atigi 1/3 qismi tub millat vakillari bo‘ldi. Aholi tarkibida ishchilar soni o‘sganligiga qaramay O‘zbekistondagi ko‘rsatkich sovet respublikalari orasida 1979 yilgi ma‘lumotlarga ko‘ra 13-o‘rinda turgan. O‘zbekistonda ayniqsa milliy ishchi kadrlar salmog‘i sezilarli kam bo‘lgan. Bu muammoni hal qilish uchun jiddiy tadbirlar va tegishli qarorlar qabul qilinsada, milliy kadrlarni ayrim tarmoqlar bo‘yicha taqsimlash notekis bo‘ldi. Rasmiy hujjatlarda nomiga ishchilar tarkibida tub yerli millat vakillari ko‘proq bo‘liishi zarurligi ta‘kidlandi. Biroq amalda bu muammo yarim chala bajarildi. O‘zbekistonda qishloqdagi yoshlarning sanoatga va xalq xo‘jaligining boshqa tarmoqlariga kelishi juda sekinlik bilan kechdi. Masalan, 1968 yilda ishga joylashtirilgan barcha yoshlar va o‘smirlardan 36%i, 1970 yilda 43%i jamoa xo‘jaliklarida ishlash uchun qolgan. Bu esa sanoatda ishga joylashtirilgan yigit va qizlardan 1,9 baravar ko‘p deganidir. Ta‘kidlash kerakki, jamoa xo‘jaliklarida ishga joylashtirilgan 18 yoshgacha bo‘lgan yigit va qizlardan 68%i o‘rta va to‘liqsiz o‘rta ma‘lumotli bo‘lgan. Respublikada mahalliy

aholining asosiy qismi qishloq joylarda yashar va uning aksariyati dehqonchilikda band edi. Shu vaziyatda dehqonlarning bir qismini industrial tarmoqlarga qayta taqsimlash respublika ishchilar tarkibida milliy kadrlar salmog'ini oshirishning asosiy shartlaridan biri edi. Bunday usuldan foydalanish 1970 yillarda ma'lum darajada amalga oshirildi va keyingi yillarda bu ko'rsatkich biroz o'sdi. Sanoat ishchilar safiga kelgan qishloq aholisi o'zlarining ijtimoiy ahvolini o'zgartirib qolmasdan, ularning aksariyati malakali ishchilar bo'ldi. Jumladan, 1983 yillarda o'zbek ishchilar salmog'i biroz ko'paydi va bu ko'rsatkichning o'sishi barcha tarmoqlarda yuz berdi. Sanoatda - 51,7%ga, qurilishda - 46,5%, transportda - 38,6%, aloqada - 40,8%ga yetdi. Engil sanoatda o'zbek ishchilari ko'proq - 65,7%, oziq-ovqat sanoatida - 59%, neft qazib chiqarishda - 55,2%da bo'lsa, rangli metallurgiyada — 31,4%, mashinasozlik va metallni qayta ishlash sohasida - 25,2%, kimyo va neft kimyosida - 24,9% bo'ldi. O'zbeklar respublikadagi jami ishchilarning - 45,7% ini, ayni paytda jami aholining 68,7% ini egalladi. Bundan ko'rinadiki, ishchilar tarkibida mahalliy aholi vakillarining salmog'i ularning respublika aholisi tarkibidagi salmog'idan past edi.

Ishlab chiqarishning sanoat tarmoqlari o'rtasida mehnat resurslarini taqsimlashdagi nomutanosiblik eng avvalo respublikada ishlab chiqaruvchi kuchlarning notekis joylashganligi bilan ham bog'liq bo'lgan. Masalan, Toshkent viloyatida xalq xo'jaligida band bo'lgan har 1000 kishiga 80 ishchi to'g'ri kelgan holda Surxondaryoda bu ko'rsatkich 20 taga to'g'ri kelgan, uning ham uchdan ikki qismidan ko'prog'i sovxoz ishchilari bo'lgan. O'zbekistonning asosiy aholisi tub yerli millat vakillaridan bo'lgan ba'zi tumanlarda ishchilar orasida ular ko'pchilikni tashkil etsa, boshqa tumanlarda tub erli aholi vakillari boshqa millat va elatlar o'rtasida taqsimlangan joylarda ularning soni kam bo'lgan. Masalan, Farg'ona vodiysining aksariyat sanoat korxonalarida o'zbek ishchilari salmog'ining miqdori 40-60% o'rtalarida bo'lsa, Toshkent viloyatida 20-23%dan oshmagan. Sababi og'ir sanoat tarmoqlari yuksak rivojlangan respublika

shaharlarida joylashgan bo'lib, u erda ishlovchilarning asosiy qismi boshqa millat vakillari bo'ldi.

Mahalliy ishchi kadrlarning sanoat korxonalarida kamchilligi ko'pgina rahbarlar markaz chizig'idan chiqmagan holda bu yillarda ham mahalliy yoshlar orasidan ishchilar tayyorlash bilan astoydil shug'ullanmay, o'zlari uchun yengil, lekin mahalliy aholining ish bilan ta'minlash muammosini keltirib chiqaradigan yo'ldan borib, boshqa respublikalardan tayyor kadrlar keltirish yo'lini davom ettirdilar. Ko'proq markaziy idora rahbarlari bu ishga astoydil kirishib, o'zlarining asosiy maqsadlarini amalga oshirish uchun harakat qildilar. Mamlakatda ortiqcha mehnat kuchlari mavjud bo'lgan holda boshqa mintaqalardan minglab ishchi va xizmatchilar ishga taklif etildi. Xususan, birgina Toshkent shahrida 1985-1986 yillarda mehnat resurslarining ortiqchaligi 200 ming kishiga yetishiga qaramay, yangi ishlab chiqarish, mehnat jamoalarini shakllantirish uchun respublikaga tashqaridan 125 mingga yaqin ishchi, mutaxassislar RSFSR, Belorussiya va Ukrainadan jalb etildi. Vaholanki, O'zbekiston va O'rta Osiyo olimlari ittifoqning janubiy rayonlaridan O'rta Osiyo respublikalariga, shuningdek, O'zbekistonga ham mehnat resurslari keyingi yillarda ko'plab olib kelinganligini ta'kidlab, endi ko'plab ish o'rinlarini faqat tub aholi hisobiga to'ldirish takliflarini kiritgandi. Biroq bunday takliflar ko'pincha rad etilib, qo'pol yondashuvlarga yo'l qo'yildiki, qishloqlardan ish so'rab sanoat korxonalariga kelgan mahalliy aholi malakasiz va ko'p bolaligi ro'kach qilinib, ko'p hollarda ishga qabul qilinmadi. Vaziyat og'ir bo'lib turgan bir paytda respublikada ishsizlar sonining yanada ortishiga, mahalliy aholi uchun katta muammo bo'lib turgan uy-joy masalalari va boshqa ijtimoiy vaziyatlarning keskinlashishi sabab bo'ldi. Rahbariyat bu muammolarga turli bahonalar topdi. Sanoattyug zamonaviy tarmoqlaridagi mehnatga o'zbek xalqi go'yo to'g'ri kelmasligi va shu munosabat bilan ko'p yoshlar ishsiz yurganligi haqida asossiz mulohazalar keng tarqaldi. Darhaqiqat, respublikada 80-yillar oxirida bir millionga yaqin ishsiz mavjud edi. Ishsizlar, ya'ni mehnatga layoqatli aholining rasman ish bilan band bo'lmagan qismi deb atalganlar orasida 16-29

yoshgacha bo'lganlar 1970 yilda 33,5%, 1979 yilda 46,7%, 1986 yilda 50% dan ziyodroqni tashkil etdi. Biroq buning sababi ularning ishlash ishtiyoqi yo'qligida emas, balki markazning maqsadli yo'naltirgan siyosati tufayli, qolaversa ba'zi mahalliy mutasaddi rahbarlar tomonidan ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning zamonaviy usullari yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, ularning ish joylari, turar joylari, bolalar bog'chalari kabi muammolarini ta'minlash imkoni yetarlicha yaratilmaganidan ham edi.

Sovet rahbariyati, milliy kadrlar o'z yurti manfaatini ko'proq o'ylashi, uning yanada ravnaq topishi uchun qayg'urishdan xavsirardi. Har bir millatning o'z yurtida g'ururi, milliy his-tuyg'ulari boshqalarga nisbatan kuchliroq bo'ladi. Shu sabab milliy kadr tayyorlash muammosiga yetarli e'tibor qaratilmadi. Natijada milliy kadr salmog'i bazi korxonalarda juda kamayib ketdi. Jumladan, «Navoiyazot» ishlab chiqarish birlashmasida kadrlar masalasida ishga qabul qilinayotganlarning milliy tarkibiga e'tibor berilmasdan kelinganligi oqibatida 1980 yillar o'rtalarida umumiy ishchilar sonining 26,3 foizini mahalliy kadrlar tashkil etdi. Sanoat korxonalarini kadrlar bilan ta'minlash siyosatida ko'pgina kamchiliklarga yo'l qo'yildi. Tadqiq etilayotgan davrda mahalliy aholining asosan texnikaviy jihatdan mukammal bo'lmagan, avtomatlashtirish darajasi past bo'lgan ijtimoiy ishlab chiqarishning an'anaviy tarmoqlarida to'planganligi, fan-texnika taraqqiyotini belgilab beradigan sohalarida kam sonli ekanligi markaz amalga oshirib kelgan kadrlar siyosatida kamchiliklar ziyodligini namoyon qildi. Xususan, 1985 yildan keyin ishchilar sinfining industrial milliy kadrlari asosan entil (67,5%) va oziq-ovqat (59%) sanoatida to'plangan edi. O'zbek ishchilari og'ir sanoat tarmoqlarida deyarli kam bo'lgan. Masalan, rangli metallurgiyada ularning soni 31,4%ni, mashinasozlik va metallga ishlov berish tarmoqlarida - 32,3%, kimyo va neftkimyo tarmoqlarida - 35,2%, energetikada - 46,1% edi. Ko'pgina korxonalarda, ayniqsa, ittifoqqa bo'ysunuvchi korxonalarda bu ko'rsatkichlar yanada pastroq bo'lib, misol uchun, «Podyomnik» zavodida 80-yillarda mahalliy

millat vakillari umumiy ishlovchilar sonining 10%iga, Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida 12,8%, Toshkent traktor birlashmasida 13,1% ga teng edi¹.

Sovet hokimiyatining boshqaruv siyosatida markazning respublikaga mustamlakachilik-iste'molchilik munosabatida bo'lganligi, o'lkani muntazam ravishda ruslashtirib borish siyosati ta'siri edi. Sanoat korxonalarida umuman shahar sharoitida rus tilining ustunligi tilni yaxshi bilmaydigan, qishloqdan kelgan yigit-qizlarning industrial kasblarni egallashlarida qo'shimcha qiyinchiliklar tug'dirdi. Bu, ayniqsa, yangi, murakkab ixtisoslar bo'yicha ishchilar tayyorlashda yaqqol bilindi. Ishlab chiqarishda kadrlarni o'qitish asosan rus tilida olib borilganligi, murabbiylarning ham ko'proq rus tilida muomala qilishlari qishloq yoshlarini bu erga kelib ishlashdan cho'chitardi.

1980 yillarda respublikaning 5% hududida butun sanoati salohiyatining 65%dan ko'prog'i to'plangandi. Sanoat obyektlari odatda yirik shaxarlarda qurildi. Masalan, mustaqillik arafasida Toshkent va Toshkent viloyatida O'zbekiston sanoat bazasining deyarli yarmi to'plangan edi. Markaz o'lkadagi ijtimoiy demografik vaziyatni e'tiborga olmadi. O'rta Osiyodagi barcha respublikalar singari, bu erda qishloq aholisining salmog'i yuqori, tabiiyki, mehnatga yaroqli ish kuchining ko'pchiligi, aniqrog'i uchdan ikki qismidan ziyodi qishloqda joylashgan. Xorazm, Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax viloyatlari va Farg'ona vodiysida bu ko'rsatkich 70-75% ga, umuman O'zbekiston bo'yicha 58%da bo'lgan. O'zbekistonda sanoat ishchilari sonida qishloq aholisi ko'payib borsa-da, mahalliy aholining yuqori darajada tabiiy o'sishi tufayli ish kuchi zahirasi ham ortib borgan. 1959 - 1980 yillarda O'zbekistonda mehnat resurslarining miqdori 25%ga o'sgan bo'lsa, ittifoqda esa bu ko'rsatkich 9% ga o'sgan. Bu esa yangi korxonalar barpo etish, malakali mahalliy kadrlarni ko'paytirish, ularni ish joylarga muvofiq joylashtirishni talab qilgan.

¹ Ийманова Д. Ўзбекистонда совет тузумининг кадрлар сиёсати ва унинг оқибатлари. – Т.: “Янги аср авлоди” 2013 –Б. 71-74.

1980 yillar boshida korxona va hunar-texnika bilim yurtlarining shartnoma tizimiga o'tishi ishchi kadrlar tayyorlash ko'lamining qisqarishiga olib keldi. Hunar-texnika bilim yurtlar soni oshgan bo'lsa-da, respublikaning tobora o'sib borayotgan ehtiyojlarini qanoatlantira olmayotgan, ya'ni malakali ishchi kadrlar tayyorlash sur'ati va saviyasi jihatidan respublika mamlakat bo'yichi o'rtacha ko'rsatkichlardan ham orqada edi. Ko'pgina bilim yurtlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda jiddiy kamchiliklar mavjud edi. O'quvchilarning nazariy va amaliy bilim saviyalari past bo'lib, moddiy baza yaxshilanishi zarur bo'lgan. Hunar maktablarinint asbob-uskunalar bilan ta'minlanishi 55%dan oshmagan, mavjud uskunalarining 60% dan ko'prog'i eskirgan va yaroqsiz holga kelgan. Shu bilan birga bu davrda ko'pgina o'quv yurtlar binolari ta'mirga muhtoj holatda bo'lgan. Ularni zamon talablariga mos tarzda ta'mirlashga mamlakatning mablag'i etarli bo'lsa-da, rahbariyat ta'mir ishlarini har yili nomigagina bajartirgan. Masalan, 1980-1985 yillarning o'tgan uch yili mobaynida hunar-texnika qurilishi va ta'mirlanishi uchun davlat tomonidan 66,5 mln. rubl ajratilgan bo'lsa-da, amalda 51,5 mln rubl o'zlashtirilgan.

80-yillarning o'rtalarida o'lkamiz milliy aholisi orasidagi ishsizlarning o'rtacha yillik miqdori 1 mln. kishidan ortiq bo'ldi. Ular orasida 50%dan ortig'ini yoshlar tashkil qilardi. Qishloq tumanlarida bu ko'rsatkich bundan ham yuqori edi. Ishsizlar soni ana shunday ko'p bo'lgan sharoitda ish kuchini to'xtovsiz chetdan keltirish davom etardi. Masalan, 1981 – 1985 yillarda Toshkentda ish bilan band bo'lmagan mexnatga qobiliyatli o'rtacha 200 mingdan ortiq kishi bor bo'lgani xolda, yangi ishga tushirilgan korxonalarga 125 mingga yaqin ishchi va mutaxassislar RSFSR, Belorussiya va Ukrainadan jalb qilindi.¹

Xalq xo'jaligida o'zbeklarning salmog'i 1980 yillarda umumiy ishchilar salmog'ida - 50%, xizmatchilar - 18%ni tashkil qildi. Buni boshqa respublikalar ko'rsatkichi bilan solishtirganda O'zbekistonda tub millatga mansub ishchilar

¹ Tarix shohidligi va saboqlari: chorizm va sovet mustamlakachiligi davrida O'zbekiston milliy boyliklarini o'zlashtirilishi. Loyiha raxbari, mas'ul maharrir D.A.Alimova. –T.: “Sharq”, 2001 215 -bet

salmog'ini kamligi kuzatiladi. Bu ko'rsatkich 1979 yilda olingan aholi ro'yxatiga binoan ruslarda - 63%, 31%, qozoqlarda - 64%, 28%, qirg'izlarda - 56%, 20%, tojiklar-da - 55%, 15% ni belgilagan. Bunda tub erli aholining sanoat ishlab chiqarishda o'sib borishi sekinlashganini ko'rish mumkin. Buning sabablaridan biri, ijtimoiy ishlab chiqarishda mahalliy aholi salmog'ining ozligi bo'lib, ma'lumotlar bo'yicha, mehnatga layoqatli o'zbeklarning xalq xo'jaligidagi hisssasi shu millatga mansub jami aholining 37,2% ini tashkil etgan. Zero, O'zbekistonda yashovchi ruslarning - 53,9%, tatarlarning - 52,5%, koreyslarning -51,1%i xalq xo'jaligida mehnat qilgan. Yana bir muhim tomoni tub yerli aholining tarmoqlar bo'yicha notekis taqsimlanganligidan, uning ko'p qismi yuqorida ta'kidlanganidek, qishloq xo'jaligida band bo'lgan. Sanoat tarmoqlari kengaygan sari mutaxassislar va ishchilar soni ko'payib bordi. Ularning orasida o'zbek va boshqa mahalliy millatlar vakillarining salmog'ini ortdi. Biroq shu bilan birga, ko'pgina sanoat korxonalari ishga tushirilishi arafasida respublikaga SSSRning markaziy mintaqalaridan mutaxassis va ishchilarning olib kelishi keng qo'llanilgan. Umuman sovet davlati hukmronligi yillarida mahalliy aholi yirik sanoat ishlab chiqarish jabhalaridan ma'lum darajada begonalashtirilib kelindi. Sanoatlashgan hududlar ataylab mahalliy aholining juda kam ishtiroki bilan asosan, sobiq ittifoqning markaziy mintaqalaridan ishchilar jalb qilish hisobiga tashkil etildi va rivojlantirildi. Masalan, 1989 yilda xalq xo'jaligida band bo'lganlarning soni 5,3 mln. kishi bo'lib, sanoat ishlab chiqarishdagi o'zbeklarning salmog'ini atigi 0,7 mln. kishini tashkil etdi.

Xulosa o'rnida xalq xo'jaligining tarmoq strukturasiida respublika iqtisodiyoti bir tomonlama kengayib ketganligini ko'rish mumkin. Ahvol shunday bo'lib qolgandiki, qishloq xo'jaligida paxta yakkahokimligi bilan bir qatorda unda o'z mahsuloti bilan asosan agrar sektorni ta'minlaydigan tarmoqlar ustunlik qildi. Mintaqa sanoatining nomukammalligi tub yerli aholining ijtimoiy tarkibiga, sanoatning an'anaviy tarmoqlarida jamlanishiga ta'sir qildi hamda fan-texnika taraqqiyotini belgilaydigan tarmoqlarda ularning nihoyatda kam bo'lishiga olib

keldi. Mahalliy kadrlar ko‘proq an’anaviy sohalarga, ya’ni engil sanoat, oziq-ovqat kabilarga jalb etilgan. Tub yerli axoli ham fanga asoslangan ishlab chiqarishlarga ko‘proq jalb etilganda ularning madaniy-texnik saviyasini yanada oshirib bo‘lib, korxonalarda malakali ishchi kuchlarning o‘rnini chetdan kelgan kadrlar bilan emas, balki mahalliy kadrlar bilan to‘ldirish mumkin bo‘lar edi. Hamda mahalliy axolining mehnat sharoitini takomillashtirish, ish joylarni to‘g‘ri yo‘naltirish, ish haqini oshirish, uy-joy, ijtimoiy axvolini yaxshilash kabi muammolar o‘z vaqtida bajarilganda yashash sharoiti yaxshilangan bo‘lar edi.

III.Bob. Qishloq xo‘jalik kadrlarini shakllantirish va xo‘jalikni malakali mutaxassislar bilan ta‘minlanishi masalalari

III.1. Qishloq xo‘jaligini kadrlar bilan shakllantirish yo‘nalishlari.

Sovet davlatining rejali taraqqiyot yo‘lini tanlashi «yagona xalq xo‘jaligini» shakllantirish, uni boshqarish, kadrlar bilan ta‘minlash kabi muammolar davlat siyosatining asosini tashkil etgan, bu sohada qishloq xo‘jaligi ham aloxida o‘z o‘rniga ega edi.

Sovet davlatining kadrlar siyosatida qishloq xo‘jalik kadrlari alohida masala bo‘lib, bu siyosat tadqiq qilinayotgan davrda O‘zbekiston sovet davlatining ulkan paxta makoniga aylantirilgani va paxtachilik sanoatiga xizmat qiluvchi sohalarni rivojlantirish bilan hamohang edi.

Fan-texnika taraqqiyoti jamiyat hayotining barcha sohalariga jadal kirib kela boshladi. Xalq xo‘jaligining biror bir sohasini texnikaning keng ishtirokisiz yanada yuksaltirish mumkin emas. Sobiq SSSRda ilm, fan, texnika sohasida juda katta yutuqlar qo‘lga kiritildi. Zero, texnikasiz biror-bir sohada olg‘a siljish mumkin emas.

Bu narsa O‘zbekiston qishloq xo‘jaligini yuksaltirish, uni mukammal texnika bilan ta‘minlashga bevosita bog‘liqdir. Urush, so‘zsiz mamlakatning markaziy, g‘arbiy rayonlariga, urush bo‘lgan barcha hududlarga ta‘sir qildi, ularning iqtisodiy rivojlanishini bir necha o‘n yilliklarga orqaga surib yubordi.

Biroq, urushning oqibatlarini urush bo‘lmagan bizning o‘lkamizda ham har qadamda ko‘rish mumkin. Ma‘lumki yuqorida biz urush paytida traktorlar, mashinalar, har xil boshqa asbob-uskunalar O‘zbekistondan frontga olib ketilganligi haqida fikr yuritgan edik. Ammo urush tugagandan so‘ng bunday texnika O‘zbekistonga qaytarilmadi.

Demak, urushgacha bo‘lgan davr mobaynida jumhuriyatda ma‘lum darajada qishloq xo‘jalik texnikasi joriy etilgan va uning moddiy bazasi mustahkamlangan bo‘lsa, urushdan keyin qo‘lga kiritilgan bu yutuqlardan

mahrum bo'ldik. Endi, kolxoz, sovxozlarning bo'shab qolgan traktor, texnika parkini to'ldirish lozim edi.

Bundan Tashqari yana ayrim sabablar bor ediki, ular 50- yillarning oxiri — 60- yillarning boshlarida jumhuriyat qishloq xo'jaligi moddiy-texnika bazasini tezroq va sifatliroq tarzda mustahkamlashni talab qilar edi. Jumladan, 50- yillarning o'rtalaridan O'zbekistondagi qo'riq va bo'z yerlarni o'zlashtirish bu boradagi ishlarni ancha jadallashtirishni talab qilar edi. Chunki bu ishlarni, masalan, kanallar, daryolar, katta ariqlarni qazishni, irrigatsiya va melioratsiya inshootlarini barpo etishni zamonaviy texnikasiz amalga oshirish mumkin emasdi. O'zbekistonga minglab traktorlar, kombaynlar, ekskavatorlar zarur edi.

Jumhuriyatda qishloq xo'jalik texnikasini rivojlantirishni talab qilayotgan sabablardan yana biri shunda ediki, 50-yillardan paxtachilikda mexanizatsiyani kengroq yo'lga qo'yish, jumladan paxtani mashinalar yordamida terish istiqbollari tug'ilgan edi. Bu esa qishloq xo'jalik texnikasi ishlab chiqaradigan sanoat turlarini keskin ravishda rivojlantirishni talab qilardi

SSSR Xalq Komissarlari Soveti va VKP (b) MQ 1945 yil «O'zbekistonda paxtachilikni tiklash va yanada rivojlantirish tadbirlari to'g'risida»¹ gi, 1946 yil 2 fevralda VKP (b) MQ va SSSRXalq komissarlari Soveti «1946-1953 yillarda O'zbekistonda paxtachilikni tiklash va yanada rivojlantirish tadbirlari to'g'risida»gi hamda 1947 yil fevral oyidagi VKP (b) MQning plenumida «Urushdan keyingi davrda qishloq xo'jaligini yanada yuksaltirish tadbirlari to'g'risida»²gi qarorida qishloq xo'jaligining bu tarmog'ini yanada kuchli ravishda rivojlantirish, kolxozlarda tashkiliy va siyosiy ishlarni kuchaytirish, partiya tashkilotlarida kadrlar bilan ishlash uchun asos yaratish vazifasini qo'ydi. Biroq iqtisodiyotda mutanosiblik buzilgan, katta moddiy texnikalar, omilkor malakali

¹Ийманова Д. Ўзбекистонда совет тузумининг кадрлар сиёсати ва унинг оқибатлари. — Т.: “Янги аср авлоди” 2013. -Б.120-121.

²Коммунистическая партия Узбекистана в резолюциях и решениях съездов и пленумов ЦК. Т.2. - Ташкент: 1988. — С. 364.

kadrlar va boshqa vositalar etarli bo'lmagan bir sharoitda, har doimgidek sovet tuzumi o'z manfaatlarini ko'zlab, O'zbekiston oldiga amalga oshirish murakkab, jumladan, qisqa muddatlarda paxtachilikni rivojlantirish va paxtani yig'ib-terib olish texnikasini yaratish vazifasi qo'yildi. O'zbekistonda 1945 yilning o'zida paxtachilikka asoslangan kolxozlarda 22353 ta brigada tashkil etildi¹.

Urushdan keyingi yillarda O'zbekistonning agrar ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun umumiy mablag'lar hajmining 7% i ajratildi. Bu davrda ommaviy kasbdagi malakali kadrlarni tayyorlash, agrar korxonalarni yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlash borasida keng ko'lamli ishlar olib borilishi uchun dasturlar qabul qilindi va qishloqqa ommaviy kasbdagi mexanizator va texnik kadrlarni, malakali qishloq xo'jalik mehnati xodimlarini ko'paytirishga asosiy e'tiborni qaratdi. Bu vaziyatning muhimligiga sabab urush natijasida kolxozchilar va agrar ishchilarning tarkibi ancha yangilangan, kadrlar tarkibi asosan zarur kasbiy bilimlarga ega bo'lmagan ayollar va o'smirlar bilan to'ldirildi.

SSSR Ministrlar Sovetining «Mehnat rezervlarini tayyorlashni yaxshilash hamda xunar-texnika bilim yurtlarida va FZT maktablarida tayyorlangan ishchilar sonini ko'paytirish tadbirlari to'g'risida»gi 1946 yil 20 sentyabrda qabul qilingan qarori davlat mehnat rezervlari ahamiyatini belgilab beruvchi hujjatlardan biri bo'ldi². Garchi mazkur qaror davlat mehnat rezervlari ishini takomillashtirish yuzasidan aniq chora-tadbirlar, ishchi kuchining tankisligini bartaraf etish sohasidagi amaliy vazifalarni belgilab bergan bo'lsa-da, bu hol dehqonlarni «ishchilarga aylantirish»dan iborat sun'iy jarayonni kuchaytirdi, biroq ularning ijtimoiy turmush darajasini yaxshilamadi. Qishloq aholisining kolxozchi dehqonlarga va qishloq xo'jalik ishchilariga aylantirilishi real hayotda ular davlatning yollanma xodimlariga va to'la-to'kis qaram mehnatkashlariga aylandi. Bevosita paxta tozalash sanoatini kadrlar bilan ta'minlashga katta e'tibor berildi, sababi urushdan keyingi birinchi besh yillikda paxtachilikni yuksaltirishga, qishloq

¹Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистан совет мустамлакачилиги даврида. - Т: «Шарк», 2000. - Б. 533.

²Бахирев А. Ўзбекистоннинг индустриал тараққиёти // Ўзбекистон коммуниста. - Тошкент. 1973. - №8. - Б. 59.

xo‘jaligini mexanizatsiyalash va kimyolashtirishni rivojlantirishga, irrigatsiya-melioratsiya qurilishini avj oldirishga qaratildi. Bundan kutilgan maqsad 1947 yilda paxtaning yalpi hosilini urushdan oldingi darajaga (1,4 million tonnaga) yetkazish, 1950 yilda esa 1945 yildagiga nisbatan 2,6 baravar ko‘p paxta etishtirish kerak edi. Shu sababli 1947 yilda butun respublika paxta zavodlari uchun 380 ming ishchi va mutaxassis kadrlar tayyorlandi. 1946 - 1950 yillarda respublika paxta tozalash zavodlari uchun turli mutaxassisliklar bo‘yicha 1690 ming kadr texnikumlarda, ikkinchi kasbni egallash staxanovchi maktablar yo‘li bilan esa 1440 ming kadr tayyorlandi. Bu davrda sovet tuzumi rejasiga asosan, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi maxsulotlari etishtirishga ko‘proq ixtisoslashgan va uning umumittifoq mehnat taqsimotidagi o‘rni paxtachilik taraqqiyot darajasi bilan belgilanib kelindi. Ijtimoiy ishlab chiqarishning o‘ziga xos tuzilishi shunga asosan bo‘lib, mahsulotni qayta ishlovchi sanoat hamda paxtachilik uchun ishlab chiqarish vositalari etkazib beruvchi korxonalar etakchi o‘rinni egallab keldi. Shu sababli 1954 yildan boshlab hunar-texnika ta‘limi tizimida ham qishloq xo‘jaligi uchun kadrlar tayyorlashga o‘tildi, natijada sanoat uchun mutaxassislar tayyorlash sezilarli kamaydi¹.

1947 yilgi o‘tkazilgan tadqiqotga muvofiq, O‘zbekiston sovxozlarida xodimlarning 50% ga yaqini uch yildan ham kamroq ish stajiga ega edilar. Kolxoz raislari ish stajining bu ko‘rinishi 34,7% ni egalladi. Qishloq aholisining 90% dan ko‘prog‘i asosan qo‘l va ishchi hayvonlar mehnati bilan shug‘ullanardi². Bu ko‘rsatkichlar respublika kolxozlarida esa yanada past darajada bo‘lib, urush yillarida mexanizator kadrlar soni ham kamayib ketdi. Misol uchun, 1941 yilda O‘zbekiston xo‘jaliklarida 27888 nafar mexanizator ishlagan bo‘lsa, 1943 yilda ularning soni 2775 nafarga tushib ketdi. 1945 yilda mexanizatorlar birmuncha 7223 taga ko‘paydi. Ammo bularning soni mutlaqo yetarli degani emasdi. Ta’kidlash kerakki, urushdan keyingi dastlabki yillarda mexanizatorlarni kasbga

¹ Ийманова Д. Ўзбекистонда совет тузумининг кадрлар сиёсати ва унинг оқибатлари. – Т.: “Янги аср авлоди” 2013. -Б.122-123

²Ўша асар, -Б.123

o'rgatish amaliyotida jiddiy muammolar mavjud edi. Jumladan, malakali mexanizatorlar va ta'mirchi ishchilarni to'ldirish uchun zarur moddiy baza yo'q bo'lib, ko'pchilik o'quv yurtlarida malakali o'qituvchilar juda kam, zarur o'quv qo'llanmalar, jihozlar, asbob-uskunalar yetishmas, borlari ham talabga javob bermasdi.

Bu muammolarga qaramay qishloq xo'jalik ishlab chiqarish jarayonlari uchun texnik kadrlar tayyorlash tizimida davlat mehnat rezervlari maktablari, o'quv yurtlari muhim o'rin egalladi. Taklif qilingan tadbirlarning bajarilishi natijasida 1946 - 1948 yillarda qishloq xo'jaligiga yuboriladigan mehnat rezervlari tizimidagi o'quv yurtlarini bitirib chiqqan kadrlar soni 2,5 baravarga ko'paydi. 1940 - 1958 yillar davomida bilim yurtlarida respublika xalq xo'jaligiga 180 mingdan ortiq malakali ishchi kadrlar bilan birgalikda qishloq xo'jaligi uchun mexanizatorlar tayyorlandi. Bu jarayonga 1949 yildan boshlab ta'limning sirtqi yo'nalishining tashkil etilishi ham sezilardi ta'sir etdi.

Kadrlar tayyorlashni jadallashtirish uchun O'zbekiston Qishloq xo'jalik vazirligi, MTS rahbarlariga, paxtachilik, chorvachilik, naslchilik va g'allachilik sovxozlariga 1947 yil 20 martgacha ustaxonalarining asosiy ishlab chiqarish ishchilariga shogirdlarni biriktirib qo'yishni tavsiya etdi. Shuningdek, qishloq xo'jalik kadrlariga kasb o'rgatishning xilma-xil vositalaridan foydalanishi natijasida ularning son jihatdan sezilarli ravishda ko'payishini belgiladi. 1950 - 1951 yillarda respublika kolxoz MTSlarida, sovxozlarda va boshqa qishloq xo'jalik korxonalarida 2762 ta agrozootexnik kurslar tashkil qilindi.

Bu kurslarda 82237 nafar kolxozchi va qishloq xo'jalik ishchilari ta'lim olishdi. Bir yildan keyin bu paqam 89100 kishiga yetdi. 1951 - 1954 yillar mobaynida esa O'zbekiston respublikasidagi uch yillik agrozootexnik kurslarida jami 495,5 ming kishi o'qidi va shu kurslarni qishloq xo'jalik xodimlaridan 311,2 ming kishi bitirib chiqdi. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining boshqa toifadagi xodimlarining soni ham biroz ko'paydi. Ammo ommaviy kasbdagi qishloq xo'jalik kadrlarini shakllantirish ishida qo'lga kiritilgan ijobiy ishlar bilan birga jiddiy

kamchiliklar ham yuz berdi. Bu sohadagi kadrlar son jihatdan ko'p bo'lishiga qaramay, xo'jaliklarning ommaviy kasbdagi kadrlarga, ayniqsa, texnik kadrlarga bo'lgan ehtiyoji yuqori darajada bo'lib qolaverdi. Xususan, mexanizatorlarning yirik guruhini tashkil etuvchi traktorchilar yetishmasdi.

Misol uchun 1953 yilda MTSlarning traktorchilar bilan taminlanganligi 42% ni tashkil etdi¹. 50 yillarda rahbariyat tomonidan barcha kolxozlarni kengaytirish masalasi avj oldirilgandan keyin qishloq xo'jalik rahbar kadrlar tarkibini ta'minlash asosiy muammolardan bo'ldi. Sababi, 1946 yil 1 yanvar ma'lumotiga ko'ra, O'zbekistonda jami 1749 nafar oliy ma'lumotli mutaxassis, shu jumladan, 97 nafar meliorator, 95 nafar qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va elektrlashtirish muhandisi bor edi. O'zbek millatiga mansub qishloq xo'jalik rahbarlari 37 foiz bo'lib, oliy ma'lumotlilar — 23%, o'rta - 53%, boshlang'ich ma'lumot - 24% bo'lgan. Shulardan MTS rahbarlari orasida o'zbeklarning ko'rsatkichi 54,3% edi. Ko'pgina xo'jaliklarda agronom, zootexnik, raislar umuman qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi mutaxassislari lavozimlarini boshqarishga loyiq bo'lmagan chalasavod kishilar yoki urush qatnashchilari egalladi. Kolxoz raislari, MTS va sovxoz direktorlarining ma'lumot darajasi past edi². Jumladan, 1947 yil o'tkazilgan davlat tadqiqoti ma'lumotlariga ko'ra 6647 kolxoz raisidan faqat 89 kishi maxsus oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarini tamomlagan, 778 kishi umumiy o'rta ma'lumotli, 5780 kishi «boshqalar» jadvaliga kiritilgan. Bu «boshqalar» jadvaliga faqat boshlang'ich ma'lumotga ega bo'lgan kolxoz raislari kiritildi. Yoki Andijon viloyatining 632 ta kolxoz raisidan 558 tasi chalasavod, 66 tasi harf tanimaydigan savodsiz edi. Holbuki, ma'lumotsiz, maxsus tayyorgarlikga ega bo'lmagan, zamonaviy fan-texnika yutuqlarini o'z vaqtida o'zlashtira olmagan rahbar kadrlardan kelajakda qishloq xo'jaligi samaradorligini oshiradigan islohotlarni kutish murakkab edi. Shu sababli qishloq xo'jalik rahbar kadrlarining ma'lumot va maxsus tayyorgarligini kengaytirishni yaxshilash, kolxoz

¹Турсунов С. Мустабид тузумнинг аграр сиёсати. (1946-1965 йй.) - Т: Шарк, 2001. - Б. 47.

² Ийманова Д. Ўзбекистонда совет тузумининг кадрлар сиёсати ва унинг оқибатлари. – Т.: “Янги аср авлоди” 2013. -Б.125.

va sovxozlar, MTSlarni malakali mutaxassislar bilan mustaxkamlash yuzasidan qat'iy choralar ko'rilishi zarur bo'ldi. Natijada VKP (b) MQ 1947 yilgi fevral plenumida qishloq xo'jalik kadrlari, jumladan, rahbar kadrlarni tayyorlash sohasida qaror qabul qildi¹. Unda qishloq xo'jalik kadrlari - kolxoz raislari, brigadirlar, ferma mudirlari, xisobchilarni tayyorlash, ularning sifatini yaxshilash maqsadida 1947 yilda viloyat va respublikalarda bir va ikki yillik davlat maktablari ochish, ular qoshida bilim va tajriba oshiradigan namunali xo'jaliklar tashkil etish kabi masalalar ko'rildi. Qarorga muvofiq, SSSR Ministrlar soveti qishloq xo'jalik raxbar xodimlari tayyorlaydigan birlashgan davlat maktablari shoxobchasini tasdiqladi. O'zbekistonda ham har biri 500 kishiga mo'ljallangan ikki maktab Toshkent va Samarqandda ochildi. O'quv muddati ikki yil bo'lgan qishloq xo'jalik raxbarlarini tayyorlaydigan davlat maktablarida o'quvchilarga umumiy ma'lumot bilan bir qatorda qishloq xo'jaligiga doir maxsus bilim ham berildi, ya'ni qishloq xo'jaligini mehanizatsiyalash va elektrlashtirish, dehqonchilik asoslari, chorvachilik va boshqa shu kabi bir qancha darslar o'qitildi. 1948 - 1950 yillarda maktablarning ikki yillik bo'limlarida 740 kishi tayyorlangan bo'lsa, olti oylik kurslarda 960 kolxoz raisi malaka oshirdi. Davlat maktabini ikki yillik bo'limini tugatgan bitiruvchilarga tashkilotchi-texnik unvoni va diplom berilgan².

Bu yillarda O'zbekiston kishloq xo'jalik vazirligi tizimida 12 ta texnikum qishloq xo'jalik kadrlarini tayyorlardi. O'zbekistonda uchta qishloq xo'jalik instituti: Toshkent va Samarqandda joylashgan qishloq xo'jalik institutlari hamda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash injenerlari instituti bor edi. 1954 yilda qishloq xo'jalik oliy o'quv yurtlari SSSR qishloq xo'jalik vazirligi qaramog'idan O'zbekiston Oliy ta'lim vazirligi ixtiyoriga o'tkazildi. SSSR Moliya ministrligi 1954 yilda qishloq xo'jalik kadrlarini tayyorlash, shu jumladan, o'quv tajriba xo'jaliklari hisobidagi mablag'larni to'ldirish uchun SSR oliy ta'lim ministrligiga pul ajratdi. Mablag'lar asosan qishloq xo'jalik o'quv

¹ Зиёмов Ш. Колхоз кадрларини тайёрлаш ва тарбиялаш тўғрисида партиявий ғамхўрлик // Ўзбекистан коммуниста. - Тошкент, 1970. - №7.-Б. 58.

² Ийманова Д. Ўзбекистонда совет тузумининг кадрлар сиёсати ва унинг оқибатлари. – Т.: “Янги аср авлоди” 2013. -Б.124-126

yurtlarining moddiy bazasini kengaytirish, o'quv binolari va yotoqxonalar ta'miriga sarflanishi kerak edi. Chunki yuqorida ta'kidlangan muammolar hal etilsa, malakali mutaxassislar tayyorlash sifati ham ma'lum darajada yaxshilanardi. Ayni vaqtda Oliy ta'lim vazirligiga qishloq xo'jaligi oliy o'quv yurtlari uchun MTSlardan katta miqdorda qishloq xo'jalik texnikasi tekin topshirildi. Oliy o'quv yurtlarining moddiy bazasi ma'lum darajada kengayib borishi bilan u erda o'qiyotgan mutaxassislarning ilmiy salohiyati ham sezilarli ravishda o'sdi. Qishloq xo'jaligini mutaxassislar bilan ta'minlash vazifasi qishloq xo'jalik oliy o'quv yurtlari va texnikumlari zimmasiga yuklandi. 1954 - 1955 o'quv yilida respublika oliy o'quv yurtlari 2,5 mingdan ko'proq muhandis, 1,5 mingga yaqin agrar ishlab chiqarishning boshqa mutaxassislari tayyorladi. 1956 - 1958 yillar mobaynida 3611 kishi agronom, irrigator, muhandis va boshqa mutaxassislik diplomlarini olishdi. 1954- 1960yillarda qishloq xo'jaligiga 704 nafar injener-texnik yuborildi.

1955 yil 25 martda «Kolxozlarni rahbar kadrlar bilan yanada mustahkamlash tadbirlari to'g'risida»gi qaror qabul qilindi. Bu qarordan keyin 1955 yilning iyuligacha «ixtiyoriy ravishda» kolxozlarga ilg'or, yaxshi tayyorgarligi bo'lgan partiya, sovet xo'jalik xodimlari, injener-texniklar, ishchiva xizmatchilar, kommunistlar, shuningdek, partiyasizlardan kamida 30 ming xodimni rahbarlik ishlariga yuborish lozimligi ko'zda tutildi. Aslida tadbir markazning rejadagi yana bir bahonasi edi. Shaharlardan yuborilgan maxsus vakillar qishloq an'alarini yaxshi tushunmaganligidan uning taraqqiyotini oshira olmas, «ixtiyoriy» ravishda emas, balki rahbariyatning qattiq talabi asosida majburan yuborildi. Bu kabi mutaxassislar qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishidan mutlaqo xabarsiz bo'lib, oralarida imkon bo'lishi bilan shaharga qaytishni o'ylaydiganlar ham topilardi. Biroq bu mas'uliyatsizliklarga qaramay, qishloq xo'jaligiga yuborilayotgan shaharliklar soni yil sayin oshib bordi. Chunki tadbirning maqsadi partiya va sovet xodimlarini shaxar faollari tarkibidan qishloqqa yuborish va marksizm-leninizm g'oyalari qishloq aholisiga muntazam ravishda singdirilib, tuzum boshqaruvini yanada mustahkamlab borish hamda kadrlarni o'z xohishlari bo'yicha ishlashga

yo'l qo'ymay majburiy mehnatni kuchaytirish, ularning uquvi yo'q joylarga taqsimlab borish, agarda keyinchalik biror muammo chiqsa o'zlarini aybdor qilish siyosati yotardi. Bu tadbir tarixga keyinchalik «30 mingchilar» harakati nomi bilan kirdi. Ta'kidlash lozimki, tuzumning bunday tadbirlari kadrlar siyosatining nomutanosibligiga olib kelar, barcha jabri esa mahalliy aholi boshiga tushardi.

Sovet tuzumi sharoitida hukmron siyosat mahalliy kadrlarning milliy manfaatlarini chegaralash uchun imkoni bo'lgan barcha chora-tadbirlarni ko'rdi. Ularni umumiy tenglik va kambag'allikka mahkum etdi. Aholining ortiqcha mol-mulkga ega bo'lishi boshdanoq qat'iy ta'qiqlab kelindi. Masalan, arxiv hujjatlarida ko'rsatilishicha, 1947 yil 28 martda Andijon shahar 3-uchastka xalq sudi Botirali Axmadalievni javobgarlikka tortadi. Sababi, u o'zining uch bosh qoramolini kolxozga topshirishdan bosh tortib, o'zehtiyojlariga ishlatish uchun so'yib, bozorga olib borib sotgani uchun davlat tartiblarini buzganlik, olib-sotarlik va chayqovchilikda ayblangan. Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumani 1-uchastka xalq sudi shu tumanda tabelchi bo'lib ishlagan Mirxodja Kattaxodjaevning javobgarlikka tortilish sababi u ish vaqtida bozorga borib 72 metr turli xildagi gazmol, 4 juft kavush, 8 ta shishali chiroqni sotib olib kelgani va bu mollar oilasining ehtiyojidan oshib ketganligi uchun aybdor qilingan. Bu kichik dalillardan ko'rinadiki, o'zbek xalqi mehiat hilib ishlab topgan o'z daromadini ham mustaqil ravishda ishlata olmagan. Ijtimoiy va moddiy yashash sharoitini etarli darajada ta'minlashga imkon berilmagan. Qiyinchiliklardan qochib ketmaslik uchun qishloq aholisining ko'pchiligiga dastlabki vaqtlarda pasportlar berilmadi. Kolxoz rejalari ataylab oshirib borilib, dehqonlar qarzdorlik sirtmog'ida mustahkam ushlanib turildi. Agarda qishloqlarda yashovchi aholi kolxozda ishlashdan bosh tortsa, tomorqalari tortib olinar, hatto ko'chaga haydaldi. Ziyolilar tomonidan bu kabi muammolar, qishloqlarda yashash tarzining og'irligi, paxtakorlar oladigan ish haqining juda pastligi, shu sababli paxta narxini oshirish masalalari ko'tarilib chiqilgan, biroq paxta ekish, rejalashtirish, narxini belgilash markaz tomonidan amalga oshirilardi. Bundan tashqari, raxbariyat tomonidan 1956

yilda qabul qilingan «O‘zbekistonda 300 ming gektar qo‘riq va bo‘z erlarni o‘zlashtirish to‘g‘risida»gi qarori paxta etishtirishni keskin ko‘paytirishni nazarda tutdi. Natijada Mirzacho‘l, Qarshi, Jizzax, Surxon-Sherobod vohasi, Markaziy Farg‘ona hamda Amudaryoning quyi havzasidagi cho‘llarni o‘zlashtirish ishlari avj oldirildi va to‘qqizinchi besh yillikning o‘zida 510 ming gektar yangi yerlar foydalanishga topshirildi. Mirzacho‘lda qariyb 300 ming gektarga yaqin yer o‘zlashtirilib, 60 mingga yaqin yangi aholi xo‘jaliklari, sovxozlari bunyod etilgan. Jizzax cho‘lida 50 ming gektarga yaqin yer o‘zlashtirilib, yangi paxtachilik kolxoz va sovxozlari tashkil etildi. Ammo yangi ko‘chirilgan asosiy axoli mahalliy millat vakillari bo‘lib, axoli xo‘jaliklarini joylashtirish, ularni uy-joy bilan ta‘minlash ishlari qoniqarsiz ahvolda bo‘ldi. Respublikaning yangi o‘zlashtirilgan bir qancha tumanlariga ko‘chirib keltirilgan xo‘jaliklarga nisbatan ijtimoiy yordam qog‘ozlarda bitilgan chora-tadbirlarni qamrab ololmasdi. Masalan, Qarshi cho‘llariga tashkiliy ravishda ko‘chirishning butun davri mobaynida u erga 600 ta oila ko‘chib borgan. 1989 yilga qadar ulardan 40 ta oila yashab qolgan. Buning asosiy sababi aholini ishlashi uchun munosib ish o‘rinlarining yaratilmaganida edi¹. Oqibatda bir qator viloyatlar aholisining yashash sharoiti umuman zamon talabiga javob bermagan va iqtisodiy jihatdan orqada kolishiga sabab bo‘lgan. Muhim ko‘rsatkichlar bo‘yicha O‘zbekiston umumittifoq darajasidan past bo‘lishiga olib kelgan. Misol uchun, 1958-1961 yillarda SSSR bo‘yicha aholi jon boshiga ishlab chiqarilgan o‘rtacha yillik daromad 100% deb olinadigan bo‘lsa, RSFSR bo‘yicha 110,4%, Estoniyada 126,4%, Latviyada 133%, Turkmaniston- da 74,7%, O‘zbekistonda 65,6% bo‘lgan³⁵⁴. Paxta yakkahokimligi, iqtisodiyotning bir taraflama yo‘naltirilgan, xarid narxlarining pastligi sabab O‘zbekiston bo‘yicha qishloq aholisining moddiy ahvoli ham past darajada bo‘lib, respublika agrar sohasidagi ishchi kuchining qiymati ham ittifoq bo‘yicha past ko‘rsatkichlardan biri hisoblanardi. O‘zbekiston kolxozchisi ishlagan bir ish kuni uchun 80-yillarning o‘rtalarida 5 rubl 88 tiyin, Tojikistonda - 6 rubl 04 tiyin, Qirg‘izistonda - 6 rubl 90

¹Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мушамлакачилиги даврида. – Т.: «Шарк», 2000. - Б. 591.

tiyin, Turkmanistonda - 7 rubl 03 tiyin, RSFSRda - 8 rubl 03 tiyin, Litvada - 9 rubl 90 tiyin, Estoniyada - 14 rubl 04 tiyin haq olardi. Ma'muriyat bu muammolarni hal etish, mahalliy aholining moddiy axvolini yaxshilash o'rniga uzok yillar «reja»ni bajarish davomida respublikaning tabiiy, madaniy va ma'naviy boyliklarini talon-toraj etib, markazga muntazam ravishda tashish bilan shug'ullandi.

III. 2. Qishloq xo‘jaligini mutaxassis kadrlar bilan ta‘minlashdagi muammo va kamchiliklar

SSSR Oliy Sovetining 2-sessiyasi 1958 yil 24 dekabrda qabul qilingan «Maktabning turmush bilan bog‘lanishini mustahkamlash haqida va SSSRda xalq maorifi tizimini yanada rivojlantirish to‘g‘risida»gi qonun qishloq xo‘jalik kadrlariga kasbiy va texnikaviy ta‘lim berishga, hunar-texnika ta‘limi, davlat tizimini yanada oshirishga chuqur ta‘sir ko‘rsatdi. Bu qonun qabul qilingandan so‘ng respublikada qo‘shimcha ravishda 17 shahar va qishloq professional-texnika bilim yurti tashkil etildi, ularga yoshlarni qabul qilish 54% ga ortdi¹. Mamlakatda ishlab turgan barcha turdagi o‘quv hunar bilim yurtlari o‘qish muddati bir yildan uch yilgacha bo‘lgan shahar va qishloq hunar-texnika bilim yurtlariga (HTBY) aylandi. Bu tadbir, ta‘lim kursiga murakkab nazariy fanlarni kiritish, qishloq yoshlarining kasbiy bilimlarini kengaytirish imkonini berdi. O‘zbekistonda dastlabki qishloq HTBYlari 1959 yilda vujudga kelib, 1961 - 1965 yillarda ularning soni 130 taga etdi. Respublika qishloq xo‘jalik texnikumlarida mutaxassislarni tayyorlash hajmi yildan-yilga o‘sib bordi. Misol uchun, 1956-1960 yillar ichida 4723 nafar qishloq xo‘jaligi mutaxassislari tayyorlandi. Maktab to‘g‘risidagi qonun chiqqan vaqtdan buyon qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalashtirish bilim yurtlari 34790 mexanizatorni, shu jumladan, 1962 yilning o‘zida 2760 traktorchilarni mashinist va paxta terish mashinalari uchun 2285 mexanik-haydovchini qaratib, dastavval bilim yurtlarini maxsus malakali pedagog kadrlar, ish ustalari va zamonaviy texnika qurollari bilan ta‘minlash zarur bo‘lgan. Ta‘kidlash zarurki, tuzum illatlaridan bo‘lgan qo‘shib yozish, foiz ketidan quvish kabi salbiy holatlar hunar maktablarida ham mavjud bo‘lgan. Sifat ko‘rsatkichlariga emas, balki son ko‘rsatkichlariga qarab ish yuritish bilim yurtlari faoliyati uchun asos qilib olindi. Ayniqsa qishloq hunar-texnika bilim yurtlarida bunday holat yuqori bo‘lib, ularning ko‘pchiligi umumiy tayyorgarligi past darajada bo‘lgan maktab o‘quvchilari hisobidan to‘ldirildi. Bu kabi dolzarb

¹Социологические исследования. 1989. - №1. - С, 14.

muammolar ko'pgina bilim yurtlarida etarli darajada hal etilmadi. Natijada yaxshi tayyorlanmagan, o'z sohasining to'liq amallarini bilmagan, ishlab chiqarishda joriy etilayotgan yangi texnika va texnologiyalarga tushunmasligi sabab zamonaviy uskunalarga tezda moslasha olmaydigan qishloq xo'jalik kadrlari ham etishib chiqdi.

1960 yillarning ikkinchi yarmidan boshlab respublikada turli ixtisoslikdagi mutaxassislarni tayyorlash va xo'jaliklarga yuborish, kadrlar sifatini yaxshilash yuzasidan birmuncha ishlar olib borildi. Jumladan, 1960 – 1970 yillarda Toshkent qishloq xo'jalik institutida 7358 ta mutaxassislar tayyorlandi. 1961 yilda institutda 2452 nafar talabadan 1870 tasi mahalliy millat vakillari bo'lsa, 1969 yilda 3157 tadan 2875 nafari o'zbeklar bo'lgan. Natijada respublika kolxoz va sovxozlarida oliy o'quv yurtlarida ta'lim olgan va qishloq xo'jaligi ma'lumotiga ega bo'lgan diplomli mutaxassislari soni faollasha bordi. KPSS MQning 1965 yil 24 mart plenumida «Qishloq xo'jaligini yanada rivojlantirish sohasidagi eng zarur chora tadbirlar to'g'risida»gi qaroridan keyin mamlakatda qishloq xo'jaligini kadrlar bilan ta'minlash va qayta tayyorlashning muntazam tartibi vujudga keltirildi. Buning davomi sifatida 1966 yil yanvarda qabul qilingan «Kolxoz va sovxozlar rahbar kadrlari va qishloq xo'jalik mutaxassislari malakasini oshirish tizimini yanada yaxshilash to'g'risida»gi qaroriga muvofiq qishloq xo'jalik ishlab chiqarish tashkilotchilarini qayta tayyorlash va ular malakasini oshirish tizimining qayta tashkil etilishi bilan birgalikda xodimlar xar bir toifasi uchun o'qish muddatlari belgilab berildi. Shu vaqtdan oliy va o'rta maxsus qishloq xo'jaligi ma'lumotiga ega bo'lgan mutaxassislarni chiqarish sezilarli ko'paydi, ularni tayyorlash sifati birmuncha yaxshilandi va xo'jaliklarning bir millionga yaqin rahbar va mutaxassislari qayta tayyorlashdan o'tdilar¹. 1966 yilda mamlakatda qishloq xo'jalik oliy o'quv yurtlari qoshida 84 ta malaka oshirish fakulteti ishlagan bo'lib, bu erda har yili 120 mingdan ziyod kolxoz raislari va sovxoz direktorlari, qishloq xo'jalik mutaxassislari o'qidilar. Bu ishlarning maqsadi kolxoz-sovxoz ishlab

¹Эргашева Ю.А. Культура Узбекистана: тенденции и проблемы развития. (50-60-е годы). – Т.: «Фан», 1997. - С. 132.

chiqarishini yuksak siyosiy va maxsus tayyorgarligi bo'lgan, yangilikni his etadigan rahbar, mutaxassis kadrlar bilan ta'minlashdan iborat edi. Biroq qishloq xo'jaligi oliy o'quv yurtlari qoshidagi malaka oshirish kurslari kadrlarni qayta tayyorlashda naf berayotgan bo'lsa-da, kurslardagi o'quv jarayoni to'la qoniqarli yo'lga qo'yilmadi. Bu tarkibdagi kurslarda oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining dasturlarini andoza qilgan holda takror ta'lim berildi. Yetarli darajada umumiy va maxsus ma'lumotga ega bo'lmaganlar uni o'zlashtirishi murakkab edi. Bundan tashqari kurslarning ta'limi mafkuraviy yo'nalishdagi fanlar bilan ortiqcha to'ldirilib yuborilgan bo'lib, asosiy fanlar ikkinchi darajali bo'lib qolgandi.

O'zbekiston KP MQ va O'zSSR Ministrlar Soveti 1968 yil fevralda «O'zbekiston SSRda o'rta maxsus ta'limni yanada rivojlantirish choralari to'g'risida» qaror qabul qildi. Mazkur qarorning e'tiborli tarafi shundaki, 1968-1972 yillarda qishloq xo'jalik texnikumlarini tashkil etish zarurligi ta'kidlandi. Ikki yil mobaynida respublikada 10 ta yangi o'rta maxsus o'quv yurti tashkil etildi ular orasida Samarqand va Sirdaryo viloyatlarida qishloq xo'jalik texnikumlari, Xorazm viloyatida gidromelioratsiya texnikumi, Qoraqalpog'iston ASSRdagi «Chimboy» sovxozi qoshida Chimboy qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash texnikumi, Shumanoy sovxozi qoshida Xo'jayli qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash texnikumlari bor edi. Qishloq xo'jaligi uchun kadrlar tayyorlash darajasini oshirish maqsadida Sirdaryo qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va Toshkent qishloq xo'jalik texnikumlari tayanch baza qilib belgilab qo'yildi. Natijada 1968 - 1970 yillar mobaynida respublikada paxtachilik uchun yigirma ikkita mutaxassislik bo'yicha texniklar tayyorlash ishi yo'lga qo'yildiva respublika kolxoz va sovxozlarida oliy ma'lumotlilar 8136 ta, o'rta maxsus ma'lumotlilar 17608 taga etdi.

Rahbariyatning 1974 yil avgust oyidagi «Qishloq xo'jaligi tashkilotlarining, kolxoz va sovxozlarning rahbar kadrlari va mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasidagi ishi to'g'risida»gi qarori respublikadagi qishloq xo'jalik kadrlarini tanlash, tarbiyalash va joy-joyiga qo'yishning «lenincha»

tamoyillariga muvofiq holda qishloq uchun rahbar xodimlarni va mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni takomillashtirishga qaratilgan tadbirlar tizimini belgilab berdi¹. Natijada oliy va oʻrta maxsus oʻquv yurtlarida kadrlar tayyorlash kengaytirildi 1965 yilda Oʻzbekistonda 10,4 ming oliy maʼlumotli qishloq xoʻjalik mutaxassislari ishlagan boʻlsa, 1980 yilga kelib ularning soni 15,4 mingni tashkil etdi. Shunday boʻlsa-da, Oʻzbekistonda 1974 yilda jamoa xoʻjaligi raislari, boʻlim boshqaruvchilari, zootexniklar, veterinariya xodimlari, injener va texniklar, chorvachilik fermalari mudirlari va brigadirlarining maʼlumot darajasi oʻrta darajadan past edi. Yani 1974 yil 1 apreldagi tadqiqot holatiga koʻra sovxozlarning rahbar xodimlari va mutaxassislarning umumiy sonida oliy maʼlumotlilar- 30,4%, oʻrta maxsus maʼlumotlilar-30,8%, kolxozlarda esa shu tariqa 16,4 va 29,4% boʻlgan bu muammo va kamchiliklarni bartaraf etishda birinchi navbatda qishloq xoʻjalik oliy va oʻrta maxsus oʻquv yurtlarida malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini yaxshilash, oʻquv yurtlarini taʼlimning zamonaviy texnika vositalari bilan jihozlash hamda ulardan keng foydalanish zarur boʻlgan.

1976-1985 yillar orasida kolxoz va sovxozlardagi rahbar xodimlar va mutaxassislarning soni 58,4 mingdan 80,3 mingga, shu jumladan, oliy va oʻrta maxsus maʼlumotga ega boʻlgan mutaxassislar 32,9 ming kishidan 59,0 mingga koʻpaydi. 1980 yillarning boshida kolxoz va sovxozlarda yordamchi qishloq xoʻjalik korxonalarida 13,9 ming nafar oliy maʼlumotli mutaxassis ishlagan edi. Hammasi boʻlib shu besh yillik boshida 8519 nafar agronom, 7108 nafar zooveterinariya xodimlari, injener-texniklar va boshqa xodimlar ishladi. Qishloq xoʻjaligini kadrlar bilan taʼminlash sohasida birmuncha ishlar amalga oshirildi oliy oʻquv yurtlari va texnikumlarda qishloq xoʻjalik sohalari boʻyicha taʼlim oluvchilar soni muntazam oshib bordi. Natijada qishloqlardagi ishlab chiqarish texnika ziyolilari safi sezilarli ravishda ortdi va Oʻzbekistonning agrar soxasidagi oliy maʼlumotli xodimlar soni 1985 yilda 47,8 ming nafar kishiga, oʻrta maxsus

¹. Ийманова Д. Ўзбекистонда совет тузумининг кадрлар сиёсати ва унинг оқибатлари. – Т.: “Янги аср авлоди” 2013. -Б.133-134.

ma'lumotli xodimlar soni 83,5 ming nafar kishiga etdi¹. Aynan bu yillarda mamlakatda qishloq xo'jaligi uchun mutaxassislarni 6 ta oliy o'quv yurti, 44 ta texnikum va bir qator boshqa maxsus o'quv yurtlari tayyorlardi. Jumladan, Toshkent xalq xo'jalik instituti qishloq xo'jaligi uchun rejalashtirish bo'yicha iqtisodchilar, Toshkent davlat universiteti agroximiya bo'yicha mutaxassislar tayyorladi². Ta'kidlash joizki, qishloq xo'jaligi mutaxassislarning sifat tarkibi biroz yaxshilangan bo'lsa-da, markaz o'z ayblarini yopish maqsadida mamlakat qishloq xo'jaligining turg'un xolatga tushib qolishining bosh sababchilari kadrlar mas'uliyatsizligiga taqadi. Aslida ittifoq tomonidan mahalliy sharoitlar xisobga olinmay yuqoridan turib, kolxoz va sovxozlarga juda ko'p bir qolipdagi yo'l-yo'riqlar berilavergani, qishloqdagi rahbar va mutaxassislar, umuman barcha mehnatkashlarning tashabbuslarini bo'g'ib qo'yib, ishni me'yor bilan boshqarishga halaqit berayotgandi. Mahalliy mutaxassislar bilan noto'g'ri munosabatda bo'lib kelinganligi, ularning bilim va tajribalariga mensimasdan qaralganligi xamqishloq xo'jaligi ishlarining orqada qolayotganligining sabablaridan biri edi.

KPSS MQning 1970 yil iyul hamda O'zbekiston KP MQning XI plenumida qishloq xo'jaligining keyingi o'sishiga sharoit yaratishga e'tibor qaratishda mexanizator kadrlarni ko'paytirish va mexnat unumdorligini oshirish vazifasi alohida masala sifatida ko'rildi. Sababi bu yillarga kelib mexanizator kadrlar ishining o'ta murakkabligi, qishloq aholisiga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish va mexnatni tashkil etishdagi kamchiliklar tufayli kadrlar qo'nimsizligi yuqori xolatda edi. Ko'pgina mexanizatorlar o'z malakalarini oshirmay sharoiti yengilroq bo'lgan boshqa soxalarga joylashdilar. L.I.Brejnev o'z ma'ruzasida «Hozirgi vaqtda muammolarni xal etishda avvalo mexanizator kadrlarni ko'paytirish zarur. Mexanizator - qishloqda markaziy figuradir. Bularsiz qishloq xo'jalik ishlab

¹Ийманова Д. Ўзбекистонда совет тузумининг кадрлар сиёсати ва унинг оқибатлари. – Т.: “Янги аср авлоди” 2013. -Б.136-137.

²Ўша аса, ўша манба.

chiqarishini yanada yuksaltirish vazifalarini hal qilish qiyin bo'ladigan»¹, deb ta'kidladi.

1970 yil O'zbekiston qishloq xo'jalik boshqarmasi ma'lumotiga ko'ra, tashkilotlarda mexanizator kadrlarga zaruratning yuqoriligi, ya'ni 1960 - 1970-yillarda traktor parklari va paxta tozalash mashinalari o'rtacha yillik o'sishi 8% bo'lgan bo'lsa, mexanizator kadrlarning o'sishi 5,5% bo'lganligi ko'rsatilgan. 1966 - 1969 yillarda esa bu o'sish quyidagicha bo'lgan: kadrlarning bu soxada o'sishi 2,2% bo'lgan bo'lsa, mashina, traktor parklarining o'sishi 6% bo'lgan. 1961 yilda 100 ta ishlayotgan traktorga 103 traktorchi to'g'ri kelgan bo'lsa, 1970 yilga kelib esa respublika viloyatlari bo'yicha 90,5 ga to'g'ri keldi. Respublika kolxoz va sovxozlarida traktorlarning umumiy soni 1965 yil 90 ming bo'lsa, 1979 yil 160 mingga, paxta terish mashinalari 21 mingdan 31 mingga, yuk avtomobillari 29 mingdan 50mimga yetdi. Bu yillarda paxta terish 57% mexanizatsiyalashgan. Shuning uchun 1970 yilning o'zida 42 ming mexanizator yetishmaganligidan mashinalar ishlamay parklarda turib qolganligi arxiv ma'lumotlarda ko'rsatilgan.

O'zbekiston qishloq xo'jaligida mexanizator kadrlar ish faoliyatida mamlakatning boshqa mintaqalariga nisbatan katta tafovut bo'lgan. Mexanizator kadrlarning sezilarli kamayishiga ish jarayonining og'irligi, tabiiy muhitning zaharlanganligi, texnikaning noqulayligi va boshqa sabablar bo'lib, mexanizatorlar doim chang, zaharli kimyoviy dorilarning qo'llanishi yuqori bo'lgan dalalarda katta kuch bilan dastakni boshqargai holda mehnat qilganlar. Changning quyuqligi, yozda havo haroratining 40-43 darajaga yetganligi traktorчилarning nafas olishlarini qiyinlashtirgan. Shu sababli ularda surunkali kasallanish hollari yuqori darajada bo'lgan. Tekshiruvlarning ko'rsatishicha, aksariyat mexanizatorlar nafaqa yoshiga oz yil qolishiga qaramay, 40-45 yoshlarida traktorchilik kasbini tashlashga majbur bo'lgan. Ishlovchilardan faqat 3% i 45 yoshgacha borgan, 50 yoshdan yuqorilari 1% ni tashkil etgan². Vaholanki, bu davrlarda yerlarni kimyoviy

¹ Суёнов С.Х. Фан-техника тараққиёти ва кадрлар тайёрлаш. – Т.: «Ўзбекистон», 1987.- Б. 11.

²Ийманова Д. Ўзбекистонда совет тузумининг кадрлар сиёсати ва унинг оқибатлари. – Т.: “Янги аср авлоди” 2013. -Б.138.

o'g'itlash ittifoq ko'rsatmalariga binoan yuqori bosqichda amalga oshirilayotgan edi. Agar 1965 yilda respublika qishloq xo'jaligiga 2 mln. 548 tonna kimyoviy o'g'it etkazib berilgan bo'lsa, 1979 yilda bu miqdor 5 mln. tonnadan oshgan edi. Biroq paxtachilik sohasida ishlagan mexanizatorlarga qarilik nafaqasi boshqa qishloq xo'jalik sohasida ishlovchi ishchi va xizmatchilar bilan bir xilda berilgan. Ularga og'ir va zararli muhitda ishlaganligi uchun qo'shimcha imtiyozlar berilmagan.

Tibbiy ko'rik ma'lumotlarida har 700 mexanizatoridan 60-75% ida surunkali kasalliklar borligi aniqlangan, bunga ishlab chiqarishdagi noqulay omillar nafas organlarida, oshqozon va o'n ikki barmoq ichak surunkali kasalliklarini keltirib chiqargan. Bu kasalliklar bilan og'riganlarning asosini traktorchi-mexanizatorlar tashkil etgan. Natijada traktorчилarning 45-50 yoshlarida bu kabi kasalliklar kuchayishi oqibatida 85% i nogironlik xoliga etgan¹. SHu yillarda kasallanganlarning o'lim bilan tugash hollari qayd qilingandi, ya'ni 1963 yildan 1968 yilgacha qishloq xo'jaligida 1,4% dan 5,6% ga ya'ni 4 baravarga ko'paygan bo'lib, respublika xalq xo'jaligi bo'yicha bu ko'rsatkich 1,24% dan 2,47% ga ko'tarilgan, ya'ni 2 baravarga oshgan³.

Tuzilishi zich yopilgan, havoni tozalab turadigan qurilma kabinali paxta terish mashinalari bu vaqtda hali yaratilmagan edi. MTZ-50 rusumli paxta terish mashinasining kabinasida havoni tozalaydigan qurilma bo'lsa-da, yozning juda issiq kunlarida suvning kuchli bug'lanish holatiga mos kelmasdi. Toshkent traktor zavodi qulay sharoitdagi kabinali traktorlarni yaratish vazifalarini xal hal etmagan edi. Mehnat va texnika xavfsizligini himoya qilish xarajatlari respublika qishloq xo'jaligida ishlovchilar uchun juda sekin o'sgan. Bu ko'rsatkich 1963 - 1970 yillar ichida 18,4% ga o'sgan bo'lsa, xalq xo'jaligida o'sish birmuncha yuqori, 51% da bo'lgan. Bundan ko'rinadiki, qishloq xo'jaligi uchun ajratilgan miqdor xalq xo'jaligidan ham 10 marta past darajada bo'lgan. Ayni paytda ta'kidlash zarurki,

¹Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет мустанлакачилиги даврида. – Т.: «Шарк», 2000. - Б. 550.

³ Ийманова Д. Ўзбекисонда совет тузумининг кадрлар сиёсати ва унинг оқибатлари. – Т.: “Янги аср авлоди” 2013. -Б.140-141.

davlatning mehnatkashlar xavfsizligi uchun xalq xo'jaligiga ajratgan mablag'ining o'sish sur'ati ham qoniqarli miqdorda emasligi ko'rinib turibdi. Xolbuki, bu vaqtlarda kadrlar miqdori ko'paytirilishi bilan birga, ularning sifat tarkibi, ijtimoiy ahvolining yaxshilanishiga ham e'tibor qaratish davlatning asosiy vazifalaridan biri edi. Bu muammolarning bo'lishiga qaramay O'zbekistonda kolxoz va sovxozlarini mexanizator kadrlar bilan ta'minlashni ko'paytirish ishlari kengaytirildi. 1975 yilning o'zida qishloq xo'jaligi uchun mexanizator kadrlar tayyorlab beradigan 86 ta qishloq hunar-texnika bilim yurti ishlab turgan. Natijada 1965 - 1977 yillar davomida O'zbekiston qishloq xo'jaligida band bo'lgan xodimlarning soni 28,7% bo'lsa, mexanizator kadrlarning soni esa 68,1%ga ko'paydi. 1973 yilda mexanizator kadrlar 166900 ga yetdi. 1981 - 1985 yillar ichida xunar-texnika bilim yurtlari va ishlab chiqarish tayyorgarligining boshqa shakllarini tamomlab chiqqan mexanizatorlarning umumiy soni 657,2 ming kishini tashkil etdi. Aynan shu yillarda respublika jamoa xo'jaliklarida 149,6 kishi yangi kasbni egalladi va 381,7 ming kishi malakasini oshirdi. 1985 - 1987 yillar ichida xunar-texnika bilim yurtlarida, shuningdek, kolxoz, sovxozlarda va boshqa qishloq xo'jalik korxonalarida 226,6 ming mexanizator tayyorlandi. Shunday vaqtlar bo'ldiki, yiliga o'rta hisobda 100 mingdan mexanizator kadrlar tayyorlandi. Natijada bu kadrlarning bir qismi mexanizatorlik kasbini egallagani bilan o'z ixtisosligi bo'yicha ish topa olmay, xar xil yumushlarni bajaradigan ishchilar safiga borib qo'shildi. Bu holdan ta'kidlash kerakki, hunar-texnika ta'limi tartibining tarmoq tuzilishida jiddiy nomutanosibliklar bo'lib, uzoq vaqtlar mobaynida bu tartib kuchi asosan qishloq xo'jaligiga qaratildi, kolxoz va sovxozlarning ommaviy kadrlari, ayniqsa, mexanizator kadrlar muammosi birinchi darajali ahamiyat kasb etdi, natijada boshqa tarmoqlar uchun kadrlar yetishtirish nisbatan kam miqdorda amalga oshirildi. Muammolardan yana biri O'zbekiston qishloq xo'jaligi va suv xo'jaligi qurilishi uchun mexanizator kadrlar tayyorlovchi o'quv muassasalari amalda atigi 40% texnika va uskunalari bilan ta'minlangandi. Misol uchun, ittifoq bo'yicha bitta hunar-texnika bilim yurtiga o'rta hisobda Belorussiyada 38 traktor

to'g'ri kelsa, respublikada bor-yo'g'i 8 traktor to'g'ri kelardi. Tashkilot va korxonalar o'z otaliqlaridagi hunar-texnika bilim yurtlariga asosan ishlatilib bo'lingan, eskirib ketgan uskunalar, mashina va mexanizmlarni topshirardi. Bu muammolar, o'z navbatida, malakali mexanizator kadrlar tayyorlash imkonini bermasdi.

Yangi erlarning o'zlashtirilishi, kengayishi, agrar ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash, keng miqyosdagi xo'jalik obyektlarini ishga tushirish, qishloq xo'jaligida kadrlar kuchining ko'payishi, o'zbek dexqonining yaratuvchanlik mehnati qishloq iqtisodiyotida ijobiy siljishlarga ham olib keldi. Biroq yutuqlar bilan birga turg'unlik jarayonlari, tanglik holatlarining avj olayotganligi ham ko'zga yaqqol tashlandi. Bunday ahvolning sabablari sovet tuzumining illatlari, jamiyat taraqqiyotidagi kommunistik andozaning xomxayoldan iborat ekanligi edi. Bular orasida dehqon xo'jaliklari iqtisodiy huquqlarining poymol qilinishi, xo'jaliklarning o'zi yaratgan moddiy boyliklardan mahrum etilish hollarini ta'kidlab o'tshi kerak. Kadrlar masalasidagi xatoliklarga hech narsa deyilmas, ularni mahalliy boshqaruv organlarining tashkiliy ishidagi kamchiligi, xo'jaliklarning amaliy faoliyatidagi xatolari mutaxassislarning samarali ishlamaganligi oqibati deb ko'rsatilardi. Aslida bu xatolar partiyaning kadrlar siyosatidagi jiddiy kamchiligi, kadrlar yetishtirish, tanlash va joy-joyiga qo'yish usulining noto'g'riligida edi.

Bugungi kunga kelib, oliy va o'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlash ortib borayotgan talablarga javob bermaganligi, ta'lim jarayoni mafkuralashgan xususiyatga ega bo'lib, unda qishloq xo'jaligining ishlab chiqarishini tashkil etishdagi jahon tajribasi hisobga olinmaganligi ayon bo'ldi. Chunki, tahlil etilgan davrlarda qishloq xo'jaligida kadrlarning sifat jihatiga emas, balki soniga asosiy e'tibor qaratilganligini bilish mumkin. Tayyorlangan kadrlardan foydalanishda ko'pgina kamchiliklar ko'zga tashlandi, texnikumlar va oliy o'quv yurtlarining ta'lim jarayonini jonli amaliyot bilan bog'lashga kam e'tibor berildi. Muammolardan biri diplomli mutaxassislarning qo'nimsizligi bo'ldi. Oliy o'quv

yurtlari va texnikumlarni bitirib qishloqlarga yuborilgan yosh mutaxassislar uy-joy bilan yetarli ta'minlanmas, ular ko'pincha o'z mutaxassisligi bo'yicha ishlamasdi. Ularga zarur sharoit yaratilmay qisqa muddat ishlagach xo'jaliklarni tark etardi. Mexanizator va ommaviy kasb kadrlarni tayyorlashda qotib qolgan usullardan foydalanildi, natijada mazkur kadrlar masalasi shu kungi talablarga javob bermay qo'ydi. Masalan, O'zbekiston qishloq xo'jaligida 80-yillarning boshlarida band bo'lgan traktorchi-mexanizatorlar umumiy sonidan 63,8% i eng quyi - III razryad malakasiga ega edi. Qishloq xo'jaligida agronomlar yetarli bo'lsa-da, zootexnik va injener-texnik xodimlar deyarli kam edi. Vaholanki, respublika viloyatlarida ularning soni ehtiyojga nisbatan 50-60% ni tashkil qilardi. Qolgan 40-50% ining ish joylari amaliyotchilar va boshqa mutaxassislar bilan to'ldirilgandi. Shu boisdan ham qishloq xo'jalik texnikasidan unumli foydalanilmadi.

Qishloq xo'jalik rahbar kadrlari bilan ishlashda jiddiy kamchiliklar mavjud edi. Raxbariyat mamlakatda o'z mustabid tuzumining umrini yanada uzoqlashtirish maqsadida mahalliy kadrlarga qattiq ma'muriy tazyiqlar va mafkuraviy ta'sir ko'rsatishni uzluksiz ravishda amalga oshirib bordi. Eng halokatli ta'sir ko'rsatgan omil paxta yakkahokimligining majburiy tarzda avj oldirilishi bo'ldi. Garchi 80-yillarning oxiriga kelib mahalliy kadrlarga nisbatan vaziyat biroz yumshagan bo'lsa-da, lekin «paxta ishi» uydirmalari sovet davlatining O'zbekistonni qayta ishg'ol qilish uchun boshlagan navbatdagi siyosiy o'yinlaridan biri sifatida tarix sahifalariga bitildi.

1950 -1991 yillar chegarasida mustabid imperiyacha rejim saqlab qolinishi oqibatida O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi chinakam islohotchilik mazmuniga ega bo'lmadi. Qishloq xo'jaligi uchun zararli bo'lgan sovetlarcha rejalashtirish tizimining tiqishtirilishi qishloq xo'jaligiga to'siq bo'lib, uning rivojlanishini barbod qildi. Dehqonlarning yerga va ishlab chiqarishga egalik tuyg'usi, necha ming yillardan beri ongiga singib kelgan mehnatsevarlik hissi o'rniga ma'lum darajadagi rasmiyatchilik, belgilangan rejani majburiy bajarish, ko'zbo'yamachilik kabi illatlar paydo bo'ldi. Aslida O'zbekiston qishloq

xo‘jaligida ro‘y bergan keskin vaziyat muqarrar ravishda qo‘shimcha jiddiy chora-tadbirlar belgilashni, qishloq ahli turmush darajasini yaxshilashni talab qilsa-da, lekin bu illatlarning oldini olish chora-tadbirlari ishlab chiqilmadi. Muammodan qutulishning birdan-bir yo‘li yangi islohotlarni amalga oshirish, insonlarning yerga bo‘lgan munosabatini keskin o‘zgartirishdan iborat edi, biroq bu islohotlarni amalga oshirishga tuzum siyosati to‘sqinlik qilardi.

XULOSA

Mustaqillik sharofati bilan O'zbekistonning yer osti va yer usti zaxiralari, ajdodlar mehnati bilan yaratilgan boyliklar, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va ma'naviy kuch-qudrat, imkoniyatlar o'zbek xalqi farovonligi, mustaqil respublikaning hozirgi hayoti va istiqboli uchun xizmat qiluvchi zamin bo'lib qoldi. Inson omili, inson manfaatlari, uning huquq va erkinliklarini himoya qilish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yish, madaniyat va ma'naviyat masalalarida ham ijtimoiy adolat tamoyillariga asoslanilib, har tomonlama bilimga ega bo'lgan yetuk mutaxassislarni tayyorlash uchun jahon standartlariga mos sharoitlar yaratildi.

KPSS va sovet davlatining 74 yillik hukmronligi davrida o'zbek xalqi hayotiga majburiy singdirilgan «sotsialistik» turmush tarzi ijtimoiy-iqtisodiy hayotda nohaqliklar yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Barcha sohada vujudga kelgan markazdan turib ma'muriy-buyruqbozlik tarzida boshqarish, bir tomonlama rivojlanish yo'lini tanlab olish oqibatida mamlakat tanazzul yoqasiga keldi. Siyosiy rahbariyatning sobiq ittifoqdosh respublikalarda olib borgan nazorati partiya apparatini qaram davlatlar ustidan nazoratini mustahkamlashga erishdi. Partiya barcha sohalarda boshqaruvni o'z qo'liga oldi. Natijada partiyaning kadrlar siyosati sohasida bir tomonlama rivojlanish yuzaga keldi va to'plangan ko'plab ilmiy materiallar tahlil etilib quyidagixulosalarga kelindi:

- tadqiq etilayotgan yillar davomida sovet davlati ijtimoiy-iqtisodiy hayoti «rejali taraqqiyot» yo'lidan bordi. Sovet hukumati siyosatida «yagona sovet xalqi»ni shakllantirish bevosita kadrlar masalasi bilan bog'liq bo'ldi va ittifoqdosh respublikalar milliy manfaati e'tiborga olinmaganligidan O'zbekistonda ham kadrlar siyosati bir taraflama markaz manfaatidan kelib chiqqan holda yuritildi;
- sovet hukumati ittifoqdosh respublikalarga jumladan, O'zbekistonga kadrlarni ko'chirish siyosatini doimiy ravishda qo'lladi. Milliy respublikalardagi mas'ul lavozimlarga markazdan yuborilgan vakillarni tayinlash tartibi o'rnatilgan bo'lib, bu jarayon istiqbol yillarigacha davom etdi. Bu siyosatning olib borilishi mahalliy

aholi manfaatlarini kamsitishning ko‘rinishlaridan biri edi. Markazdan kelgan kadrlar sharoitini yaxshilash, ularni uy-joy bilan ta‘minlash maqsadida katta ishlar qilinishi baravarida, mahalliy xalqlarni o‘z turar joylaridan yangi paxtachilik uchun o‘zlashtirilgan hududlarga ko‘chirish siyosati avj oldi. Natijada aholi o‘rtasida uy-joy muammolari, ortiqcha mehnat resurslarining yanada ko‘payishi, demografik vaziyatning yanada murakkablashuviga sabab bo‘ldi;

- O‘zbekistonni ishchilar va dehqonlar respublikasi, keyin «mehnatkashlar», nihoyat «xalq ommasi» respublikasi deb e‘lon qilgan sovet davlati mamlakatda hukmron bo‘lgan kommunistik partiyaning qat’iy boshqaruviga, «partiya sovet majmui» qo‘liga topshirib qo‘ydi, oqibatda kadrlar partiyaning asosiy harakatlanuvchilariga aylantirildi;

- sovet davlati O‘zbekistonda umumiy, o‘rta maxsus va oliy ta‘limni, fan va madaniyatni rivojlantirib borib, ularni yuqori darajada mafkuralashtirish, siyosiy va baynalmilal tus berishga, xalqni ko‘p asrlik ma‘naviy merosi, milliy ananalari va urf-odatlaridan mahrum qilishga intildi. Ishlab chiqarishga kadrlar tayyorlashning dasturiy rejalarida mutaxassis fanlar ortda qolib, mafkuraviy fanlarning o‘qitilishi kuchaytirildi. Tayyorlanayotgan mutaxassislarning son miqdoriga e‘tibor berilib, oqibatda ularning saviyalari jahon talablaridan jiddiy ortda qolishi, xalq xo‘jaligi uchun nomutanosib mutaxassislar tayyorlanishiga, ulardan ishlab chiqarishda samarasiz foydalanshiga olib keldi;

- kadrlar siyosatida sovetlar imperiyasining ishlab chiqaruvchi kuchlar yetkazib beruvchi xom ashyo bazasiga aylantirilib, mahalliy kadrlar faoliyati, ularning shart-sharoiti doimo ikkinchi darajali ish sifatida qaralishiga olib keldi. Respublikada mahalliy aholining o‘sinh sur‘ati yuqoriligiga qaramay, ishchi kuchlarini mehnat bilan band qilishga doir tadbir va rejalar me‘yoriy ishlab chiqilmadi;

- sovet ma‘muriyati O‘zbekistonda ko‘p tarmoqli sanoat ishlab chiqarish bazasini, muvozanatli qishloq xo‘jaligini rivojlantirishdan manfaatdor emasdi. Ko‘proq SSSR jahon bozoriga qaram bo‘lib qolgan tarmoqlarni, markazni zarur

xom ashyo bilan barqaror ta'minlab turishi lozim bo'lgan sohalarni rivojlantirishga e'tibor berdi. Kadrlarni tayyorlashda ham shunday nomutanosibliklarga yo'l qo'yildiki, oqibatda ba'zi sohalarda kadrlar miqdori ko'p bo'lsa, ba'zi tarmoqlarda esa kadrlar tanqisligi yuzaga keldi. Ayniqsa, qishloq xo'jalik sohasiga kadrlar tayyorlash rejadan oshib ketganligi, sanoat tarmoqlarida kadrlar nomutanosibligi, fan-texnika taraqqiyotini belgilaydigan tarmoqlarda mahalliy millat vakillaridan kadrlar tanqisligi doim sezilib turdi. Agrar sohada paxta yakkahokimligi o'rnatilishiga olib keldi, dehqon «rejali» boshqaruvning asosiy bo'g'ini bo'lib qoldi. Aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash sohasida, ijtimoiy muhofaza, onalik va bolalikni asrash kabi masalalar davlat siyosatidan tushib qoldi;

- sovet siyosati o'zbek xalqini asoratga solish, uning ma'naviy-intelektual salohiyatini talash bilan qo'shib olib borildi. Sovet tuzumi yillarida, kadrlarning ongi yoppasiga marksizm-leninizm g'oyalari orqali «ishlov» berildi, tarixiy xotira zaiflashtirildi. Ayniqsa, bunda xotin-qizlardan keng foydalanildi. Yoppasiga ayollar va erkaklar tengligini tinimsiz singdirilishi natijasida xotin-qizlar mehnatidan samarali foydalanildi. Ular og'ir, sharoiti noqulay mehnat jabhalariga jalb etildi. Urushdan keyin sanoat tarmoqlarida kadrlar tanqisligi sezilarli bo'lgan paytda mahalliy xotin-qizlar orasida ishlash bilan birga ko'p bolalik avj oldi. Oqibatda bu holat ayol organizmi va uning tug'ilgan farzandlari uchun ham katta kuch va zo'riqishga olib keldi;

- sanoat ishlab chiqarishda ham turli usullarni amalga oshirdiki, garchi sovet davrida mamlakat sanoatining hajm ko'rsatkichlarida ijobiy o'zgarishlar ko'zga tashlansa-da, bular asosan xom ashyo va paxta tozalash, pillakashlik, yoqilg'i, qazilma sanoati, rangli metallurgiyaning resurs tarmoqlari hisobida bo'ldi. Bu tarmoqlar xom ashyoga birlamchi ishlov berishga moslashtirilgan texnologiyalar bilan ishladi. Injener-texnik kadrlarning rivojlanish ish tizimi ham shu zaylda bordi. Ularning ixtirochilik imkoniyatlari chegaralangan, mahalliy muhandis-texniklar markazning buyrug'isiz biror yangilik yarata olmasdilar;

- O'zbekiston xalq xo'jaligi majmuining ixtisoslashuvi, uning iqtisodiy

rivojlanishi bir tomonlama xususiyatga ega bo'lib, markazning buyruqlariga bo'ysundirilishi, kadrlarni ham shu yo'riqda ushlash, respublikani tayyor mahsulot sotadigan bozor sifatida saqlab qolishni maqsad qildi va bunga yillar davomida erishildi. Milliy kadrlarni o'stirish, ularni uy-joy bilan ta'minlash, tibbiy xizmat ko'rsatish kabi sohalardagi muammolar jiddiy e'tiborga olinmay, zarur chora-tadbirlar ko'rilmadi. Bu respublika aholisining asosiy qismi bo'lgan qishloq xo'jalik kadrlari misolida yaqqol ko'zga tashlandi. Qishloqlarda paxta yakka hokimligi kuchayib, paxtani yetishtirish, terish og'ir qo'l mehnatiga asoslangan holda olib borildi. Dehqonlarning mashaqqatli mehnatiga qaramay ish haqlari me'yori to'lanmadi. Orzu-havaslari u yoqda tursin, kiyim-kechakka yetarli haq ololmadilar, paxta dalalarining zaharidan bolalar majruh tug'ilib, aholining yarmidan ko'pi sariq kasalligi, jigar xastaligi kabi turli kasalliklar bilan kasallandi. Qishloq va shahar aholisi siyosiy va insoniy huquqlardan, xususiy mulkchilik va shaxsiy manfaatdorlik, dindan mahrum etilib, asosan partiya va hukumat manfaatlari uchun tinimsiz mehnat qildi, biroq turmush darajasi yaxshilanishi o'rniga mehnatga yarasha haq olmay tobora qashshoqlashdi. Shunga qaramasdan, markazdan respublikaning halol mehnatkash xalqi sha'niga «boqimanda» degan tuhmatlar aytilib, ittifoqdan tegishli, qonuniy byudjet mablag'lari, mahsulotlar iste'mollari ajratish bo'yicha sun'iy qiyinchiliklar tug'dirish orqali O'zbekiston va boshqa O'rta Osiyo respublikalari qaramlikka, siyosiy tahdidlar qurbonligiga mahkum etildi;

- sovet tuzumi siyosatiga xos bo'lgan markazni kuchaytirish, respublika milliy boyliklarini imperiya markaziga to'xtovsiz tashish, xalqni umumiy tenglikda tutib turish, ularning mehnatidan ayovsiz ravishda foydalanishning turli tuman vositalarini vujudga keltirdi. Bu vositalar kadrlarni qatag'on qilish yo'li bilan majburlash, ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirishning avvalgi rejalarini yashirin ravishda singdirish yo'li bilan faol joriy etildi.

O'zbekistonda ko'p yillar davomida yuzaga kelgan muammolar yig'ilib ijtimoiy ziddiyatlarni keskinlashtirdi va sobiq tuzumning yemirilishiga olib keldi.

Ayniqsa bu holat 1980- yillar oxiri 1990- yillar boshida kengaydi. Xalqlar milliy o'zligini anglashining kuchayishi, milliy mustaqillikga erishish qadamlari ildamlanib, sovet ittifoqi parchalandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

I. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А.Каримов асарлари

- 1.1. Каримов И.А. Ўзбекистон миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. Т.1. — Тошкент: «Ўзбекистон», 1996. - 364 б.
- 1.2. Каримов И.А. Биздан озод ва обод ватан қолсин. Т.2. - Тошкент: «Ўзбекистон», 1996. - 382 б.
- 1.3. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари. - Тошкент: «Ўзбекистон», 1998. - 687 б.
- 1.4. Каримов И.А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. - Тошкент: «Ўзбекистон», 1998. — 32 б.
- 1.5. Каримов И.А. Биз келажакимизни ўз қўлимиз билан курашимиз. Т.7. — Тошкент: «Ўзбекистон», 1999. — 412 б.
- 1.6. Каримов И.А. Озод ва обод ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. Т.8. - Тошкент: «Ўзбекистон», 2000. - 524 б.
- 1.7. Каримов И.А. Ватан равнақи учун ҳар биримиз маъсулмиз. Т.9. - Тошкент: Ўзбекистон, 2001.-439 б.
- 1.8. Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон ҳеч кимга қарам бўлмайди. Т.13. —Тошкент: «Ўзбекистон», 2004. -448 б.
- 1.9. Каримов И.А. Юксак маънавият — енгилмас куч. - Тошкент: «Маънавият», 2008. - 176 б.
- 1.10. Каримов И.А. Ўзбекистон мустақилликка эришиш остонасида. - Тошкент: «Ўзбекистон», 2011. -440 б.
- 1.11. Каримов И.А. Тарихий хотира ва инсон омили-буюк келажакимизнинг гаровидир. - Тошкент: «Ўзбекистон», 2012.

Адабиётлар

1. Абдурахмонов К. Управление трудовым потенциалом региона. - Ташкент: «Узбекистан», 1990. - 176 с.
2. Абдурахмонов Қ.Х. Илмий техника таракқиёти ва ишчи кадрлар тайёрлаш. - Тошкент: «Ўзбекистон», 1972. - 21 б.
3. Абдурахмонов Қ.Х. Ишчи кадрлар тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш. - Тошкент: «Ўхитувчи», 1988. - 144 б.
4. Азизхўжаев А.А. Мустақиллик: курашлар, изтироблар, қувончлар. - Тошкент: «Академия», 2001. - 112 б.
5. Азизхўжаев А.А. Чин ўзбек иши. - Тошкент: «Академия», 2003. - 143 б.
6. Алимова Д.А., Голованов А.А. Ўзбекистон совет тузуми даврида: сиёсий ва маънавий тазйиқ оқибатлари (1917-1990 йй.). - Тошкент: «Ўзбекистон». 2000. - 75 б.
7. Алимова Д.А., Голованов А.А. Узбекистан в 1917-1990 годы противоборство идей и идеологий. - Ташкент: «Узбекистан», 2002. - 80 б.
8. Ата-Мирзаев О., Гентшке В., Муртазаева Р. Узбекистан многонациональный: историко-демографический аспект. - Ташкент: Медицинской литературы имени Абу Али ибн Сине, 1998. - 160 с.
9. Ата-Мирзаев О., Гентшке М., Муртазаева Р., Салиев Л. Историко демографические очерки урбанизации Узбекистана. — Ташкент: «Университет», 2002. — 125 с.
10. Бобожонова Д.Б. Ўзбекистонда демографик жараёнлар ва уларнинг хусусиятлари. - Тошкент: «Фан», 1995. - 96 б.
11. Бобожонова Д.Б. Ўзбекистонда ижтимоий-иқтисодий муносабатлар. - Тошкент: «Шарқ», 1999. - 157 б.

12. Гуревич М. Ривожланган социализм шароитида Ўзбекистон компартиясининг ишчи кадрлар тайёрлаш бўйича фаолияти. - Тошкент: «Ўзбекистон», 1981. - 36 б.
13. Жабборов М.Э. Кадрлар малакасини ошириш ва уларни қайта тайёрлаш. - Самарқанд, 2000. - 40 б.
14. Зиёев Ҳ. Тарих - ўтмиш ва келажак кўзгуси. - Тошкент: «Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти». 2000. - 287 б.
15. Ийманова Д.А. Ўзбекистонда совет тузумининг кадрлар сиёсати ва унинг оқибатлари.-Тошкент: Янги аср авлоди, 2013.-188 б.
16. Каримова Х. Фан техника тараққиёти ва қишлоқ хўжалигида кадрлар масаласи. - Тошкент: «Ўзбекистон», 1985. - 27 б.
17. Максакова Л.П. Миграция населения Республики Узбекистан. - Ташкент: Издательский дом «Элдинур», 2000. - 115 с.
18. Мустақиллик: Изоҳли илмий-оммабоп луғат. - Тошкент: «Шарқ», 1998. 320-б.
19. Орипов Ф. Ўзбек ишчи кадрларининг ташкил топиш тарихидан. - Тошкент: «Фан», 1968. - 135 б.
20. Суюнов С.Х. Фан-техника тараққиёти ва кадрлар тайёрлаш. — Тошкент: «Ўзбекистон», 1987. — 40 б.
21. Тошмуротов Т. Кадрлар тайёрлаш ва улардан самарали фойдаланиш. - Тошкент: «Ўзбекистон», 1985. -31 б.
22. Ўзбекистон аҳолиси ва меҳнат ресурслари. -Тошкент: «Ўзбекистон», 1981. - 336 б.

23. Ўзбекистон тарихи (Олий ўқув юртларининг номутахассис факультетлари талабалари учун дарслик). Р.Ҳ. Муртазаеванинг умумий таҳрири остида. - Тошкент: «Янги аср авлоди», 2003. - 675 б.

24. Ўзбекистон тарихи, 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Н.Жўраев, Ш.Каримов. - Тошкент: «Шарк», 2011. - 720 б.

25. Ўзбекистоннинг янги тарихи, 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Илмий муҳарир М. Жўраев. — Тошкент: «Шарк», 2000. - 688 б.

26. Юнусова Х. Ўзбекистонда совет давлатининг миллий сиёсати ва унинг оқибатлари (XX асрнинг 80 йиллари).- Тошкент: «Зарқалам», 2005. -116 б.